

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida  
UDK:**

**XANALIYEV BOTIR BAXTIYOROVICH**

**TIJORAT BANKLARINING DAROMAD BAZASINI MUSTAHKAMLASH  
YO‘LLARI**

**08.00.07-“Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(Phd) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan  
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:  
DSc, dotsent Gadoev So‘hrob Jumaqulovich**

**TOSHKENT - 2024**

## MUNDARIJA

	<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I-BOB</b>	<b>TIJORAT BANKLARINING DAROMAD BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING NAZARIY ASOSLARI VA XORIJ TAJRIBASI.....</b>	<b>11</b>
1.1-§	Tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar va ularning amaliy ahamiyati.....	11
1.2-§	Tijorat banklarining daromad bazasini baholash uslubiyotlari va ularning qiyosiy tavsifi.....	20
1.3-§	Tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash bo'yicha ilg'or xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati.....	28
	Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	39
<b>2-BOB</b>	<b>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI DAROMAD BAZASINING ZAMONAVIY HOLATI.....</b>	<b>45</b>
2.1-§	Tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlashning me'yoriy-huquqiy asoslari.....	45
2.2-§	Tijorat banklari daromad bazasining amaldagi holati.....	54
2.3-§	Tijorat banklarining daromad bazasiga ta'sir etayotgan omillar.....	67
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	75
<b>3-BOB</b>	<b>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING DAROMAD BAZASINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI.....</b>	<b>79</b>
3.1-§	Tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar.....	79
3.2-§	Tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash yo'llari.....	91
	Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	101
	<b>XULOSA.....</b>	<b>104</b>
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>113</b>

## **Kirish**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash ular faoliyatining barqarorligiga erishishning zaruriy sharti hisoblanadi. Masalan, AQSHning «Bank of America» bankida kreditlarning daromadlilik darajasi 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 1,8 foizli punktga oshgani holda, Germaniyaning «Deutsche Bank»da fondli aktivlarning daromadlilik darajasi ushbu davriy oraliqda 2,1 foizli punktga oshdi<sup>1</sup>. Xorij tajribasidagi ijobiy jihatlarning mavjudligi uni o'rganishning amaliy jihatlari asoslaydi.

Jahon bank amaliyotida sof foizli marjaning me'yoriy darajasini ta'minlash, daromad keltiradigan aktivlarning o'sish sur'ati bilan daromad keltiradigan aktivlardan olingan daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, aktivlarning portfellarini boshqarishni takomillashtirish yo'li bilan foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'ining yuqori va barqaror darajasiga erishish, taqsimlanmagan foyda hisobidan tijorat bankining kapitallashtirish darajasini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq, tijorat banklarining daromad bazasini diversifikatsiya qilish, banklarning daromad bazasiga tashqi omillarning ta'sirini baholash aniqligini oshirish, sof foizli spreadning barqaror darajasini ta'minlash masalalarini kompleks va tizimli tarzda o'rganilmaganligi mazkur yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligidan dalolat beradi.

«O'zbekistonda tijorat banklari aktivlarining likvidliligi va daromadlilik o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish orqali kreditlar daromadlilikining barqarorligini ta'minlash, tijorat banklari passivlarining barqarorligini ta'minlash, bank investitsion operatsiyalarining barqarorligiga erishish, tijorat banklarining aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblikni ta'minlash, innovatsiyalarni bank amaliyotiga joriy qilish orqali bank mahsulotlari tannarxini pasaytirishga katta

---

<sup>1</sup> Consolidated Balance Sheet. Consolidated Statement of income. Annual Report 2022// [www.bankofamerica.com](http://www.bankofamerica.com).; Consolidated Statement of Profit or Loss. Consolidated Statement of Financial Position//[www.db.com](http://www.db.com).

e'tibor qaratilmoqda»<sup>2</sup>. «moliyaviy risklarni baholash va boshqarish tizimini ilg'or xorij tajribasi asosida rivojlantirish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, kredit portfelini boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, davlat banklarini kompleks transformatsiya qilish»<sup>3</sup> milliy bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari qilib belgilangan. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash banklarning daromad bazasini mustahkamlash yuzasidan ilmiy asoslangan taklif-tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini belgilaydi.

«O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari, 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-son «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 21 maydagi PQ-4325-son «Davlat korxonalarini va ustav kapitalida davlat ishtirok etayotgan tijorat banklarini restrukturalizatsiya va isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari»<sup>4</sup> hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qilishi mumkin.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

---

<sup>2</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni//QHMMB:06/205992/0581-son. 13.05.2020 y.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonunchiligi //www.lex.uz.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash masalasining nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlar – «V.Dorofeev, S.Kumok, N.Kunitsina, A.Ushviskiy, A.Maleev, K.Kurilov, A.Kurilova, O.Lavrushin, Yu.Maslanchenkov, A.Sheremet, J.Sinki va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan»<sup>5</sup>.

Masalan, J. Sinki o‘zining tadqiqotlarida, «tijorat banklarining daromad bazasi barqarorligini baholash uslubiyotlarini qiyosiy tahlil qilgan va ularni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalarni shakllantirgan»<sup>6</sup>. O.Lavrushin esa, «o‘zining tadqiqotlarida asosiy e‘tiborni tijorat banklarining kredit operatsiyalarining daromadlilikiga qaratgan»<sup>7</sup>.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar – «A.Abdullaev, B.Berdiyarov, Sh.Ibodullaev, S.Togaev, M.Axmadedev, D.Shakirov, S.Gadoev, O.Yo‘ldoshev, F.Xolmamatov, M.Ibodullaeva va boshqalarning ilmiy ishlarida tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash masalasining alohida olingan nazariy va amaliy jihatlari tadqiq qilingan»<sup>8</sup>.

---

<sup>5</sup> Дорофеев В. Д. Стратегическое планирование коммерческого банка//Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. Общественные науки. – 2013. – № 2 (26).- С. 164-170.; Кумок С.И. Анализ деятельности коммерческих банков. – М. : Вече, 1996. – 244с.; Кунитсина Н. Н., Ушвиский А.В., Малеев А.В. Бизнес-планирование в коммерческом банке. – М. : Финансы и статистика, 2007. – 304 с.; Курилов К. Ю., Курилова А. А. Формирование эффективной структуры организации как средство преодоления негативного влияния цикличности экономических процессов//Аудит и финансовый анализ, 2013. - № 4. С. 248–253.; Лаврушин О.И. Управление деятельностью коммерческого банка (банковский менеджмент). – М.: Юристь, 2002. – 688 с. Лаврушин О.И. Банковское дело. – М.: КНОРУС, 2008. – 768 с.; Масленченков Ю. С. Финансовый менеджмент банка. – М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2003. – 400 с.; Шеремет А. Д. Финансовый анализ в коммерческом банке. – М.: Финансы и статистика, 2000. – 254 с.; Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Алпина Паблишер, 2017. – 1018 с.

<sup>6</sup> Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Алпина Паблишер, 2017. – 1018 с.

<sup>7</sup> Лаврушин О.И. Банковское дело. – М.: КНОРУС, 2008. – 768 с.; Масленченков Ю. С. Финансовый менеджмент банка. – М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2003. – 400 с.;

<sup>8</sup> Abdullaev A.Ya. Tijorat banklarining likvidlilik darajasini oshirish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 21.; Berdiyarov B.T. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidlili va to‘lov qobiliyatini ta‘minlash masalalari. I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 73b.; Ibodullaev Sh.T. Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini ta‘minlash yo‘llari. I.f.b.f.d.diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 56 b.; Togaev S.S. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash yo‘llari. I.f.b.f.d.diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 55 b.; Axmadedev M. G., Шакиров Д. Т. Экономическая безопасность в банковском секторе//Актуальные проблемы экономики и права. 2011. № 2. С. 39–45.; Gadoev S.J. Tijorat banklarida likvidlilik riskini boshqarishni takomillashtirish. I.f.b.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 47 b.; Yo‘ldoshev O.A. O‘zbekiston Markaziy bankinging tijorat banklari faoliyatini tartibga solish amaliyotini takomillashtirish. I.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2011. – 18 b.; Xolmamatov F.K. Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish. I.f.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2019. - B. 25.;Ibodullaeva M.T. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini rivojlantirish yo‘llari. I.f.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 52 b.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlashning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish;

banklarning daromad bazasi barqarorligini baholash uslubiyotlarini qiyosiy tahlil qilish;

tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash borasidagi ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish;

respublikamizda tijorat banklari daromad bazasining zamonaviy holatini tahlil qilish;

mamlakat tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarni aniqlash;

tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida aksiyadorlik-tijorat banklari – «Bank of America» banki (AQSh), «Deutsche Bank» (GFR), «BNP Paribas» bank (Fransiya), AT «Asakabank» (O'zbekiston), AT «Aloqabank» (O'zbekiston) olingan.

**Tadqiqotning predmetini** banklarning daromad bazasini shakllantirish va boshqarish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya tadqiqotni amalga oshirishda induksiya va deduksiya, statistik guruhlash va moliyaviy tahlil usullari hamda ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tijorat banklari kreditlarining daromadlilikini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning me'yoriy darajasiga erishish ( $R_{r.c}=1,0\%$ ;  $S_{s.f}=1,25\%$ ), kreditlardan olinadigan foizli

daromadlarning jami daromadlar hajmidagi salmog'ining me'yoriy darajasini (*min 60%*) ta'minlash yo'li bilan kreditlarning barqaror daromadlilik darajasiga erishish taklifi asoslangan;

tijorat banklari yalpi daromadi tarkibida investitsiya operatsiyalaridan olinadigan foizli daromadlarning barqaror ulushini ta'minlash yo'li bilan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olinadigan daromadlarning yillik o'sish sur'atining maqbul darajasi ( $MD=73\%-75\%$ ) chegarasi asoslangan;

belgilangan stavkaga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha sof foizli marjaning me'yoriy darajasini ta'minlash ( $M_{s.f}=4,5\%$ ), lahzali likvidlilik koeffitsienti bo'yicha me'yoriy darajasiga ( $K_{l.l}=10,0\%$ ) erishish orqali banklarning yalpi daromadi tarkibida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olingan daromadlarning yuqori va barqaror darajasini ta'minlash tavsiya qilingan;

hissali ishtirok etish shaklidagi investitsiyalardan olinadigan daromadlarning me'yoriy darajasiga erishish ( $D_{o.a}=15\%$ ) va har bir xorijiy valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyasining yuqori me'yoriy darajasini ta'minlash yo'li bilan (*max 10,0%*) foizsiz daromadlar va foizsiz xarajatlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash taklif qilingan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarning amaliy ahamiyati asoslab berilgan;

«tijorat banklarida sof foydaning me'yoriy darajasini ta'minlash maqsadida passivlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish orqali foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan barqaror darajasini ta'minlash, sof foydaning o'sish sur'ati bilan brutto aktivlarning riskka tortilgan summasining o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashning maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan

mamlakat tijorat banklarining daromad bazasini barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar aniqlangan;

tijorat banklarining daromad bazasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarning ta'sir darajasi asoslab berilgan»<sup>9</sup>.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ular dissertatsion tadqiqot mavzusiga oid bo'lgan ilmiy-nazariy qarashlarning qiyosiy va tanqidiy tahliliga, xorijiy transmilliy banklar tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalariga hamda rasmiy statistik va amaliy ma'lumotlarning tahlillariga asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ulardan iqtisod yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida «Pul va banklar», «Bank ishi» fanlarini o'qitishda va o'quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ulardan respublikamiz tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tijorat banklari kreditlarining daromadlilikini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning me'yoriy darajasiga erishish ( $Rr.c=1,0\%$ ;<sup>10</sup>  $Ss.f=1,25\%$ ), kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning jami daromadlar hajmidagi salmog'ining me'yoriy darajasini (*min 60%*) ta'minlash yo'li bilan kreditlarning barqaror daromadlilik darajasiga erishish taklifi AT «Aloqabank» amaliyotiga joriy qilingan (AT «Aloqabank»ning 2023 yil 24 martdagi 24-04/937-sonli ma'lumotnomasi). «Ushbu taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida AT «Aloqabank» foizli daromadlarining umumiy hajmida kreditlardan olingan foizli daromadlarning salmog'i 2021 yilda 2020 yilga nisbatan 8,2 foizli punktga oshgan»<sup>11</sup>;

---

<sup>9</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

<sup>10</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

<sup>11</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;



tijorat banklari yalpi daromadi tarkibida investitsiya operatsiyalaridan olinadigan foizli daromadlarning barqaror ulushini ta'minlash yo'li bilan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olinadigan daromadlarning yillik o'sish sur'atining maqbul darajasi ( $MD=73\%-75\%$ ) chegarasidan foydalanish taklifi AT «Aloqabank» amaliyotiga joriy qilingan (AT «Aloqabank»ning 2023 yil 24 martdagi 24-04/937-sonli ma'lumotnomasi). «Mazkur taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida AT «Aloqabank»ning qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olgan daromadlari miqdori 2021 yilda 2020 yilga nisbatan 73,8 foizga oshgan»<sup>12</sup>;

belgilangan stavkaga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha sof foizli marjaning me'yoriy darajasini ta'minlash ( $M_{s.f}=4,5\%$ ), lahzali likvidlilik koeffitsienti bo'yicha me'yoriy darajasiga ( $K_{l.l}=10,0\%$ ) erishish orqali banklarning yalpi daromadi tarkibida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olingan daromadlarning yuqori va barqaror darajasini ta'minlash taklifi AT «Aloqabank» amaliyotiga joriy qilingan (AT «Aloqabank»ning 2023 yil 24 martdagi 24-04/937-sonli ma'lumotnomasi). «Ushbu taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida AT «Aloqabank»ning foizli daromadlari hajmida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olingan foizli daromadlarning salmog'i 2021 yilda 2020 yilga nisbatan 1,6 foizli punktga oshgan»<sup>13</sup>;

hissali ishtirok etish shaklidagi investitsiyalardan olinadigan daromadlarning me'yoriy darajasiga erishish ( $D_{o.a}=15\%$ ) va har bir xorijiy valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyasining yuqori me'yoriy darajasini ta'minlash yo'li bilan «( $max 10,0\%$ ) foizsiz daromadlar va foizsiz xarajatlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash taklifi AT «Aloqabank» amaliyotiga joriy qilingan (AT «Aloqabank»ning 2023 yil 24 martdagi 24-04/937-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida AT «Aloqabank»da operatsion xarajatlarga

---

<sup>12</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

<sup>13</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

qadar sof daromadning miqdori 2021 yilda 2020 yilga nisbatan 5,3 foizga oshgan»<sup>14</sup>.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari – 2 ta respublika va – 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami – 11 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda – 5 ta ilmiy maqola, shundan – 2 tasi xorijiy nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

---

<sup>14</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

## **I BOB. TIJORAT BANKLARINING DAROMAD BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING NAZARIY ASOSLARI VA XORIJ TAJRIBASI**

### **1.1-§. Tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar va ularning amaliy ahamiyati**

Tijorat banklarining daromad bazasini oshirish mavzusi bank sohasida katta tajribaga ega mamlakatlar iqtisodchilari o'rtasida jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo'ldi va u iqtisodiy adabiyotlarda hamon ilmiy munozaralarning asosiy nuqtasi bo'lib qolmoqda.

V.Dorofeevning xulosasiga ko'ra, «bankning o'sish strategiyasi agressiv raqobat siyosatiga yo'nalganlikni ko'zda tutadi va ushbu raqobat siyosati raqobatchilarni o'ta qattiq usullardan, shu jumladan, har doim ham legitim bo'lmagan usullardan foydalangan holda siqib chiqarishga yo'naltirilgan bo'ladi. Mazkur strategiyani amalga oshirish nisbatan rentabelli va yuqori riskli moliyaviy operatsiyalarga ustuvor tarzda yo'naltirilganlik bilan bog'liq»<sup>15</sup>.

Agressiv o'sish strategiyasi asosan foyda olishga intilishdan iborat. Bunday yondashuv, birinchi navbatda, katta xavfni o'z ichiga olgan moliyaviy amaliyotlar orqali yuqori darajadagi daromadga olib keladi. Ammo shuni e'tirof etish kerakki, bunday yuqori tavakkalchilikli moliyaviy amaliyotlar natijasida moliyaviy sanksiyalar, jarimalar qo'llanilishi, ayrim bank faoliyatiga cheklovlar qo'llanilishi, bankning moliyaviy holati barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

S.Kumok rahbarligidagi bir guruh iqtisodchi olimlarning xulosasiga ko'ra, «hozirgi davrda kapitalga to'g'ri keladigan foyda me'yorini kapitalning etarililigini kamaytirish hisobiga oshirishning amalda iloji yo'q. Qattiq raqobat va kredit resurslarining qimmatlashishi kapitalning aktivlarga nisbatan optimal darajasiga erishish imkonini bermaydi. Shuning uchun jami kapitalga to'g'ri keladigan foyda me'yorini oshirishning bosh zaxirasi bo'lib, aktivlarning qaytimi darajasini oshirish hisoblanadi»<sup>16</sup>.

---

<sup>15</sup> Дорофеев В. Д. Стратегическое планирование коммерческого банка//Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. Общественные науки. – 2013. – № 2 (26).- С. 168.

<sup>16</sup> Анализ деятельности коммерческих банков / под общ. ред. С. И. Кумок. – М. : Вече, 1996. – С. 153.

Shuni ta'kidlash kerakki, bank majburiyatlarining bozor qiymati uning aktivlariga nisbatan oshganida, bu foiz xarajatlarining oshishiga va sof foydaning kamayishiga olib keladi. Binobarin, bu holat bankning o'z kapitali rentabelligining standart darajasiga ( $ROE = \min 15\%$ ) erishishiga to'sqinlik qilmoqda.

N.Kunitsina xulosa qiladiki, «birinchidan, banklar tomonidan olingan daromadlarning miqdori va sifati ular daromad bazasini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi; ikkinchidan, banklar daromadlarining kamayishi ularning moliyaviy qiyinchilikka duchor bo'lishining ob'ektiv indikatori hisoblanadi; uchinchidan, foizli daromadlar foiz daromadlarga nisbatan ahamiyatliroq hisoblanadi»<sup>17</sup>.

Bizningcha, N.Kunitsinaning xulosasi muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, bank mahsuloti marketingini samarali boshqarish natijasida olinadigan daromad miqdori va sifati bank sof foydasining barqarorligini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ikkinchidan, hisoblangan daromadning amalga oshirilgan xarajatlarga nisbatini baholash orqali bank daromadlari sifatining birlamchi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Nihoyat, daromad keltiruvchi aktivlarning o'sish sur'atlari bilan ushbu aktivlardan olinadigan daromadlarning o'sish sur'atlari o'rtasidagi nomuvofiqlik sof foyda barqarorligiga putur yetkazadi.

A.Sheremet tadqiqoti natijasida shunday xulosa qilgan: «kredit operatsiyalaridan olingan daromadlarni tahlil qilishda kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarini yaratish uchun qilingan xarajatlarni hisobga olish zarur. Shuning uchun, kredit operatsiyalarining haqiqatdagi daromadlilikini quyidagi formula orqali tuzatish kerak»<sup>18</sup>:

$$\ll[(KOD - EYZ) \cdot m \cdot 100] / (V \cdot 360),$$

formula komponentlari:

KOD – kreditlardan olingan foizli daromadlar summasi;

EYZ – ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasi;

m – jalb qilingan resurslar davri (kunlarda);

<sup>17</sup> Кунитсина, Н. Н. Бизнес-планирование в коммерческом банке. – М. : Финансы и статистика, 2007. – 304 с.

<sup>18</sup> Шеремет, А. Д. Финансовый анализ в коммерческом банке. – М. : Финансы и статистика, 2000. – С.72.

V – jalb qilingan resurslarning hajmi»<sup>19</sup>.

Fikrimizcha, A.Sheremet tomonidan taklif etilgan kreditlarning daromadlilikini aniqlash formulasi daromadlilikni miqdoriy jihatdan aniq o'lchash imkonini beradi. Bu esa, ushbu formulada ssudali aktivlar bo'yicha zaxira ajratmalari summasi va jalb qilingan resurslar salmog'i asosiy omil tarkibiga kiritilgan.

Yu.Maslanchenkovning xulosasiga ko'ra, «inflyatsiya sur'atlari oshib borayotgan sharoitda bank foiz riski darajasi yuqori bo'lgan foizli daromadlarning salmog'ini pasaytirishga intilishi kerak. Aksincha, foizsiz daromadlarning ulushini bunday sharoitda oshirish, oshirganda ham sof daromadning 30 foizga yaqin qismini foizsiz daromadlar hisobidan shakllanadigan darajada oshirish lozim. Foizsiz daromadlarni tartibga solish amaliyotining asosiy masalalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi: bir rubl (*nominal pul birligiga*) aktivga to'g'ri keladigan foizsiz daromadni o'zgarish tendensiyalarini kuzatish; xizmatlarning «o'layotgan» bozorlarini aniqlash va daromadlarning yangi manbalarini topish, komission daromadlarning manbalarini bank xizmatlarini rivojlantirish orqali diversifikatsiya qilishni ta'minlash»<sup>20</sup>.

Haqiqatdan ham, foiz riskining darajasini yuqori bo'lishi foizli daromadlar miqdorini kamayib ketishi ehtimolini keskin oshiradi. Masalan, mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilingan xalqaro kredit liniyalarining katta qismi (80 %dan ortig'i) suzuvchi stavkada jalb qilingan. Bugungi kunda xalqaro iqtisodiyot koronavirus pandemiyasidan keyin uyg'onmoqda. Bu esa, xalqaro ssuda kapitallari bozorida yuqori cho'qqilarni zabt etgan etakchi davlatlar valyutalaridagi xalqaro kreditlarning foiz stavkalarini o'sishi kuzatilmoqda. Bu esa, respublika tijorat banklari faoliyatida foiz riski oqibatlarini vujudga keltirmoqda. Bunday sharoitda foizsiz daromadlarning jami daromad hajmidagi salmog'ini oshirish foiz riskining banklar daromad bazasi barqarorligiga salbiy ta'sirini yumshatishga imkon beradi.

---

<sup>19</sup> Шеремет, А. Д. Финансовый анализ в коммерческом банке. – М. : Финансы и статистика, 2000. – С.72.

<sup>20</sup> Масленченков Ю. С. Финансовый менеджмент банка. – М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2003. – С.220.

O.Lavrushinni qayd etishicha, «foizsiz xarajatlarni tahlil qilishda bank tomonidan to‘langan jarimalar va penyalarni to‘g‘ri hisoblanganligini baholash, shuningdek, bank faoliyatida qaysi qonunbuzarliklarni tez-tez takrorlanishini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Joriy foizsiz xarajatlarni tartibga solish maqsadida bir rublga (*nominal pul birligiga*) to‘g‘ri keladigan foizsiz xarajatlarning o‘zgarish tendensiyalarini kuzatish va foizsiz xarajatlar miqdorini foizsiz daromadlar miqdoridan yuqori bo‘lishi sabablarini aniqlash)»<sup>21</sup>.

O.Lavrushinning ushbu xulosasi, mamlakatimiz bank tizimining daromad bazasini optimal darajasiga erishish yo‘lida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, mamlakatimiz banklarida valyuta amaliyotlari bo‘yicha ochiq valyuta pozitsiyasi salmog‘ining yuqori ekanligi va valyuta amaliyotlari (*exchange difference*) oid zararlar darajasining katta ekanligi bilan izohlanadi.

Rossiyalik iqtisodchi olimlar hammuallifligida yozilgan «Bank ishi» darsligida, «tijorat banklari tomonidan jalb qilingan resurslar qiymatining moliyaviy tahlilining quyidagi muhim jihatlari o‘z aksini topgan:

- moliyaviy resurslar baholarining o‘zgarish sabablarini aniqlash;
- moliyaviy resurslar bo‘yicha o‘rtacha nominal stavkani o‘zgarishini o‘rganish;
- moliyaviy resurslarning real qiymatini hisoblash;
- jami xarajatlar (brutto) hajmida foizli xarajatlarning salmog‘ini o‘zgarish sabablarini aniqlash;
- bank moliyaviy resurslari baholarining oshish sabablarini aniqlash»<sup>22</sup>.

V.Usoskin fikr-mulohazasiga ko‘ra, «bankning kreditlardan oladigan daromadlari bevosita risklarni boshqarish bilan bog‘liq bo‘lib, ularning kredit portfeli risklarning barcha asosiy turlariga: likvidlilik riski, foiz riski, kredit riskiga moyildir»<sup>23</sup>.

---

<sup>21</sup> Лаврушин О.И. Управление деятельностью коммерческого банка (банковский менеджмент). – М.: Юрист, 2002. – С.282.

<sup>22</sup> Банковское дело / Под ред. О.И. Лаврушина. – М., 2008. – С. 47.

<sup>23</sup> Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операцион. – М.: ЛЕНАНД, 2019. – С. 218.

Yuqoridagi ilmiy xulosa respublikamiz tijorat banklari kreditlari daromadlilikining optimal darajalariga erishish yo'lida muhim amaliy ahamiyatga ega. Bu esa, banklarda NPL (*muammoli kreditlar*) miqdori katta ekanligi bilan izohlanadi. «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlariga ko'ra»<sup>24</sup>, «2024 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, muammoli kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'i Xalq bankida 7,6 foizni, Biznesni rivojlantirish bankida 8,9 foizni tashkil etdi»<sup>25</sup>. Buning ustiga, davlat dasturlarini moliyalashtirishda ishtirok etayotgan banklarda balanslashmagan likvidlilik muammosi mavjud.

N.Valenseva xulosa qiladiki, «kreditlar bo'yicha foiz stavkasini foizli marja hisobidan pasaytirish imkoniyati bank mahsulotlari tannarxini pasayishi bilan belgilanadi. Bunda, foizli spread miqdorining umumiy quyi chegarasi bo'lib, etarli darajadagi foizli marja hisoblanadi. Banklarda chiqimlarni pasaytirishning muhim sharti – bu bank amaliyotiga bank mahsulotlari tannarxining monitoringini joriy qilishdir»<sup>26</sup>.

Haqiqatdan ham, banklarda moliyaviy xizmatlarning tannarxini pasayishiga erishish sof foizli marjaning darajasini pasayish tendensiyasi kuzatilishiga ega bo'ladi.

Ye.Litvinov yozadiki, «tijorat banklari tomonidan chakana kreditlar bo'yicha foiz to'lovlarini undirishning annuitet usulini qo'llanilishi jismoniy shaxslarning kredit bo'yicha to'lov yukini oshishiga olib keladi. Shu sababli, kredit oluvchi jismoniy shaxslarga kredit bo'yicha to'lov usullarini (tabaqalashgan yoki annuitet) tanlash imkonini berilishi foiz stavkalarining rag'batlantiruvchanlik mazmunini kuchaytirish imkonini beradi»<sup>27</sup>.

---

<sup>24</sup> Ханалиев Б. Б. Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

<sup>25</sup> Tijorat banklarining muammoli kreditlari//www.cbu.uz

<sup>26</sup> Валенсева Н.И. Сенообразование на рынке банковских услуг//Банковское дело. – Москва, 2013. – №11. – С. 39.

<sup>27</sup> Литвинов Е.О. Кредитное бремя населения России: вопросы теории и методологии. Монография. – Волгоград, 2012. – С. 14.

Ye.Litvinovning annuitet xususidagi xulosasi mamlakat banklari kredit portfelining barqaror daromadlilikiga erishish jihatidan amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki, foiz to'lovlarini undirishning annuitet usuli chakana kreditlarni so'ndirishda to'lov yuki darajasini oshiradi. Shuning uchun jismoniy shaxslarga kreditlarning foiz to'lovlarini amalga oshirish usulini tanlash imkoniyati berilishi kerak.

A.Mian va A.Safi xulosa qiladiki, «uy xo'jaliklarining o'z risklarini nazorat qilish imkoniyatlarini yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan firmalarnikiga qaraganda cheklanganligi uy xo'jaliklariga berilgan kreditlarni o'z vaqtida qaytmaslik ehtimolini oshiradi»<sup>28</sup>.

B.Berdiyarov e'tirof etishicha, «O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarning mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, banklar aktivlari va kapitali rentabelligi ko'rsatkichlarining nisbatan past ekanligi, tijorat banklari tomonidan sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti bo'yicha me'yoriy talablarni bajarilmayotganligi ana shunday omillardan sanaladi»<sup>29</sup>.

B.Berdiyarov olg'a surgan muammolar, ya'ni mamlakat tijorat banklarining daromad bazasiga ta'sir etuvchi salbiy riski oqibatlaridan qochish bilan bog'liq bo'lgan muammolar etarli darajada ilmiy asoslarga, shu jumladan, amaliy tahlil natijalariga ega. Bundan tashqari, B.Berdiyarov ayrim banklar tomonidan Markaziy bank o'rnatgan prudensial talablarni bajarilmayotganligining sabablari ochib berilgan.

A.Abdullaev tomonidan amalga oshirilgan ekonometrik tahlil natijalari ko'rsatdiki, «respublikamiz tijorat banklarida aktivlardan olingan daromadlarni me'yorga nisbatan 0,91 va 0,93 foizli punktga, olingan foyda 0,81 va 0,96 foizli punktga past bo'lib, mazkur holatlar tijorat banklari resurslarini daromad keltiradigan aktivlarga qulay joylashtirilmaganligi bilan izohlanadi»<sup>30</sup>.

---

<sup>28</sup> Mian A., Rao K., Sufi A. Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump//Quarterly Journal of Economics. – 2013. – 128(4). – pp. 1687 - 1726.

<sup>29</sup> Berdiyarov B.T. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari. I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – B. 29.

<sup>30</sup> Abdullaev A.Ya. Tijorat banklarining likvidlilik darajasini oshirish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 21.



A.Abdullaevning mazkur xulosasi respublikamiz banklari daromadlarining barqarorligini ta'minlash nuqtai-nazaridan amaliy ahamiyatga ega. Bu esa, «mamlakatimiz bank tizimida aktivlarining umumiy hajmida daromad olish darajasi past bo'lgan kassali aktivlarning hajmi nisbatan sezilarli darajada yuqoridir. 2024 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, Mamlakatimiz bank tizimida, aktivlarining umumiy hajmida kassali aktivlarning ulushi 16,3 foizni tashkil etdi»<sup>31</sup>. Bu esa, sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichdir.

F.Xolmamatovning e'tirof etishicha, «tijorat banklarida kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining me'yoriy darajasini oshishiga yo'l qo'ymaslik va sof foizli marja ko'rsatkichining barqaror darajasini ta'minlash yo'li bilan kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning tijorat banklarining yalpi daromadi hajmidagi salmog'ini oshirish kerak»<sup>32</sup>.

F.Xolmamatovning mazkur taklifi amaliy ma'lumotlarning tahliliga asoslangan bo'lib, mamlakat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish jihatidan amaliy ahamiyatga ega. Buning sababi shundaki, birinchidan, mamlakat bank tizimida kredit riski va foiz riski oqibatlari ta'sirida ssudalar bo'yicha ehtimoliy qoplash zaxira ajratmalarining jami aktivlarga nisbatan darajasi umume'tirof etilgan darajadan (*max 1%*) baland; ikkinchidan, mamlakatimiz bank tizimidagi katta tijorat banklarida sof foizli marjaning me'yoriy darajasiga (4.5%) erishilmagan.

K.Kurilov va A.Kurilov xulosa qiladiki, «daromad keltiradigan aktivlardan olinadigan foizli daromadlar bilan majburiyatlar bo'yicha xarajatlar o'rtasidagi marjani nazorat qilish foiz riskini boshqarishning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi»<sup>33</sup>; M.Axmadeev va D.Shakirov ta'kidlashicha, «tijorat banklari har doim foiz riskiga duchor bo'ladilar, chunki, banklar tomonidan berilgan kreditlarni har doim muvozanatlashtirishning iloji yo'q»<sup>34</sup>.

---

<sup>31</sup> Tijorat banklarining jamlanma balansi//www.cbu.uz

<sup>32</sup> Xolmamatov F.K. Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish. I.f.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2019. - B. 25.

<sup>33</sup> Курилов К. Ю., Курилова А. А. Формирование эффективной структуры организации как средство преодоления негативного влияния цикличности экономических процессов//Аудит и финансовый анализ. 2013. № 4. С. 248–253.

<sup>34</sup> Ахмадеев М. Г., Шакиров Д. Т. Экономическая безопасность в банковском секторе//Актуальные проблемы экономики и права. 2011. № 2. С. 39–45.

O.Yo‘ldoshev fikriga ko‘ra, «respublika tijorat banklarining aktivlari tarkibida daromad keltirmaydigan va daromadlilik darajasi past bo‘lgan aktivlarni, ya’ni kassali aktivlarni, bino va inshootlarni sezilarli darajada yuqori salmoqqa ega ekanligi muammosi mavjud»<sup>35</sup>.

«O.Yo‘ldoshev xulosasiga ko‘ra, mamlakatimiz tijorat banklari aktivlari tarkibida daromad»<sup>36</sup> keltirmaydigan yoki daromadlilik darajasi past bo‘lgan (*kassali aktivlar, asosiy vositalar jumladan - bino inshootlar, avto mashinalar, undan tashqari bank faoliyatiga taluqli bo‘lmagan asosiy vositalar, qaram ho‘jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalar*) aktivlar hajmining yuqoriligi.

M.Ibodullaevaning taklifiga ko‘ra, «baholovchi valyuta bitim valyutasiga nisbatan ustama bilan kotirovka qilinayotgan sharoitda daromad olish usulini qo‘llagan holda valyuta operatsiyalaridan olinadigan daromad miqdorini oshirish kerak. Bir vaqtning o‘zida ustama bilan ham, diskont bilan ham kotirovka qilinayotgan valyutalardan forvard operatsiyalarining ob’ekti sifatida foydalanish yo‘li orqali forvard operatsiyalaridan olinadigan daromadlarning hajmini oshirish mumkin»<sup>37</sup>.

M.Ibodullaevaning tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shuni ko‘rsatadiki, birinchidan, mamlakatimiz bank tizimlarida valyuta amaliyotlarning ochiq pozitsiyasini miqdori yuqori bo‘lganligi sababli valyuta tavakkalchiligi oqibatlarining yuzaga kelish darajasi yuqori; ikkinchidan, valyuta tavakkalchiliklari oqibatlarini yuzaga kelishini boshqarishda moliyaviy vositalar etishmasligi; uchinchidan, baholovchi valyutaning bitim valyutasiga nisbatan ustama bilan kotirovka qilinayotganligi valyuta amaliyotlari hisobiga daromadlarni oshirishga imkon yaratadi.

---

<sup>35</sup>Yo‘ldoshev O.A. O‘zbekiston Markaziy bankining tijorat banklari faoliyatini tartibga solish amaliyotini takomillashtirish. I.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2011. – 18 b.

<sup>36</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

<sup>37</sup> Ibodullaeva M.T. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini rivojlantirish yo‘llari. I.f.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 52 b.

J.Isakov ta'kidlaydiki, «tijorat banklari tomonidan xizmatlar sohasiga ajratilayotgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasining o'rtacha bir foizga oshishi berilgan kreditlar daromadlilikini 0,8 foizga oshishiga, berilayotgan kreditlar hajmini bir foizga oshishi kreditlar daromadlilik darajasini 1,8 foizga kamayishiga olib keladi»<sup>38</sup>.

J.Isakovning mazkur xulosasi aniq olingan amaliy ma'lumotlarning ekonometrik tahlil natijalariga asoslangan. Bo'lib, shu jihatdan olganda ishonchli hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, quyidagi fikrlarni ta'kidlash muhimdir:

\* bankning daromad keltiruvchi manbalari (mahsulotlari) rentabelligiga bevosita ularning tannarxi ta'sir qiladi.

\* majburiyatlar doirasidagi aktiv operatsiyalari hajmini oshirish uchun tebranish sabablarini aniqlash va prognozlash, moliyaviy resurslarning bozor narxlarini monitoring qilish, banklarning daromad bazasini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

\* aktivlarning, xususan kreditlarning rentabelligi kredit va foiz tavakkalchiligini boshqarishda optimal muvozanatga erishish bilan chambarchas bog'liq.

\* mamlakatimiz bank tizimining kreditga qo'yiladigan aktivlari tarkibidagi muammoli kreditlarning (NPL) salmoqli ulushi tasniflangan kreditlar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun zaxiralarning shakllanishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, foizsiz xarajatlarni oshiradi va sof foydaning pasayishiga olib keladi. Shuningdek, kreditlash amaliyotlarini hozirgidanda zamon talablariga mos darajada kutilishi mumkin bo'lgan barcha risk oqibatlarini hisobga olgan holda raqamlashtirish va raqamlashtirishda dunyoda etakchilik qilayotgan transmilliy banklarning tajribalarini bizning tajribalar bilan uyg'unlashtirishni hisobga olish zarur. Bu esa, iqtisodchi olimlarning kredit portfellarida tasniflanish sifatiga ko'ra «standart», «substandart» kreditlarning salmog'ini oshirish hisobiga

---

<sup>38</sup> Isakov J.Ya. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda kredit samaradorligini oshirish. I.f.d. ilm. dar. ol.uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2016. – B. 28.

kreditlarning daromadlilikini ta'minlash xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarini o'rganish va umumlashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

### **1.2-§. Tijorat banklarining daromad bazasini baholash uslubiyotlari va ularning qiyosiy tavsifi**

Sohada salmoqli muvaffaqiyatlarga erishgan jahonning yetakchi davlatlarining bank amaliyotida, jumladan, bizning bank tizimimizda daromadlar bazasi barqarorligini baholashning uchta asosiy usuli keng tarqalgan:

- AQSh nazorat organlari tomonidan ishlab chiqilgan CAMELS reyting tizimi;
- Xalqaro valyuta jamg'armasi ekspertlari tomonidan yaratilgan baholash metodologiyasi;
- Jahon banki guruhiga kiruvchi Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining baholash metodologiyasi.

Bu usullar bankning daromadlari barqarorligi optimal darajaga yetganligini shaffof baholash imkonini beradi. Ular, shuningdek, bank daromadlari va xarajatlaridagi o'zgarishlar darajasini, bu o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi omillarni samarali baholaydilar.

E'tirof etish joizki, «AQShning «CAMELS» reyting tizimi bank nazoratining ikkinchi turida, ya'ni inspeksion tekshirishda qo'llaniladi:

«CAMELS» reyting tizimining komponentlari:

C – tijorat banki regulyativ kapitalining etarliligi;

A – bank aktivlarining sifati

M – tijorat bankida menejmentning sifati;

E – bankning pul tushumi shaklidagi daromadlarining barqarorligi;

L – bankning likvidlilik darajasi;

S – tijorat banki foydasi va aktivlarining bozor risklariga ta'sirchanligi.

«CAMELS» reyting tizimida har bir komponent maksimal 5 ballik reyting bahosi asosida baholanadi»<sup>39</sup>.

Biz quyidagi jadvallarning ma'lumotlari orqali «CAMELS» reyting tizimi asosida tijorat banklarining daromad bazasi barqarorligiga baho beramiz.

### 1.1-jadval

#### «AQSH «CAMELS» reyting tizimida tijorat banklarini daromadlarining barqarorligi bo'yicha reytingi»<sup>40</sup>

Reyting	Mezonlar
1 – kuchli	Bankning yalpi daromadi barcha xarajatlarni moliyalashtirishga va aktivlar bo'yicha zaxiralarni yaratish uchun etadi; foizli va foizsiz daromadlar miqdor va sifat mezonlariga javob beradi.
2 – qoniqarli	Bankning yalpi daromadi barcha xarajatlarni moliyalashtirishga va aktivlar bo'yicha zaxiralarni yaratish uchun etadi; Ularni miqdor va sifat mezonlariga nisbatan pasayishi kuzatilmogda.
3 – o'rtacha	Bankning daromadi xarajatlarni to'liq moliyalashtirishga etmaydi hamda miqdor va sifat mezonlariga nisbatan sezilarsiz darajada past.
4 – chegaraviy	Bankning daromadlari barcha xarajatlarni moliyalashtirishga va aktivlar bo'yicha zaxiralarni yaratishga etmaydi; sof foizli marja barqaror emas; nobarqaror daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'i yuqori.
5 – qoniqarsiz	Bankning daromadi zararlarni qoplash uchun etmaydi; kapital miqdorining kamayishi kuztiladi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkinki, «CAMELS» reyting baholash tizimida yaxshi (1 va 2) reyting baholariga ega bo'lgan banklarida daromadlar kutilgan va ehtimoliy kutilayotgan xarajatlarni qondira olish qobilligiga ega»<sup>41</sup>.

Lekin, reyting baholari yuqoridagiga nisbatan salbiy bo'lgan (3 va 4) banklarda daromadlar kutilgan va ehtimoliy kutilayotgan xarajatlarni qoplash

<sup>39</sup> Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

<sup>40</sup> Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

<sup>41</sup> Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

qobilligiga ega bo'lmaydi. Buning ustiga, ushbu banklarda regulyativ kapital miqdorining kamayib borishi kuzatiladi.

Tijorat banklari daromadlarining barqarorligini ta'minlashda ularning etarli darajada likvidli bo'lishi muhim o'rin tutadi.

## 1.2-jadval

### «AQSH «CAMELS» reyting tizimida banklarning likvidliligi bo'yicha reytingi<sup>42</sup>

Reyting	Mezonlar
1 – kuchli	Bankning joriy likvidlilik darajasi moliya bozorlaridan resurslar jalb qilish imkonini beradi.
2 – qoniqarli	Ushbu guruhga mansub bo'lgan banklarda likvidlilikning pasayishi kuzatiladi, ammo, ushbu ko'rsatkich o'rtacha tarmoq ko'rsatkichidan baland.
3 – o'rtacha	Yuqori likvidli aktivlar summasi majburiyatlarni qoplashga etmaydi; bankda balanslashmagan likvidlilik muammosi mavjud.
4 – chegaraviy	Bankning likvidliligi belgilangan me'yor talabidan past.
5 – qoniqarsiz	Bankning vakillik hisobraqamlarida pul mablag'larining etishmasligi tufayli majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish imkoniga ega emas.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkinki:

\*reyting bahosi 1 va 2 bo'lgan tijorat banklarida likvidlilik darajasi yuqori bo'lib, moliya bozorlaridan resurslar ola oladi;

\*reyting bahosi 3 ga teng bo'lgan banklarda yuqori likvidli aktivlar summasi majburiyatlarni qoplashga etmaydi va balanslashmagan likvidlilik muammosi mavjud;

Reyting bahosi qoniqarsiz bo'lgan banklarning vakillik hisobraqamlarida pul mablag'larining etishmasligi tufayli, ular, majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish imkoniga ega emas»<sup>43</sup>.

<sup>42</sup> Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

<sup>43</sup> Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

XVFnning ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan, «tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholash tizimida banklarning daromad bazasining barqarorligini baholash imkonini beradigan quyidagi ko‘rsatkichlar mavjud:

- \*kapitalning daromadlilikligi;
- \*sof daromadning regulyativ kapitalga nisbatan darajasi;
- \*ochiq valyuta pozitsiyasining kapitalga nisbatan darajasi;
- \*sof foizli daromadning aktivlarning o‘rtacha miqdoriga nisbatan darajasi;
- \*muammoli kreditlarning brutto kreditlarga nisbatan darajasi;
- \*sof foizli daromadlarning yalpi daromadga nisbatan darajasi;
- \*foizsiz xarajatlarning yalpi daromadga nisbati»<sup>44</sup>.

Jahon banki sinfiga kiruvchi Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining uslubiyotida, «tijorat banklarining daromad bazasi barqarorligini baholashda qo‘llaniladigan muhim ko‘rsatkichlar mavjud:

- \*sof foydaning brutto aktivlarga nisbatan darajasi;
- \*sof foydaning regulyativ kapitalga nisbatan darajasi;
- \*foizsiz xarajatlarning yalpi daromadga nisbatan darajasi;
- \*sof foydaning aktivlarning riskka tortilgan summasiga nisbatan darajasi;
- \*kreditlardan olingan foizli daromadlarning brutto kreditlarga nisbatan darajasi;
- \*berilgan kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining tijorat banklari aktivlarining o‘rtacha miqdoriga nisbatan darajasi;
- \*muammoli kreditlarning portfeldagi chegaraviy darajasi»<sup>45</sup>.


Shunisi ahamiyatliki, «Bazel qo‘mitasining yangi Bazel-III deb nomlanuvchi standartida tijorat banklariga nisbatan nazorat talablari kuchaytirildi va quyidagi yangi prudensial me‘yorlar kiritildi:

\*likvidlilikni qoplash me‘yori; barqaror moliyalashtirish me‘yori; kontrsiklik buferi bo‘yicha me‘yoriy talab; kapitalning himoyaviy konservatsiya buferi.

---

<sup>44</sup> Хасянова, С. Ю. О системе оценки финансовой устойчивости банковского сектора//Финансы и кредит. – 2012. – № 12. – С. 24–25.

<sup>45</sup> Institute for Economic Development. The World Bank, 1818 N Sseet, N.W., Washington, D.C., 2020.



**1.1-rasm. Qo‘mitaning yangi - Bazel III standartida ko‘zda tutilgan zaxira talablari»<sup>46</sup>**

1-1-rasmdagi faktologik ma'lumotlar ko'rsatadiki:


\* Bazel-III standartida ko'zda tutilgan qo'shimcha zaxira talablari tijorat banklarida foyda miqdorini kamayishiga olib keladi;

\*bank kapitalining monandligiga nisbatan talablarning oshirilishi ularning faoliyatini kengayishiga zamin yaratadi, moliyaviy manbalarning ko'payishi likvidlilik riski oqibatlari xavfini kamaytiradi, ichki va tashqi streslarga chidamliligi ortadi;

\*likvidlilikni qoplash me'yori ko'rsatkichini joriy qilinganligi tijorat banklarida likvidli aktivlar miqdorini ko'paytirish va balanslashmagan likvidlilik muammolarini kamayish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

<sup>46</sup> Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems-Basel-III, 2010. <http://www.bis.org.publications>.






**1.2-rasm. Bazel III standarti bo'yicha tijorat banklarida barqaror moliyalashtirishning mavjud summasining tarkibi<sup>47</sup>**

1-2-rasmdagi faktologik ma'lumotlar ko'rsatadiki, «Bazel qo'mitasining yangi standarti talabiga ko'ra, tijorat banklarining regulyativ kapitali to'liq summada barqaror moliyalashtirishning mavjud summasi tarkibida hisobga olinadi; muddati bir yildan kam bo'lgan va muddatsiz depozitlarning faqat 30 foizi barqaror moliyalashtirishning mavjud summasi tarkibida hisobga olinadi»<sup>48</sup>.

Pastdagi 1.3-rasmda barqaror moliyalashtirishning zarur summasi tarkibiga baho beramiz (1.3-rasm).

<sup>47</sup> Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems-Basel-III, 2010. <http://www.bis.org.publications>.

<sup>48</sup> Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems-Basel-III, 2010. <http://www.bis.org.publications>.



**1.3-rasm. Bazel III standarti bo'yicha tijorat banklarida barqaror moliyalashtirishning zarur summasining tarkibi<sup>49</sup>**

1.3-rasmda keltirilgan faktologik ma'lumotlaridan ko'rinadiki, «Bazel qo'mitasining yangi standarti talabiga ko'ra, tijorat banklarining bir yildan ortiq muddatga ega bo'lgan aktivlari to'liq summada barqaror moliyalashtirishning zarur summasi tarkibida hisobga olinadi; bir yildan kam muddatga ega bo'lgan aktivlarning faqat 30 foizi, balansdan tashqari moddalarning 15 foizi barqaror moliyalashtirishning zarur summasi tarkibida hisobga olinadi va qo'mitasining talabi bo'yicha tijorat banklarining balansdan tashqari moddalari deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

\*akkreditiv bank tomonidan ochilgan ta'minlanmagan hujjatlashtirilgan akkreditivlar;

\*forward bitimlari;

<sup>49</sup> Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems-Basel-III, 2010. <http://www.bis.org/publications>.

\*tijorat banklari tomonidan mijozlarning majburiyatlari yuzasidan berilgan bank kafolatlari;

\*moliyaviy opsionlar;

\*moliyaviy fyuchers shartnomalari»<sup>50</sup>.

Qayd etish joizki, Qo'mita ta'minlangan akkreditivlarni balansdan tashqari moddalar tarkibida hisobga olishga ruxsat bermaydi, chunki, ularda to'lov riski yo'q.

«1988 yilda ishlab chiqilgan Bazel-I standartida tijorat banklari ishtirokida tuzilgan forvard bitimlarining risk darajasi 100 % qilib belgilangan»<sup>51</sup>. Bu esa, benefitsiar yoki arizador tomonidan shartnoma majburiyatlarini bajara olmay qolish ehtimolini yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

XVF ekspertlari metodikasida, «Tijorat banklarining daromad bazasini baholashda qo'llaniladigan quyidagi ko'rsatkichlar mavjud:

\*bank sof daromadini regulyativ kapitalning o'rtacha miqdoriga nisbati;

\*tijorat banki sof daromadining aktivlarning o'rtacha miqdoriga nisbati;

\*bank foizli daromadlarining yalpi daromadga nisbati;

\*trejding savdolaridan olingan daromadlarni yalpi daromadga nisbati;

\*foizsiz xarajatlarning yalpi daromadga nisbati»<sup>52</sup>.

XVF ekspertlarining tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan banklarning daromad bazasini baholashga oid uslubiyotlarida, dastlab, bank mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlarni bank kapitaliga hamda aktivlariga nisbati darajasini, valyuta amaliyotlari ortidan hisoblab yozilgan daromadlarni yaqqol ko'rsatadi, xarajatlar umumiy tarkibida foizsiz xarajatlarning yalpi daromadga nisbatan darajasini baholashga zamin yaratadi.

---


<sup>50</sup> Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems-Basel-III, 2010. <http://www.bis.org.publications>.

<sup>51</sup> Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital standards. – Basel, 1998. <http://www.bis.org.publications>.

<sup>52</sup> Хасянова, С. Ю. О системе отсценки финансовой устойчивости банковского сектора//Финансы и кредит. – 2012. – № 12. – С. 24–25.

### 1.3-§. Tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash bo'yicha ilg'or xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati

Jahon bank sektorida yetakchilik qiluvchi va sanoat reytinglarida yuqori o'rinni egallagan banklar daromad barqarorligining maqbul darajasiga erishish va uni saqlab qolish bo'yicha katta ijobiy tajribaga ega bo'ldi. Bundan tashqari, ular tashqi va ichki omillardan ularning daromad bazasiga tahdidlarni prognoz qilish, kutilgan ehtimollik darajasiga asoslangan stress testlarini o'tkazish va ushbu amaliyotlar uchun stsenariylarni ishlab chiqish bo'yicha katta tajriba to'plashdi. Bu tajribalar O'zbekiston banklari uchun katta amaliy ahamiyatga ega.



1.4-rasm. AQShning «Bank of America» bankining sof foizli daromadi va sof foydasi<sup>53</sup>, mlrd. AQSh dollari

1.4-rasmdan ko'rsa bo'ladiki, «Bank of America» bankining sof foizli daromadlarining miqdori 2019-2021 yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Ushbu holat tahlil qilingan davr mobaynida bankning foizli daromadlari miqdorining kamayish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

1.4-rasm ma'lumotlari aniq ko'rsatadiki, «Bank of America» bankida sof foydaning summasi 2021-2023 yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. va

<sup>53</sup> Rasm muallif tomonidan «Bank of America» bankining 2019-2023 moliyaviy yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan hisobotlari (Consolidated Statement of income) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

mazkur holat ushbu tahlil davrda sof foizli daromad summasini kamayish sur'atiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

**1.3-jadval**

**AQShning «Bank of America» bankida kreditlarning miqdori va daromadlilik darajasi<sup>54</sup>**

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Kreditlar, mln. AQSh dollari	974 010	909 059	966 737	1 033 085	1 040 390
Berilgan kreditlarning daromadlilik darajasi, %	4,4	3,7	3,0	3,7	5,5

1.3-jadvaldan ko'rsa bo'ladiki, «Bank of America» bankida brutto kreditlarning miqdori tahlil davrida (2020-2023 y.y) o'sish sur'atiga erishgan holda, mazkur ssudalarning o'sish jarayoni 2023 yilda 2019 yilga nisbatan sezilarli miqdorda (*66 380 mln.AQSh dollari*) oshgan. Bu esa, ssuda aktivlarining miqdorini o'sishi daromadli aktivlarni ta'minlash jihatidan yaxshi holat hisoblanadi. Sababi, Ssudalar bank aktivlarida yuqori ulushga egaligidir.

1.3-jadvaldan yaqqol ko'rsa bo'ladiki, «Bank of America» ssuda aktivlarning joylashtirilishi hisobiga olingan daromadlarning darajasi tahlil davrida (2021-2023 y.y) yuqori sur'atda o'sgan. Mazkur o'sish, de-fakto, joylashtirilgan ssudalarning o'sish sur'atidan joylashtirilgan ssudalar hisobidan olingan daromadlarning o'sish sur'ati yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi.

**1.4-jadval**

**AQShning «Bank of America» bankida foizsiz daromadlar va foizsiz xarajatlarning miqdori<sup>55</sup>**


Ko'rsatkichlar	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.
Foizsiz daromadlar, mln. Doll.	42 353	42 168	46 179	42 488	41 650
Foizsiz xarajatlar, mln. Doll.	54 900	55 213	59 731	61 438	65 845

<sup>54</sup> Jadval muallif tomonidan «Bank of America» bankining 2019-2023 moliyaviy yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan hisobotlari (Consolidated Statement of income) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>55</sup> Jadval muallif tomonidan «Bank of America» bankining 2019-2023 moliyaviy yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan hisobotlari (Consolidated Statement of income) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1.4-jadvaldan ko'rsa bo'ladiki, «Bank of America»da tahlil davrida (2021-2023 y.y) bankining foizsiz daromadlari miqdori kamaygan, foizsiz xarajatlarning miqdori esa ko'paygan.

Jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, tahlil davrida «Bank of America» bankida foizsiz daromadlarining yuksalish sur'atiga mutanosib ravishda foizsiz xarajatlarning yuksalish sur'ati o'rtasidagi monandlik ta'minlanmagan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki foizsiz daromadlarining yuksalish sur'atiga mutanosib ravishda foizsiz xarajatlarning yuksalish sur'ati o'rtasidagi monandlik ta'minlanmasligi bankni moliyaviy xavfsizligiga erishish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblandi.



**1.5-rasm. AQShning «Bank of America» bankida brutto aktivlar va kapitalning rentabelligi<sup>56</sup>, foizda**

1.5-rasmdan yaqqol ko'rinadiki, «Bank of America» bankida, brutto aktivlarning rentabelligi tahlil davrida (2019-2023 y.y) nobarqaror bo'lgan va 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 0,3 foizli punktga pasaygan.

1.5-rasmdan aniq ko'rsa bo'ladiki, «Bank of America» bankida kapitalning rentabellik darajasi tahlil davrida (2019-2023 y.y) nobarqaror bo'lgan. 2021-2023

<sup>56</sup> Rasm muallif tomonidan «Bank of America» bankining 2019-2023 moliyaviy yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan hisobotlari (Consolidated Balance Sheet. Consolidated Statement of income) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

yillarda pasayish tendensiyasi kuzatilib, 2023 yilda 2019 yilga nisbatan pasaygan (1,1 f.p).

Xorij tajribalari ko'rsatadiki, banklarning daromad bazasining barqarorligiga erishishda bank kapitali rentabelligini ( $ROE = \min 15\%$ ) ta'minlash muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bular esa, quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

\*regulyativ kapital bankning o'zi tasarruf etgan moliyaviy manbasi hisoblanadi;

\*moliya va depozit bozorlaridan passivlar hajmini oshirishda jalb qilingan resurs va depozitlar nisbatan qimmat resurs hisoblanadi.


Shuni e'tirof etish joizki, bank mahsulotlarini ishlab chiqish va raqamlashtirish ommabopligini oshirish menejmenti hisobiga ya'ni aktivlarni qulay joylashtirishda majburiyatlar muddatlarini optimal darajasiga erishishni o'zida mujassam etgan ko'rsatkichlardan biri bu, sof foizli marja ko'rsatkichi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichni me'yoriy darajasiga erishishda banklar o'zining bosh maqsadlaridan biri sifatida yondashib, biznes-reja ko'rsatkichlarida qayd etgan holda barcha risklarni hisobga olib chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va quyidagilarni o'zida mujassam ettirish:

\*yangi bank mahsulotlarini ishlab chiqish;

\*bank mahsulotlarining tan-narxini pasaytirish yo'llarida muntazam izlanishlar olib borish;

\*aktivlarni joylashtirishni va qaytimini hozirgidanda bir qadam olinni ko'zlab raqamlashtirish;

\*mobil ilovalar orqali bank xizmatlarini ko'rsatish sifatini yaxshilashni IT riski oqibatlarini hisobga olgan holda muntazam ravishda takomillashtirib borish lozim.



**1.6-rasm. «Bank of America» bankida (AQSh) sof foizli marjani darajasi<sup>57</sup>, foizda**

1.6-rasmdan yaqqol ko‘rinadiki, «Bank of America» bankida sof foizli marjani haqiqatdagi darajasi 2023 yilda 2021 yilga nisbatan 0,46 foizli punktga oshgan. Ushbu holat tahlil qilingan davrda foizli daromadlar bilan foizli xarajatlar o‘rtasidagi farq summasining o‘shish sur‘atini aktivlarning boshlang‘ich qiymatdagi jami summasining o‘shish sur‘atidan baland bo‘lganligi bilan izohlanadi.

Endi biz Germaniyaning eng yirik transmilliy banki bo‘lgan «Deutsche Bank» ning daromadlari barqarorligiga baho beramiz.

**1.5-jadval  
«Deutsche Bank» sof foyda (sof zarar) va taqsimlanmagan foydasi miqdorining o‘zgarishi<sup>58</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.
Sof foyda (sof zarar), mln. evro	- 5 265	624	2 510	5 659	4 892
Taqsimlanmagan foyda, mln. evro	9 644	10 014	12 607	17 800	21 136

1.5-jadvaldagi faktologik ma‘lumotlar shuni izohlaydiki, «Deutsche Bank» sof foydasining miqdori tahlil davrida (2020-2022 y.y) yuksalganligini (*increasing*)

<sup>57</sup> Rasm muallif tomonidan «Bank of America» bankining 2019-2023 moliyaviy yillarning yakuni bo‘yicha e‘lon qilingan hisobotlari (Concolidated Balance Sheet. Concolidated Statement of income) ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>58</sup> Jadval «Deutsche Bank»ning yillik moliyaviy hmsobotlari ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



ko‘rishimiz mumkin, 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 767 mln.evroga ya’ni 13.5 foizga kamaygan.

1.5-jadvaldagi faktologik ma’lumotlar ko‘rsatadiki, «Deutsche Bank»da taqsimlanmagan foydaning miqdori 2019-2023 yillarda o‘shir sur’atlarini namoyon etgan.

Taqsimlanmagan foyda, bankning o‘zi tasarruf etgan moliyaviy manbasi hisoblanib, bank faoliyatni taraqqiy ettirishda moliyaviy manbalarning birlamchi omili hisoblandi. Xususan, taqsimlanmagan foyda bank aksiyadorlari qaroriga ko‘ra bank faoliyatiga manfaatli bo‘lgan holda taqsimlanadi yoki kapitalga olib borilishi ham mumkin.

Tijorat banklarida taqsimlanmagan foydaning real qoldig‘ini ko‘rsatuvchi omillar bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

\*joriy yilda erishilgan sof foyda summasi;

\*aksiyadorlar qaroriga asosan joriy yil sof foydasini necha foizi dividend sifatida to‘lanishi.

Bank muassislari umumiy yig‘ilishining qaroriga bilan sof foydani hammasini 100%) oddiy aksiyalarga dividend sifatida to‘lanishi taqsimlanmagan foydani yuzaga kelmasligiga olib keladi. Shu sababli, taqsimlanmagan foyda miqdorini oldindan prognoz qilib bo‘lmaydi.

**1.6-jadval**

**«Deutsche Bank» foizli daromadlari va foizli xarajatlari miqdorining o‘zgarishi<sup>59</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.
Foizli daromadlar, mln. evro	25 149	17 806	16 599	24 299	44 074
Foizli xarajatlar, mln. evro	11 400	6 280	5 444	10 649	30 472

«Yuqorida keltirilgan jadval ma’lumotlari ko‘rsatadiki, «Deutsche Bank» foizli daromadlarining (*interest income*) miqdori 2019-2021 yillarda kamayish

<sup>59</sup> Jadval «Deutsche Bank»ning yillik moliyaviy hmsobotlari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

sur'atlarini namoyon etgani holda, 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 18 925 mln.evroga oshgan.

Shuningdek, «Deutsche Bank» foizli xarajatlarning (*interest expense*) miqdori 2019-2023 yillarda nobarqaror bo'lgan»<sup>60</sup>. 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 19 072,0 mln.evroga oshgan. Mazkur ko'payish moliya bozorida kredit resurslarini qimmatlashganligi natijasidir.

GFR Federal banking tasdiqlangan moliyaviy hisobotda qayd etilishicha, «tijorat banklarining foizli daromadlari quyidagi daromadlardan tashkil topadi:

\*berilgan ssudalardan (loans) olingan foizlar;

\*sotib olingan va o'zgarmaydigan (const.) stavkaga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olingan foizlar;

\*banklararo depozitlardan olingan foizlar;

\*REPO bitimlardan olingan daromadlar»<sup>61</sup>.

«Daromad bazasining barqarorligi bo'yicha etakchi xorijiy banklarning tajribasi ko'rsatadiki, tijorat banklarining yalpi daromadi tarkibida foizli daromadlar (*interest income*) ulushi yuqori salmoqqa egaligi va ular bankning nufuzli va ommabop faoliyat turlarini ko'rsatish orqali shakllanadi»<sup>62</sup>. Mazkur nufuzli va ommabop faoliyat turlari hisobiga shakllangan daromad manbalari boshqa foizsiz daromad turlariga qaraganda ahamiyatliroqdir. Sababi, bank daromadlari tasnifiga ko'ra yuqori salmoqqa egaligi va risk darajalari oqibatlarining xavfi yuqoriligi bilan izohlanadi.

Endi «Deutsche Bank» kreditlari va qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning daromadlilik darajalariga baho beramiz.

---

<sup>60</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

<sup>61</sup> Jadval «Deutsche Bank»ning yillik moliyaviy hmsobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>62</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

**1.7-jadval****«Deutsche Bank»da kreditlar va qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning daromadlilik darajasi, foizda<sup>63</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.
Kreditlarning daromadlilik darajasi	3,20	2,68	2,22	2,91	5,49
Qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning daromadlilik darajasi	0,96	0,16	0,15	0,25	2,32

Keltirilgan 1.7-jadval ma’lumotlari yaqqol ko‘rinadiki, «Deutsche Bank» ssudalarining daromadlilik darajasi tahlil davrida (2019-2023 y.y) nobarqaror bo‘lgan. 2023 yilda 2019 yilga nisbatan yuqori sur’atda (2,29 f.p.) o‘sganligi uning daromadlari barqarorligini ta’minlash jihatidan ijobiy holat hisoblanadi; «Deutsche Bank»da fondli aktivlarning daromadlilik darajasi 2021 – 2023 yillarda o‘shish sur’atlarini namoyon etgan.

Endi biz Fransiyaning eng yirik transmilliy banki bo‘lgan «BNP Paribas» ning daromadlari barqarorligiga baho beramiz.

**1.8-jadval****«BNP Paribas» bankida sof foyda (sof zarar) va taqsimlanmagan foydasi miqdorining o‘zgarishi<sup>64</sup>**


Ko‘rsatkichlar	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.
Sof foyda (sof zarar), mln. evro	8583	7415	9880	10248	11406
Taqsimlanmagan foyda, mln. evro	97135	106228	108176	115149	115809

1.8-jadvaldan aniq ko‘rsa bo‘ladiki, Paribas bankda sof foydaning summasi 2020-2023 yillarda oshish sur’atlarini namoyon etgan.

Shuningdek, Paribas bankda taqsimlanmagan foydaning summasi 2019-2023 yillarda oshish sur’atlarini namoyon etgan.

<sup>63</sup> Jadval «Deutsche Bank»ning yillik moliyaviy hmsobotlari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>64</sup> Jadval «BNP Paribas» bankining yillik moliyaviy hisobotlari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



**1.7-rasm. «BNP Paribas» bankining sof foizli daromadi va sof foydasi<sup>65</sup>, mlrd. evroda**

Keltirilgan 1.7-rasm quyidagilarni izohlaydi, Paribas bankda sof foizli daromad (*interest income*) summasi 2019-2021 yillarda kamayish sur'atlarini namoyon etgani holda, 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 38,42 mlrd. evroda oshgan.

Shuningdek, Paribas bankda sof foyda summasi 2020-2023 yillarda oshish sur'atlarini namoyon etgan holda 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 1,2 mlrd. evroga oshgan.

«BNP Paribas» bankda sof foizli daromad (*interest income*) miqdorining oshish tendensiyasining yuzaga kelishi mazkur davrlarda sof foizli daromad summasining o'sish sur'ati brutto aktivlar miqdorining o'sish sur'atidan yuqori ekanligi oqibatidir. Mazkur holatni bankning daromad bazasini optimal darajasiga erishishni ta'minlash nuqtai-nazaridan ijobiy holat sifatida baholash mumkin.

Ushbu jadval ma'lumotlarining tahlili asosida «BNP Paribas» bank kreditlarning daromadlilik darajasiga baho beramiz.


<sup>65</sup> Rasm muallif tomonidan «BNP Paribas» bankining 2019-2023 moliyaviy yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan hisobotlari (Consolidated Statement of income) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

**«BNP Paribas» bankida kreditlarning miqdori va daromadlilik darajasi<sup>66</sup>**

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Kreditlar, mln. evroda	827469	828515	835751	889636	883535
Kreditlardan olingan foizli daromad, mln. evroda	27790	22268	21423	30749	59019
Kreditlarning daromadlilik darajasi, %	3,4	2,7	2,6	3,5	6,7

Mazkur 1.9-jadvaldan ko'rsa bo'ladiki, Paribas bank kreditlarining summasi tahlil davrida (2019-2021 y.y) o'sish sur'atiga ega bo'lgan holda kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdori va ularning daromadlilik darajalari pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Mazkur davrda kreditlarning (*loans*) o'sish sur'ati bilan kreditlardan olingan daromadlarning o'sish sur'atlari o'rtasidagi monandlik ta'minlanmaganligidan dalolat beradi. Biroq 2023 yilda 2019 yilga nisbatan kreditlarning daromadlilik darajasi yuqori (3,3 f.p) sur'tda o'sgan.

Quyidagi rasm ma'lumotlari orqali «BNP Paribas» bankning aktivlari va kapitalining rentabelligiga baho beramiz.




**1.8-rasm. «BNP Paribas» bankida brutto aktivlar va kapitalning rentabelligi<sup>67</sup>, foizda**

<sup>66</sup> Jadval muallif tomonidan «BNP Paribas» bankining 2019-2023 moliyaviy yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan hisobotlari (Concolidated Statement of income) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>67</sup> Rasm muallif tomonidan «BNP Paribas» bankining 2019-2023 moliyaviy yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan hisobotlari (Concolidated Balance Sheet. Concolidated Statement of income) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Keltirilgan 1.8-rasm ma'lumotlari yaqqol ko'rsatadiki, Paribasbank aktivlarining rentabellik darajasi 2019-2023 yillarda barqaror bo'lgan. Mazkur holat bank daromad bazasining barqarorligiga xizmat qiladi.

Shuningdek, Paribasbank kapitalining rentabellik darajasi 2020-2023 yillarda oshish sur'atlarini namoyon etgan.



**1.9-rasm. «BNP Paribas» bankida (Evro) sof foizli marjani darajasi<sup>68</sup>, foizda**

Ushbu «1.9-rasm ko'rsatadiki, Paribasbankda sof foizli marjani darajasi 2019-2023 yillarda nobarqaror bo'lgan, buning ustiga 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 0,3 foizli punktga pasaygan»<sup>69</sup>.

#### 1.10-jadval

##### «BNP Paribas» bankida foizli daromadlari va foizli xarajatlari miqdorining o'zgarishi<sup>70</sup>

Ko'rsatkichlar	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.
Foizli daromadlar, mln. evro	37327	33589	29518	41082	79542
Foizli xarajatlar, mln. evro	16200	12277	10280	20149	60484

<sup>68</sup> Rasm muallif tomonidan «BNP Paribas» bankining 2019-2023 moliyaviy yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan hisobotlari (Consolidated Balance Sheet. Consolidated Statement of income) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>69</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

<sup>70</sup> Jadval «BNP Paribas» bankining yillik moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mazkur 1.10-jadval yaqqol ko'rsatadiki, Paribasbankda foizli daromadlar miqdori 2019-2021 yillarda pasayish sur'atlarini namoyon etgani holda, 2021-2023 yillarda o'sish sur'atlarini namoyon etgan.

Shuningdek, Paribasbankda foizli xarajatlar summasi 2019-2021 yillarda pasayish sur'atlarini namoyon etgani holda, 2021-2023 yillarda o'sish sur'atlarini namoyon etgan.

### 1.11-jadval

#### «BNP Paribas» bankida kreditlar va qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning daromadlilik darajasi, foizda<sup>71</sup>

Ko'rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Kreditlarning daromadlilik darajasi	3,4	2,7	2,6	3,5	6,7
Sotib olingan qimmatli qog'ozlarning daromadlilik darajasi	0,4	0,4	0,2	0,2	0,5

Mazkur 1.11-jadval ko'rsatadiki, Paribasbankda kreditlarning daromadlilik darajasi 2019-2021 yillarda kamayish sur'atlarini namoyon etgani holda, 2021-2023 yillarda o'sish sur'atlarini namoyon etgan.

Shuningdek, Paribasbankda fondli aktivlarning daromadlilik darajasining barqarorligi 2021, 2022 va 2023 yillarda kuzatilgan.

### Birinchi bob bo'yicha xulosa

Tijorat banklarning daromad bazasini mustahkamlashga va ularning barqarorligini ta'minlashga doir ilmiy-nazariy qarashlarni tadqiq qilish xususidagi natijalari ko'rsatdiki:

\* kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning jami daromadlar hajmidagi salmog'ining me'yoriy darajasini (*min 60%*) ta'minlash yo'li bilan kreditlarning barqaror daromadlilik darajasiga erishish kerak;

\* belgilangan stavkaga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha sof foizli marjaning me'yoriy darajasini ta'minlash ( $M_s.f=4,5\%$ );

<sup>71</sup> Jadval «BNP Paribas» bankining yillik moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

\* mamlakatimiz tijorat banklari aktivlari tarkibida daromad keltirmaydigan yoki daromadlilik darajasi past bo'lgan (*kassali aktivlar, asosiy vositalar jumladan - bino inshootlar, avto mashinalar, undan tashqari bank faoliyatiga taalluqli bo'lmagan asosiy vositalar, qaram xo'jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalar*) aktivlar hajmining yuqoriligini oldini olish kerak;

\* bank mahsulotlarini ishlab chiqish va raqamlashtirish ommabopligini oshirish menejmenti hisobiga ya'ni aktivlarni qulay joylashtirishda majburiyatlar muddatlarini optimal darajasiga erishishni o'zida mujassam etgan ko'rsatkichlardan biri bu, sof foizli marja ko'rsatkichi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichni me'yoriy darajasiga erishishda banklar o'zining bosh maqsadlaridan biri sifatida yondashib, biznes-reja ko'rsatkichlarida qayd etgan holda barcha risklarni hisobga olib chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va quyidagilarni o'zida mujassam ettirish:

\*yangi bank mahsulotlarini ishlab chiqish;

\*bank mahsulotlarining tan-narxini pasaytirish yo'llarida muntazam izlanishlar olib borish;

\*aktivlarni joylashtirishni va qaytimini hozirgidanda bir qadam oldinni ko'zlab raqamlashtirish;

\*mobil ilovalar orqali bank xizmatlarini ko'rsatish sifatini yaxshilashni IT riski oqibatlarini hisobga olgan holda muntazam ravishda takomillashtirib borish lozim;

\*banklarning daromad bazasini barqarorligini optimal darajasiga erishishda quyidagi zaruriy shartlarni ta'minlashi zarur, bankning mijozlar oldidagi reputatsiyasini oshirish, bank imidjiga ta'sir qilayotgan va ta'sir qilinishi kutilayotgan omillarni oldindan prognoz qilish va zaruriy choralar ko'rish, bank aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda uzilishlar kuzatilmasligini oldini olish va bozor narxlari ustidan monitoring olib borish, aktivlarni joylashtirishda jalb qilingan resurslarning foiz stavkalari hamda ularning qaytarish muddatlarini hisobga olgan holda qulay joylashtirish, bankning balanslashmagan likvidlilik riski oqibatlarini stress testlash hisobiga prognoz qilgan holda hamkor banklar oldida o'z pozitsiyasini yomonlashishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi;



\*banklar kreditlarining (*loans*) daromadlilik bevosita ta'sir qiluvchi risklarni (*likvidlilik riski, foiz riski, kredit riski va IT riski*) oqilona boshqarish sifatiga bog'liq;

\*daromadlar, o'z kapitali hisobidan olinadigan foydadan iborat bo'ladi degan xulosalar har doim ham to'g'ri emas. Chunki, uzoq muddatli samarani mo'ljallagan bank mulkdorlari innovatsiyalarni bank faoliyatiga joriy qilish orqali joriy foydaning ma'lum bir qismi kamayishi mumkin;

\* banklar majburiyatlarining joylashtirgan aktivlariga nisbatan bozor bahosining oshishi foizli xarajatlar hajmining oshishiga sabab bo'ladi va sof foyda miqdorini kamaytiradi, bu esa, pirovard natijada, kapital rentabelligining me'yoriy darajasiga ( $ROE = \min 15\%$ ) erishishga to'sqinlik qiladi;

\* «bank mahsulotlarini (*produktlari*) marketingini samarali boshqarish hisobiga olingan daromadlarning miqdori hamda sifati banklarining sof foydasini barqarorligini belgilashda tayanch omil hisoblanadi; ikkinchidan, banklarining daromadlari sifatini (*quality*) o'zida namoyon etuvchi asosiy ko'rsatkich bo'lib»<sup>72</sup>, hisoblab yozilgan daromadlarni qilingan xarajatlarga nisbatini ko'zda tutadi; uchinchidan, daromad olish imkoniyati mavjud bo'lgan aktivlarning o'sish sur'ati bilan daromad olish imkoniyati mavjud bo'lgan aktivlardan olingan daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi monandlikning ta'minlanmaganligi sof foydaning barqarorligini ta'minlashga to'sqinlik qiladi;

\*tijorat banklari kapitalining rentabellik darajasini kapitalning etarliligini kamaytirish evaziga oshirishning iloji yo'q. Bu esa, banklararo raqobatning kuchli ekanligi bilan izohlanadi. Shu boisdan, kapitalga to'g'ri keladigan foyda me'yorini oshirishning ishonchli imkoniyati bo'lib, aktivlarning qaytimi darajasiga erishish.

Banklarining daromad bazasini baholashda jahonda rivojlangan banklarning amaliyotda keng qo'llanilayotgan uslubiyotlarni tadqiq qilishda quyidagi xulosalarni shakllantirish imkoniyatini yaratdi:

---

<sup>72</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

\*bank sohasida yuksak natijalarga erishgan, dunyoda etakchilik qilayotgan mamlakatlarning bank amaliyotida, shu jumladan, mamlakatimizning bank tizimi sohasida ham, ularning daromad bazasi sifatining barqarorligini baholashda, asosan, uchta metodikadan foydalanilmoqda: AQSh nazorat organlari tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan «CAMELS» reyting tizimi; Xalqaro valyuta fondi ekspertlari tomonidan tadqiq etilgan tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan metodika; Jahon banki guruhiga kiruvchi Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan baholash metodikasi;

\* «CAMELS» reyting tizimida, «ijobiy (1 va 2) reyting baholariga ega bo'lgan banklarida daromadlar kutilgan va ehtimoliy kutilayotgan xarajatlarni qoplash uchun etadi; Lekin, reyting baholari yuqoridagiga nisbatan past bo'lgan (3 va 4) banklarda daromadlar kutilgan va ehtimoliy kutilayotgan xarajatlarni qoplash imkoniyatiga ega bo'lmaydi; Buning ustiga, ushbu banklarda regulyativ kapital miqdorining kamayib borishi kuzatiladi»<sup>73</sup>;

\* «CAMELS» reyting tizimida, «reyting bahosi 1 va 2 bo'lgan tijorat banklarida likvidlilik darajasi yuqori bo'lib, moliya bozorlaridan resurslar ola oladi; reyting bahosi 3 ga teng bo'lgan banklarda yuqori likvidli aktivlar summasi majburiyatlarni qoplashga etmaydi va balanslashmagan likvidlilik muammosi mavjud»<sup>74</sup>;

\*XVFning banklar daromadini baholash metodikasida, «tijorat banklarining daromad bazasi barqarorligini baholashda qo'llaniladigan muhim ko'rsatkichlar mavjud: kapitalning daromadlilik; sof daromadning kapitalga nisbatan darajasi; ochiq valyuta pozitsiyasining kapitalga nisbatan darajasi; sof foizli daromadning aktivlarning o'rtacha miqdoriga nisbatan darajasi; muammoli kreditlarning brutto kreditlarga nisbatan darajasi; sof foizli daromatlarning yalpi daromadga nisbatan darajasi; foizsiz xarajatlarning yalpi daromadga nisbati»<sup>75</sup>;

---

<sup>73</sup> Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

<sup>74</sup> Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

<sup>75</sup> Хасянова, С. Ю. О системе отсечки финансовой устойчивости банковского сектора//Финансы и кредит. – 2012. – № 12. – С. 24–25.

\*Jahon banki sinfiga kiruvchi Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining uslubiyotida, «tijorat banklarining daromad bazasi barqarorligini baholashda qo‘llaniladigan muhim ko‘rsatkichlar mavjud:

\*sof foydaning brutto aktivlarga nisbatan darajasi;

\*sof foydaning regulyativ kapitalga nisbatan darajasi;

\*foizsiz xarajatlarning yalpi daromadga nisbatan darajasi;

\*sof foydaning aktivlarning riskka tortilgan summasiga nisbatan darajasi;

\*kreditlardan olingan foizli daromadlarning brutto kreditlarga nisbatan darajasi;

\*berilgan kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining tijorat banklari aktivlarining o‘rtacha miqdoriga nisbatan darajasi;

\*muammoli kreditlarning portfeldagi chegaraviy darajasi»<sup>76</sup>.

\* «Bazel qo‘mitasining yangi Bazel-III deb nomlanuvchi standartida tijorat banklariga nisbatan nazorat bo‘yicha yangi prudensial me‘yorlarni likvidlilikni qoplash me‘yori, barqaror moliyalashtirish me‘yori, kontrsiklik buferi bo‘yicha me‘yoriy talab, kapitalning himoyaviy konservatsiya buferi»<sup>77</sup>ni kiritilganligi tijorat banklarida foyda miqdorini kamayishiga olib keldi, biroq, tijorat banklari kapitalining etarililigiga nisbatan talablarning oshirilganligi ularning to‘lovga qobillik darajasini oshishiga olib keldi.

Jahonda bank sohasida etakchilik qilayotgan, «bank faoliyati reytingida yuksak o‘rinlarni egallab turgan banklarining daromad bazasini mustahkamlash bo‘yicha tajribasining tahlili ko‘rsatdiki:

\* «Bank of America» bankining sof foizli daromadlarining (*interest income*) miqdori 2019-2021 yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo‘lgan»<sup>78</sup>;

---

<sup>76</sup> Institute for Economic Development. The World Bank, 1818 N Sreet, N.W., Washington, D.C., 2020.

<sup>77</sup> Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems-Basel-III, 2010. <http://www.bis.org/publications>.

<sup>78</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

\* «Bank of America» bankida brutto kreditlarning (*brutto loans*) miqdori tahlil davrida (2020-2023 y.y) o‘shish sur‘atiga erishgan holda, mazkur ssudalarning o‘shish jarayoni 2023 yilda 2019 yilga nisbatan sezilarli miqdorda oshgan. Bu esa, ssuda aktivlarining miqdorini o‘shishi daromadli aktivlarni ta‘minlash jihatidan yaxshi holat hisoblanadi. Sababi, ssudali aktivlar bank aktivlarida yuqori ulushga egaligidir;

\* «Deutsche Bank» sof foydasining miqdori tahlil davrida (2020-2022 y.y) yuksalganligini (*increasing*) ko‘rishimiz mumkin, 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 767 mln.evroga ya‘ni 13.5 foizga kamaygan;

\* «Deutsche Bank ssudalarining daromadlilik darajasi tahlil davrida (2019-2023 y.y) nobarqaror bo‘lgan. 2023 yilda 2019 yilga nisbatan yuqori sur‘atda (2,29 f.p.) o‘sgan;

\* Paribas bank aktivlarining rentabellik darajasi (*ROA*) 2019-2023 yillarda barqaror bo‘lgan holda kapitalining rentabellik darajasi (*ROE*) 2020-2023 yillarda oshish sur‘atlarini namoyon etgan;

\* Paribasbankda sof foizli marjaning darajasi 2019-2023 yillarda nobarqaror bo‘lgan, buning ustiga 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 0,3 foizli punktga pasaygan;

\* Paribas bankda foizli daromadlar (*interest income*) miqdori 2019-2021 yillarda pasayish sur‘atlarini namoyon etgani holda, 2021-2023 yillarda o‘shish sur‘atlarini namoyon etgan;

\* Paribas bankda kreditlarning (*loans*) daromadlilik darajasi 2019-2021 yillarda kamayish sur‘atlarini namoyon etgani holda, 2021-2023 yillarda o‘shish sur‘atlarini namoyon etgan»<sup>79</sup>;

\* Paribas bankda fondli aktivlarning daromadlilik darajasining barqarorligi 2021, 2022 va 2023 yillarda kuzatilgan;

---

<sup>79</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

## **II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI DAROMAD BAZASINING ZAMONAVIY HOLATI**

### **2.1-§. Tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlashning me‘yoriy- huquqiy asoslari**

«O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risidagi qonuniga muvofiq, birinchidan, mamlakat bank tizimining barqarorligini ta‘minlash Markaziy bank faoliyatining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi; ikkinchidan, Markaziy bank tijorat banklariga nisbatan majburiy zaxira talabini qo‘llaydi va ushbu majburiy zaxiralar banklarning Markaziy bankdagi maxsus hisobvaraqlardagi mablag‘larini deponentga o‘tkazish yo‘li bilan va (yoki) Markaziy bankda ochilgan vakillik hisobvarag‘ida majburiy zaxiralarni o‘rtachalash koeffitsienti miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblangan majburiy zaxiralarning o‘rtachalashtirilgan miqdorini saqlab turish yo‘li bilan ushlab turiladi; uchinchidan, tijorat banklarida likvidlilikning vaqtinchalik taqchilligi yuzaga kelganda to‘lovlarning uzluksizligini ta‘minlash maqsadida Markaziy bank likvidlilikni saqlab turish uchun tijorat banklariga uch oygacha bo‘lgan muddatga qisqa muddatli kreditlar tarzida tezkor yordam berishga haqli bo‘lib, mazkur kreditlar bo‘yicha foiz stavkasi Markaziy bankning boshqa kreditlariga doir amaldagi stavkalardan kam bo‘lmasligi va u bankning aktivlari bilan ta‘minlangan bo‘lishi kerak; to‘rtinchidan, Markaziy bank kredit tashkilotlari faoliyatini, shu jumladan, tijorat banklarining faoliyatini tartibga soladi va nazorat qiladi»<sup>80</sup>.

2019 yilda yangi tahrirda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq, «banklar moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq qarorlar qabul qilishda mustaqildir; davlat organlari va ularning mansabdor shaxslariga banklar faoliyatiga, shu jumladan banklarning kredit portfelini va aktivlarini shakllantirish bilan bog‘liq tadbirkorlik tavakkalchiliklarini boshqarishga, banklarning rahbar xodimlarini tayinlashga aralashish, shuningdek

---

<sup>80</sup> O‘zbekiston Respublikasining qonuni. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida//Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.11.2019 y., 03/19/582/4014-son.

bankning mablag'lari hisobidan turli xil to'lovlar va badallar talab qilish taqiqlanadi; bankning kuzatuv kengashi bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv vazifasini bajaradi hamda umuman bankning faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun javobgardir; bank boshqaruvi bankni boshqarishning ijro etuvchi organi bo'lib, u bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshiradi hamda bankning faoliyati uchun javobgarlikni to'liq zimmasiga oladi; bank aksiyadorlarga dividendlar to'lash, shuningdek bankning kuzatuv kengashi, boshqaruvi a'zolari va xodimlarini mukofotlash orqali foydani taqsimlashni quyidagi hollarda amalga oshirishga haqli emas; (prudensial normativlar Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq bo'lmaganda yoki ular mazkur taqsimlash oqibatida buzilganda; nochorlik (bankrotlik) bo'lganda yoki mazkur taqsimlash oqibatida nochorlikning (bankrotlikning) alomatlari yuzaga kelganda; Markaziy bankning ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmasida aks ettirilgan, shu jumladan axborotni oshkor etish borasida ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilmaganda yoki ularni bartaraf etish imkoniyati mavjud bo'lmaganda; Markaziy bankning foydani taqsimlamaslik to'g'risida bankka nisbatan talabi mavjud bo'lganda; banklar to'lovlarning umumiy summasi bankning o'z kapitalining o'n foizidan ortganda va joriy yoki o'tgan chorakda va (yoki) moliya yilida zarar mavjud bo'lganda foydani taqsimlash uchun Markaziy bankning roziligini olishi kerak); bank o'zining moliyaviy ahvoli yomonlashgan taqdirda Markaziy bankning talabiga ko'ra uni tiklash choralarini o'z ichiga olgan bankning moliyaviy ahvolini tiklash rejasini (bundan buyon matnda tiklash rejasi deb yuritiladi) ishlab chiqadi hamda ko'rib chiqish va baholash uchun taqdim etadi»<sup>81</sup>.

O'zbekiston Respublikasining 2014 yilda qabul qilingan Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonuniga

---

<sup>81</sup> O'zbekiston Respublikasining qonuni. Banklar va bank faoliyati to'g'risida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.11.2019 y., 03/19/580/3994-son; 07.01.2020y., 03/20/600/0023-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son.

muvofig «aksiyalar egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar bo'lib, ular turiga ko'ra oddiy va imtiyozli bo'lishi mumkin; aksiya bo'linmasdir; Agar aksiya umumiy mulk huquqi asosida bir nechta shaxsga tegishli bo'lsa, bu shaxslarning barchasi bir aksiyador deb e'tirof etiladi va aksiya bilan tasdiqlangan huquqlardan o'zlarining umumiy vakili orqali foydalanadi; bir turdagi aksiya unga egalik qiluvchi har bir aksiyadorga shu turdagi aksiyalarning boshqa egalari bilan bir xil bo'lgan hajmdagi huquqlarni beradi; oddiy aksiyalarni imtiyozli aksiyalarga, korporativ obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga ayirboshlashga yo'l qo'yilmaydi; qimmatli qog'ozning bozor qiymati deganda eng ehtimol tutilgan narx tushunilib, unga ko'ra mazkur qimmatli qog'oz ochiq bozorda bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo'lgan holda o'z manfaatlari yo'lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qiladigan raqobat sharoitida boshqa shaxsga berilishi mumkin, bitim narxining baland-pastligida esa biror-bir favqulodda holatlar, shu jumladan taraflardan birining ushbu bitimga qo'shilish majburiyati aks etmaydi; imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar, agar ushbu Qonunda va jamiyat ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqiga ega emas; jamiyatning imtiyozli aksiyalari ularning egalari bo'lgan aksiyadorlarga bir xil hajmda huquqlar beradi va oddiy aksiyalar bilan bir xil nominal qiymatga ega bo'ladi; jamiyat tugatilayotganda imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendning miqdori va (yoki) qiymat (tugatilish qiymati) jamiyat ustavida belgilab qo'yilishi lozim; Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendning miqdori va tugatilish qiymati qat'iy pul summasida yoki imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatiga nisbatan foizlarda belgilanadi; Agar imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividend miqdori va tugatilish qiymatini belgilash tartibi jamiyat ustavida ko'rsatilgan bo'lsa ham imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendning miqdori va tugatilish qiymati belgilangan deb hisoblanadi»<sup>82</sup>.

---

<sup>82</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida//www.lex.uz.

«2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash bilan bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan quyidagi vazifalar belgilangan;

- \*moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish;
- \*kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish;
- \*banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish;
- \* bank xizmati ko'rsatishni modernizatsiya qilish;
- \*kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash;
- \* kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish;
- \*korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish;
- \* moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik echimlarni tatbiq etish;
- \*davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish;
- \* banklardagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega bo'lgan investorlarga tanlov asosida sotish;
- \* aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kamxarj xizmat ko'rsatish nuqtalari tarmog'ini rivojlantirish»<sup>83</sup>.

Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risidagi Prezident farmoniga muvofiq birinchidan, «yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasini erkin sotib olish va sotish hamda o'z mablag'larini o'zining xohishiga ko'ra erkin tasarruf etish huquqlarini ruyobga chiqarishni to'liq ta'minladi; ikkinchidan, davlat qimmatli qog'ozlari bozorini rivojlantirish, shuningdek, ochiq valyuta bozorda operatsiyalar hamda davlat qimmatli qog'ozlarini banklar likvidligiga garovga berish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishni amaliyotga joriy etish, valyuta resurslarini boshqarishning bozor

---

<sup>83</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi farmoni//QHMMB:06/205992/0581-son. 13.05.2020 y.



instrumentlarini joriy etish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi; uchinchi, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha eksportchi korxonalarining chet el valyutasidagi tushumini majburiy sotish bo'yicha talab bekor qilindi; to'rtinchidan, davlat bojlari, yig'implari va boshqa majburiy to'lovlar faqat milliy valyutada undiriladigan bo'ldi, konsullik yig'implari bundan mustasno»<sup>84</sup>.

«Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi Prezident qaroriga muvofiq birinchidan, 2017 yil 1 oktyabrdan boshlab tijorat banklari ustav kapitalining eng kam miqdoriga nisbatan talab 100 mlrd. so'm qilib belgilandi; ikkinchidan, loyihalar tashkilotchilari bo'lgan vazirliklar, idoralar va boshqa organlarning rahbarlarini investitsiya loyihalarini sifatli va o'z vaqtida bajarilishi yuzasidan shaxsiy javobgarligi belgilandi; uchinchi, vazirliklar va idoralar, joylardagi davlat hokimiyati organlariga banklar va ularning filiallari faoliyatiga aralashishlariga yo'l qo'yilmasligi aniq belgilab qo'yildi; to'rtinchidan, tijorat banklarining ijobiy xulosasisiz davlat va hududiy investitsiya dasturlariga banklarni jalb etish ta'qiqlandi»<sup>85</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2023 yil 23 avgustdagi 24/7-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to'g'risida»gi nizomga muvofiq «bankning daromadi bank tomonidan uning hisobvarag'iga olinishi lozim bo'lgan iqtisodiy foydaning yalpi tushumlarinigina o'z ichiga oladi; Agentlik munosabatlarida iqtisodiy foydaning yalpi tushumi o'ziga uchinchi shaxs nomidan yig'iladigan va bank kapitalini oshishiga olib kelmaydigan summalarini o'z ichiga oladi; Uchinchi shaxs nomidan inkassatsiya qilingan summalar daromad hisoblanmaydi; Bunda, bankning vositachilik haqi summasi bank daromadi hisoblanadi; kredit summasiga foizlar kredit ajratilgan kundan e'tiboran u bankka qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko'ra tegishli hisobvaraqdan o'chirilgan kundan oldingi kungacha hisoblanadi; kreditlar

---

<sup>84</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-sonli «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. – №36.– 945-modda.

<sup>85</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-sonli «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori// QHMMB:07/17/3270/0004-son.25.09.2017 y.

bo'yicha foizlar har kuni yillik bazaviy davr – 365 kundan kelib chiqqan holda hisoblab yoziladi (kreditlarning muayyan turlari bo'yicha 360 kun bazaviy davr qilib olinadi); qarz mablag'lari bo'yicha foizlar har kuni hisoblab yoziladi; to'lanmagan foizlar foizli investitsiyalarni xarid qilgunga qadar to'planib qolsa, unda keyingi olinadigan foizlar xarid qilgunga qadar va xarid qilingandan keyingi davrga taqsimlanadi hamda olinadigan foizlarning xarid qilingandan keyingi qismi daromad sifatida tan olinadi; banklar mukofot yoki diskont bilan sotilayotgan moliyaviy vositalar bo'yicha foizlarni hisoblab yozishda yoki shartnoma bo'yicha har oyda foizli to'lovlarni to'lash grafigi ko'rsatilmaganda effektiv foiz stavkasi usulini qo'llashlari lozim; effektiv foiz stavkasi usuli asosida daromad kutilayotgan pul oqimlarini aktiv (majburiyat)ning dastlabki balans qiymatiga etgunga qadar diskontlash yo'li bilan aniqlanadi; Effektiv foiz stavkasi dasturiy ta'minotdan foydalangan holda hisoblab chiqariladi; Bunda, Microsoft Excel dasturida daromadlilikning ichki stavkasini (VSD) hisoblash funksiyasidan foydalaniladi; diskont moliyaviy vositalarning amal qilish muddati ichida effektiv foiz stavkasi usuli bo'yicha amortizatsiya qilinadi; qimmatli qog'ozlar diskont bilan chiqarilganda diskont sotish sanasida aks ettiriladi va qimmatli qog'ozlarning amal qilish muddati ichida effektiv foiz stavkasi usuli bo'yicha amortizatsiya qilinadi; qimmatli qog'ozlar mukofot bilan chiqarilganda, mukofot sotish sanasida aks ettiriladi va qimmatli qog'ozlarning amal qilish muddati ichida effektiv foiz stavkasi usuli bo'yicha amortizatsiya qilinadi»<sup>86</sup>.

«Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomasiga muvofiq tasniflangan kreditlar bo'yicha zaxira ajratmalari tashkil qilishning quyidagi stavkalari belgilandi:

standart kreditlar – 1 %;

substandart kreditlar – 10 %;

---

<sup>86</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2023 yil 23 avgustdagi 24/7-sonli qarori. «Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to'g'risida»gi nizomni tasdiqlash to'g'risida//QMMB: 10/23/3460/0742-son 03.10.2023-y.

qoniqarsiz kreditlar – 25 %;  
shubhali kreditlar – 50 %;  
umidsiz kreditlar – 100 %»<sup>87</sup>.

«Banklarning qimmatli qogʻozlar bozorida investitsiya vositachisi, investitsiya aktivlarini boshqaruvchi va investitsiya konsultanti sifatida kasbiy faoliyatni amalga oshirishiga oid talablar toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqidagi nizomga muvofiq birinchidan, bank tomonidan qimmatli qogʻozlar bozorida investitsiya vositachisi sifatida kasbiy faoliyatni amalga oshirishda bank har bir mijozning qimmatli qogʻozlari va pul mablagʻlari hisobini yuritishi, qimmatli qogʻozlarga doir bitimlar va operatsiyalarni mijoz bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshirishi, tuzilgan bitimlar va amalga oshirilgan operatsiyalar toʻgʻrisida unga hisobot berishi shart; ikkinchidan, bankda investitsiya vositachisi, investitsiya aktivlarini boshqaruvchi va investitsiya konsultanti sifatida kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bogʻliq bank operatsiyalari boʻyicha javobgarlik yuklatilgan tarkibiy boʻlinma boʻlishi lozim; uchinchidan, banklarning qimmatli qogʻozlar bozorida investitsiya vositachisi, investitsiya aktivlarini boshqaruvchisi va investitsiya konsultanti sifatidagi kasbiy faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish funksiyasi Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qimmatli qogʻozlar bozorini tartibga solish boʻyicha vakolatli davlat organi bilan birgalikda amalga oshiriladi»<sup>88</sup>.

«Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qoʻyiladigan talablar toʻgʻrisidagi nizomda tijorat banklarning likvidliligiga nisbatan quyidagi toʻrtta moliyaviy koeffitsient boʻyicha meʼyoriy talablar oʻrnatildi:

---

<sup>87</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori. Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar boʻyicha ehtimoliy yoʻqotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida // Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2015 y., 28-son, 374-modda; Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 30.04.2018 y., 10/18/2696-2/1120-son.

<sup>88</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi va Davlat raqobat qoʻmitasi huzuridagi Qimmatli qogʻozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazining 2015 yil 22 avgustdagi 299-V-2, 2015-12-sonli qarori. «Banklarning qimmatli qogʻozlar bozorida investitsiya vositachisi, investitsiya aktivlarini boshqaruvchi va investitsiya konsultanti sifatida kasbiy faoliyatni amalga oshirishiga oid talablar toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi nizom// Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2008 y., 14-15-son, 105-modda; 2014 y., 9-son, 95-modda; 2015 y., 38-son, 503-modda; Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 29.03.2019 y., 10/19/1782-3/2845-son.

- \*lahzali likvidlilik koeffitsienti;
- \*joriy likvidlilik koeffitsienti;
- \*likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti;
- \*sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti»<sup>89</sup>.

«Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizomga ko'ra bank I darajali kapitalining miqdori bank ustav kapitalining eng kam miqdoridan kam bo'lmasligi lozim; I darajali kapital regulyativ kapitalning 75 foizidan kam bo'lmasligi lozim. II darajali kapital miqdori I darajali kapital miqdorining uchdan bir qismidan oshib ketsa, oshgan summa regulyativ kapital tarkibiga kiritilmaydi; I darajali asosiy kapital bank regulyativ kapitalining 60 foizidan kam bo'lmasligi zarur; O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki banklardan ularning faoliyatiga xos tavakkalchilik, iqtisodiy shart-sharoit va moliyaviy ahvolidan kelib chiqib, kapital monandligining yanada yuqori koeffitsienti ta'minlanishini talab qilishi mumkin. Bunday tavakkalchiliklar muammoli kreditlarning katta hajmi, sof zararlar, aktivlarning yuqori darajada o'sishi, foiz stavkalari bo'yicha yuqori darajali tavakkalchilikning yuzaga kelishi yoki tavakkalchilikka asoslangan faoliyatga jalb qilinish kabilarni o'z ichiga oladi, biroq ular bilan cheklanib qolmaydi»<sup>90</sup>.

«Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartishlar kiritish haqidagi qonunga muvofiq mamlakat tijorat banklari ustav kapitalining eng kam miqdori:

- \*2023 yil 1 sentyabrga qadar yuz milliard so'mni;
- \*2023 yil 1 sentyabrdan e'tiboran ikki yuz milliard so'mni;
- \*2024 yil 1 apreldan e'tiboran uch yuz ellik milliard so'mni;


<sup>89</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015 yil 22 iyuldagi 19/14-sonli (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 13 avgustda 2709-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) «Tijorat banklarining likvidlilikini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2015. - №32. – 141-152-b.

<sup>90</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori. Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 6 iyulda 2693-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan)// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 27-son, 360-modda; 2017 y., 27-son, 632-modda, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2017 y., 10/17/2693-2/0167-son; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.04.2018 y., 10/18/2693-3/1099-son, 28.12.2018 y., 10/18/2693-4/2387-son, 07.03.2019 y., 10/19/2693-5/2722-son.

\*2025 yil 1 yanvardan e'tiboran besh yuz milliard so'mni tashkil etishi kerak»<sup>91</sup>.

Bizningcha, mamlakatimiz banklarining eng kam ustav kapitaliga yuqori talablarning belgilanishi ularning faoliyatini kengaytirishga zamin yaratadi. Moliyaviy resurslarning ko'payishi likvidlik muammolari xavfini kamaytiradi va ularning ichki va tashqi stresslarga chidamliligini oshiradi.

Bazel qo'mitasining banklar ustidan nazoratni oshirishda yangi talablar ishlab chiqqan. Ulardan biri, tijorat banklari kapitalining monandligiga nisbatan talablarning oshirilishidir. Ushbu talablar doirasida, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024 yil 31 yanvardagi 42/14-son qaroriga muvofiq Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risi»<sup>92</sup>da Nizom ishlab chiqilgan (2.1-rasm).



**2.1-rasm. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kapitalining etarliligiga nisbatan talablarning oshirilishi**<sup>93</sup>

<sup>91</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartishlar kiritish haqida//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2023 y., 03/23/831/0219-son.

<sup>92</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori. Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 6 iyulda 2693-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan)// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 27-son, 360-modda; 2017 y., 27-son, 632-modda, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2017 y., 10/17/2693-2/0167-son; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.04.2018 y., 10/18/2693-3/1099-son, 28.12.2018 y., 10/18/2693-4/2387-son, 07.03.2019 y., 10/19/2693-5/2722-son.

<sup>93</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori. Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 6 iyulda 2693-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan)// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 27-son, 360-modda; 2017 y., 27-son, 632-modda, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2017 y., 10/17/2693-2/0167-son; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.04.2018 y., 10/18/2693-3/1099-son, 28.12.2018 y., 10/18/2693-4/2387-son, 07.03.2019 y., 10/19/2693-5/2722-son.


2.1-rasm quyidagilarni izohlaydiki, mamlakat tijorat banklari kapitalining monandligiga nisbatan talablar 2015 yildan boshlab balandlasha boshlandi va ushbu jarayon 2019 yil 1 yanvarda nihoyasiga etdi.

Shuningdek, mamlakat Markaziy banki, Bazel qo‘mitasining bank kapitalini shakllantirish bo‘yicha yangi talabini ham qabul qildi. «Mazkur talabning mohiyati shundaki, tijorat banklarining birinchi darajali kapitali ikki qismga ajratildi: birinchi darajali asosiy kapital; birinchi darajali qo‘shimcha kapital»<sup>94</sup>.

## 2.2-§. Tijorat banklari daromad bazasining amaldagi holati

«Banklarning daromad bazasini mustahkamlash borasida amalga oshirilgan ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq qilish natijalari ko‘rsatdiki, aktivlar rentabelligi (*ROA*) va kapital rentabelligi (*ROE*) - banklarning daromad bazasi barqarorligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlar sifatida e‘tirof etilgan»<sup>95</sup>.

Ushbu ikki ko‘rsatkichni mamlakat banklari misolida tahlil qilamiz.



2.2-rasm. AT «Asakabank»da aktivlar va kapitalning rentabelligi<sup>96</sup>, foizda

<sup>94</sup> Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems-Basel-III, 2010. <http://www.bis.org/publications>.

<sup>95</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

<sup>96</sup> Rasm AT «Asakabank»ning 2019-2023 moliyaviy yillarning yakuni bo‘yicha e‘lon qilingan moliyaviy hisobotlarining ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2.2-rasmdan yaqqol ko‘rinadiki, Asakabank aktivlarining rentabellik darajasi tahlil davrida (2019-2023 y.y) past va nobarqaror bo‘lgani holda, 2023 yilda 2019 yilga nisbatan (0,2 f.p) pasaygan.

2.2-rasmdan yaqqol ko‘rinadiki, Asakabank kapitalning rentabellik darajasi tahlil davrida (2019-2023 y.y) past va nobarqaror bo‘lgani holda, 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 0,4 foizli punktga pasaygan.

Kapitalning rentabelligi (*ROE*) bankning bozor qiymatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Bu esa, regulyativ kapitalning passivlar hajmidagi ulushini barqaror darajada saqlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Qayd etish joizki, banklarning kapitali rentabelligining me‘yoriy darajalariga (*ROE = min 15%*) erishish, kapitalning o‘shish sur‘ati bilan sof foydaning o‘shish sur‘ati o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash zarurligini yuzaga keltiradi.

Moliyaviy reyting darajalari yuqori bo‘lgan xorijiy banklar tajribasi ko‘rsatadiki, tijorat banklarida sof foydaning o‘shish tendensiyasining barqarorligiga erishishda quyidagi omillarga tayanish zarurdir:

\*foizli xarajatlarning (*interest expense*) foizli daromadlarga (*interest income*) nisbatan darajasini o‘zgarishi;

\*foizsiz xarajatlarni (*commission expense*) foizsiz daromadlarga (*commission income*) nisbatan darajasini o‘zgarishi;

\*ssuda aktivlarining riski oqibati bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxira ajratmalarining riskka tortilgan aktivlar summasiga nisbatan darajasining tebranishi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda tijorat banklari aktivlarida tarkibida ssudali aktivlarning hajmi nisbatan yuqori salmoqqa ega. Bu holat esa, o‘z navbatida, kredit portfeli sifatining yomonlashishiga yo‘l qo‘ymaslik zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Banklar kredit portfelinin sifatini yomonlashishi haqiqatda quyidagi salbiy o‘zgarishlarga olib keladi:

\*kapitalning passivlar hajmidagi salmog‘i pasayadi;

\*foizli daromadlarning brutto daromad hajmidagi salmog‘i pasayadi;

\*balanslashmagan likvidlilik muammosi chuqurlashadi.

Quyidagi jadvalda qayd etilgan ma'lumotlar orqali mamlakatimiz banklarining aktivlari xususiyatlariga baho beramiz.

## 2.1-jadval

### O'zbekiston tijorat banklari aktivlarining tarkibi, foizda<sup>97</sup>

Aktivlar tarkibi	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.
Kassali aktivlar shu jumladan:	17,1	17,2	17,3	18,1	20,0
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	2,5	2,4	2,7	2,4	3,5
Markaziy bankdagi mablag'lar	5,3	5,4	5,1	7,1	6,6
Boshqa bankdagi mablag'lar-rezident	3,0	3,7	3,6	3,0	3,1
Boshqa bankdagi mablag'lar-norezident	6,3	5,7	5,9	5,6	6,8
Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar	1,1	1,2	2,6	4,4	5,7
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo'yicha majburiyatlari	0,9	0,2	0,4	0,3	0,3
Kreditlar	76,8	76,1	73,8	71,1	68,1
Asosiy vositalar	1,6	2,1	2,3	2,5	2,6
Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar	1,3	1,2	2,2	2,1	2,2
Boshqa aktivlar	1,2	2,0	1,4	1,5	1,1
<b>Aktivlar - jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>

2.1-jadval quyidagilarni izohlaydi, mamlakatimiz tijorat banklari aktivlari (*assets*) tarkibida daromad keltiradigan ssudali aktivlar yuqori o'rinni egallaydi ya'ni 68-77 foizgacha, keyingi o'rinda yuqori likvidli aktivlar turkumidagi kassali aktivlardir. Aslida, aktivlar tarkibida ssudali aktivlardan so'ng fondli aktivlar o'rin egallashi lozim edi. Shuningdek, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar jami aktivlar tarkibida uchinchi o'rinni egallaydi.

<sup>97</sup> Jadval [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) saytining (O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Xalqaro bank amaliyotida, brutto aktivlar tarkibida eng yuqori ulushni ssudali aktivlar undan so‘ng fondli aktivlar egallashi e’tirof etilgan va ushbu faoliyat turlari rivojlangan.

## 2.2-jadval

### AT «Asakabank»da kreditlardan olingan daromadlarning jami daromaddagi ulushi, foizda<sup>98</sup>

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Kreditlardan olingan foizli daromadlar, mlrd. so‘m	1 724	2 137	1 216	2 824	3 728
Jami daromad mlrd. so‘mda	3 454	5 171	2 668	5 009	7 698
Foizda ulushi	50	41	46	56	48

2.2-jadval quyidagilarni izohlaydi, AT «Asakabank»da jami daromadlar (*revenue*) tarkibida kreditlardan olingan foizli daromadlarning (*interest income*) miqdori 2021-2023 yillarda o‘shisi kuzatilgan bo‘lib 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 2 004 mlrd.so‘m (216 f.p) oshgan.

2.2-jadval quyidagilarni izohlaydi, AT «Asakabank»da daromadlarning (*revenue*) miqdori tahlil davrida (2021-2023 y.y) o‘shisi kuzatilgan.

2.2-jadval izohlaydiki, «AT «Asakabank»ning yalpi daromadi tarkibida kreditlardan olingan foizli daromadlarning ulushi tahlil davrida (2023-2019 y.y) nobaqaror bo‘lgan holda 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 0,8 foizli punktga pasaygan»<sup>99</sup>. Bu esa, ushbu davrda foizsiz daromadlarning o‘shisi hisobiga yuz bergan.

Quyidagi jadvalda qayd etilgan ma’lumotlar orqali AT «Asakabank» kreditlarining daromadlilikini tahlil qilamiz.

<sup>98</sup> Jadval muallif tomonidan AT «Aloqabank»ning 2019-2023 moliyaviy yillarning yakuni bo‘yicha e’lon qilingan hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>99</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

AT «Asakabank» kreditlari va ularning daromadliligi<sup>100</sup>, foizda

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Kreditlar, mlrd. so'm	26 321	34 122	37 685	36 741	39 213
Kreditlardan olingan foizli daromadlar, mlrd. so'm	1 723	2 136	2 398	2 824	3 728
1 so'mlik kreditga to'g'ri keladigan daromad darajasi, %	6,5	6,3	6,4	7,7	9,5

2.3-jadval shuni izohlaydiki, AT «Asakabank»da kreditlash amaliyoti oshib borayotganligi hisobiga 2019-2023 yillarda kredit portfelining miqdoriy qoldig'i oshgan. Bu quyidagicha izohlanadi, dastlab, AT «Asakabank»ning sanoat iqtisodiyot vakillarini, shu jumladan, avtomobil sanoatini rivoji yo'lida kreditlashdagi rolining oshib borayotganligi bilan; undan so'ng, AT «Asakabank» kreditlarining ob'ekti bo'lgan xom-ashyo va tovarlarning baholarini inflyatsiya va devalvatsiya ta'siri hisobiga oshib borayotganligi bilan izohlanadi. Jumladan, 2017 yil 5 sentyabrda devalvatsiya darajasi qariyb ikki barobarga yuqorilganligi (so'mning 1 AQSh dollariga nisbatan kursi amaldagi 4210,00 so'mdan 8100,00 so'mga ko'tarildi) importning keskin qimmatlashishiga olib keldi.

«2.3-jadval shuni izohlaydiki, AT «Asakabank»da yalpi daromadlari tarkibida kreditlardan olingan foizli daromadlarning miqdori tahlil davrida (2019-2023) y.y»<sup>101</sup> o'sishi kuzatilgan bo'lib 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 904 mlrd.so'mga ko'paygan.

2.3-jadval shuni izohlaydiki, AT «Asakabank» kreditlarining daromadlilik darajasi tahlil davrida (2019-2023 y.y) nobarqaror bo'lgan. Ammo, mazkur ko'rsatkich 2023 yilda 2022 yilga nisbatan sezilarli darajada (1,8 f.p) o'sgan. Bu esa,

<sup>100</sup> Jadval AT «Asakabank»ning 2019-2023 moliyaviy yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan moliyaviy hisobotlarining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

<sup>101</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

AT «Asakabank»ning daromad bazasining optimal darajaga erishish jihatidan ijobiy holat hisoblanadi.

Quyida AT «Asakabank» kreditlarining risk darajasini baholaymiz.

#### 2.4-jadval

##### AT «Asakabank» kredit portfelining tarmoq tarkibi, foizda<sup>102</sup>

Tarmoqlar	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.
Sanoat	62,8	68,2	70,6	67,2	63,9
Qishloq xo‘jaligi	6,8	5,5	4,3	4,0	3,6
Transport va kommunikatsiya	1,2	1,9	1,8	1,8	1,7
Qurilish	1,2	1,2	1,3	1,0	1,0
Savdo va umumiy ovqatlanish	3,9	4,4	4,9	4,6	3,4
Moddiy-texnika ta‘minoti	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Uy-joy kommunal xo‘jaligi	0,5	0,4	0,4	0,3	0,4
Boshqa tarmoqlar va sohalar (shu jumladan jismoniy shaxslar)	23,6	18,4	16,7	21,1	27,0
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>

2.4-jadval izohlayliki, AT «Asakabank» kredit portfelining tarmoqlar va sohalar bo‘yicha diversifikatsiya darajasi 2019-2023 yillarda juda past bo‘lgan. Buning asosiy sababi, tahlil qilingan davrlar mobaynida AT «Asakabank» kredit portfeli tarkibida eng yuqori ulushni (62 - 71 foizgacha) mamlakat iqtisodiyotning sanoat tarmog‘ini rivojlantirish maqsadida ajratilgan kreditlar egallaydi. Aslida, g‘arb iqtisodiy olimlarning tadqiqot ishlarida umume’tirof etilgan mezonlarga ko‘ra, tijorat banklari ssuda portfelining umumiy hajmida bir tarmoq yoki sohaga to‘g‘ri keluvchi ssudalar hajmi 25 foizdan ortmasligi kerakligi e’tirof etilgan.


<sup>102</sup> Jadval muallif tomonidan AT «Asakabank»ning yillik hisobotlari ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

«2.4-jadval izohlaydiki, Asakabankning ssuda portfelida mamlakatimizda tayanch tarmoqlardan bo‘lgan quyidagi qishloq xo‘jaligi, transport va kommunikatsiya, moddiy-texnika ta‘minoti, qurilish tarmoqlariga ajratilgan kreditlarning ulushi juda pastligini ko‘rishimiz mumkin»<sup>103</sup>.

Ssudali aktivlarni joylashtirishda uning diversifikatsiya darajasiga e‘tibor qilinmasligi kredit riski oqibatlarini keltirib chiqaradi.

Banklarning aktivlari tarkibida eng yuqori daromad manbai sifatida e‘tirof etilgan faoliyat bu - kredit mahsulotlarini sotish faoliyati hisoblanadi. Kredit ajratishda kredit riski oqibatlarini to‘g‘ri prognoz qilinganligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri - kreditlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlar qarshi zaxira ajratmalarining darajasi ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Quyida, AT «Asakabank» kreditlari bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlar zaxirasining darajasini baholaymiz.



**2.3-rasm. AT «Asakabank»da kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi, foizda<sup>104</sup>**

2.3-rasm quyidagilarni izohlaydiki, Asakabank ssuda portfelida sifat darajasi yomon bo‘lgan kreditlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxira


<sup>103</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

<sup>104</sup> Rasm muallif tomonidan AT «Asakabank»ning yillik hisobotlari ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

ajratmalarining darajasi tahlil davrida (2019-2023 y.y) nobarqaror bo‘lgan va umume’tirof etilgan chegaraviy darajasidan (1,0 %) baland bo‘lgan. Mazkur holat, kredit portfeli tarkibida zaxira ajratmalarini talab qiluvchi tasniflangan ssudalar miqdori yuqori bo‘lganligi bilan izohlanadi. Bu esa, Asakabankning daromadlar bazasining barqarorligini ta’minlashda to‘sqinlik qiladi.

Shuni qayd etish joizki, sof foizli marja ko‘rsatkichi « $(M_{s.f})$  tijorat banklarining moliyaviy barqarorligining optimal darajasini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Quyida, AT «Asakabank»ning sof foizli marja ko‘rsatkichi darajasini baholaymiz.



**2.4-rasm. AT «Asakabank»da sof foizli marjaning darajasi, foizda<sup>105</sup>**

2.4-rasm izohlaydiki, AT «Asakabank»da sof foizli marjaning (*interest margin*) darajasi tahlil davrida (2019-2021y.y)»<sup>106</sup> nobarqaror bo‘lgan. Shuningdek, uning me’yoriy darajasi ( $M_{s.f}=4,5\%$ ) ta’minlanmagan. Undan tashqari 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 0,6 foiz punktga pasaygan. Bu holat esa, AT «Asakabank»ning daromad bazasining moliyaviy xavfsizligini ta’minlash jihatidan salbiy holat hisoblanadi.

<sup>105</sup> Rasm muallif tomonidan AT «Asakabank»ning yillik hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>106</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). Экономика и предпринимательство. – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

Sof foizli marja ko'rsatkichining me'yoriy darajasini ( $M_{s,f}=4,5\%$ ) yuqori va barqarorligiga erishish quyidagi omillarga bog'liq:

\*sof foydani shakllanishini bosh omillaridan bo'lgan foizli daromadlar (*interest income*) bilan foizli xarajatlar (*interest expense*) o'rtasidagi nisbatning tebranishi;

\*bankning brutto aktivlari miqdorining o'sish sur'ati bilan yalpi sof foizli daromadning o'sish sur'ati o'rtasidagi monandlikning ta'minlanmaganligi.

Brutto aktivlar miqdorining o'sish sur'ati bilan sof foyda miqdorining o'sish sur'ati o'rtasida mutanosiblik ta'minlanmagan hollarda, ushbu ikki ko'rsatkichni tarkibiy tahlil qilish talab etiladi.

Endi biz dissertatsion tadqiqotning ob'ektlaridan biri bo'lgan AT «Aloqabank»ning moliyaviy xavfsizligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilamiz.

## 2.5-jadval

### AT «Aloqabank» regulyativ kapitalining miqdori va darajasi<sup>107</sup>

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Regulyativ kapitalning miqdori, mlrd. so'm	1 396	1 568	1 673	1 795	2 643
Regulyativ kapitalning passivlar hajmidagi salmog'i, %	19,0	19,3	13,2	11,2	16,5

2.5-jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, AT «Aloqabank»ning regulyativ kapitalini miqdori tahlil davrida (2019-2023 y.y) ko'payishi kuzatilgan. Bu esa, bankning daromad bazasi barqarorligini ta'minlash hisobidan yaxshi holat hisoblanadi.

2.5-jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, AT «Aloqabank» passivlar hajmida regulyativ kapitalining salmog'i tahlil davrida (2019-2023 y.y) nobarqaror

<sup>107</sup> Jadval AT «Aloqabank»ning 2019-2023 moliyaviy yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan moliyaviy hisobotlarining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

bo'lgan. Biroq, regulyativ kapitalining passivlar hajmidagi salmog'i 2023 yilda 2022 yilga nisbatan sezilarli darajada (5,3 f.p) o'sgan.

## 2.6-jadval

### AT «Aloqabank»da kreditlardan olingan daromadlarning jami daromaddagi ulushi, foizda<sup>108</sup>

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Kreditlardan olingan foizli daromadlar, mlrd. so'm	827	809	923	1 350	1 707
Jami daromad mlrd. so'mda	1345	1480	1633	2335	3392
Foizda ulushi	62	55	57	58	50

2.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rsa bo'ladiki, AT «Aloqabank»da kreditlardan olingan foizli daromadlarning miqdori 2020-2023 yillarda ko'payish tendensiyasi kuzatilgan.

2.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rsa bo'ladiki, AT «Aloqabank»da daromadlarning miqdori 2020-2023 yillarda ko'payish tendensiyasi kuzatilgan.

2.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rsa bo'ladiki, AT «Aloqabank»ning jami daromadlari tarkibida kreditlardan olingan foizli daromadlarning (*interest income*) ulushi 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 8 foizli punktga kamaygan. Bu holat, ushbu davrda foizsiz daromadlarning o'sishi hisobiga yuz bergan.

## 2.7-jadval

### AT «Aloqabank» kreditlari va ularning daromadliligi<sup>109</sup>, foizda

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Kreditlar, mlrd. so'm	5 601	5 705	7 754	9 161	10 293
Kreditlardan olingan foizli daromadlar, mlrd. so'm	827	809	923	1 350	1 707
1 so'mlik kreditga to'g'ri keladigan daromad darajasi, %	14,8	14,2	11,9	14,7	16,6

<sup>108</sup> Jadval muallif tomonidan AT «Aloqabank»ning 2019-2023 moliyaviy yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>109</sup> Jadval AT «Aloqabank»ning 2019-2023 moliyaviy yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan moliyaviy hisobotlarining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2.7-jadval ma'lumotlaridan ko'rsa bo'ladiki, AT «Aloqabank» kredit portfelining miqdori 2019-2023 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu holat esa, AT «Aloqabank» kredit portfeli tarkibida mamlakatimiz raqamli iqtisodiyot sub'ektlarini, shu jumladan, raqamli texnologiyalar - Information Technology (IT) tarmog'ini kreditlash rolining o'sib borayotganligi hamda AT «Aloqabank» kreditlarining ob'ekti bo'lgan xom-ashyo va tovarlarning baholarini inflyatsiya va devalvatsiya ta'sirida oshib borayotganligi bilan izohlanadi. Jumladan, inflyatsiyaning yillik darajasi 2022 yilda 12,3 foizni tashkil etgan<sup>110</sup>(ushbu ko'rsatkich 9,0 foizdan oshmasligi kerak edi<sup>111</sup>). 2023 yilda esa ushbu ko'rsatkich 8,8 foizni tashkil etdi<sup>112</sup>.

Shuni qayd etish joizki, inflyatsiya ta'sirida, joylashtirilgan ssudali aktivlarning bozor bahosi tushishi hisobiga foizli daromadlarning real qiymati pasayadi, depozit bozorida moliyaviy manbalarning bahosi foiz riski oqibatlarini keltirib chiqaradi. Natijada, tijorat banklarining joylashtirilgan ssudali aktivlari ulushida NPLning (*muammoli aktivlarning*) oshishiga va ularni qaytimi bo'yicha muqobil natijaga erishishga to'sqinlik qiladi. Natijada, kredit portfelida NPL ga (muammoli kreditlar) ehtimoliy yo'qotishlar bo'yicha zaxira ajratmalari shakllantiriladi.

2.7-jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, AT «Aloqabank»da tahlil davrida (2019-2023 y.y) kreditlar uchun hisoblab yozilgan foizli daromadlar o'sish tendensiyasi kuzatilgan. «Mazkur holat, tahlil davrida bankning ssudali aktivlarning o'sish sur'ati bilan ssudali aktivlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi monandlik ta'minlanganligi bilan izohlanadi»<sup>113</sup>.

2.7-jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, AT «Aloqabank»da ssuda aktivlarning daromadlilik darajasi tahlil davrida (2019-2023 y.y) nobarqaror

---

<sup>110</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022 yildagi faoliyati to'g'risida hisobot//www.cbu.uz (O'zbekisto Respublikasining Markaziy banki).

<sup>111</sup> Pul-kredit siyosatining 2022 yil va 2023-2024 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari// www.cbu.uz

<sup>112</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023 yildagi faoliyati to'g'risida hisobot//www.cbu.uz (O'zbekisto Respublikasining Markaziy banki).


<sup>113</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;



bo'lgan. Biroq, ushbu ko'rsatkich 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 1,8 foizli punktga ko'paygan. Bu esa, AT «Aloqabank»ning daromad bazasining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash jihatidan ijobiy holat deb sanaladi.

Banklarning aktivlari tarkibida eng yuqori daromad manbai sifatida e'tirof etilgan faoliyat bu - kredit ajratish faoliyati hisoblanadi. Kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira ajratmalari ko'rsatkichi banklarning kredit ajratishda kredit riski oqibatlarini to'g'ri baholay olganligini tavsiflovchi muhim ko'rsatkich.

Kredit riski va foiz riski oqibatlarini to'g'ri baholanmaganligi natijasida kredit portfel tarkibida tasniflangan kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira ajratmalari darajasining oshishiga olib keladi, natijada, daromad riski va kapital riski oqibatlarini xavfini vujudga keltiradi. Pirovardida, sof foyda (*net profit*) miqdorining kamayishiga kelishi mumkin. Shuningdek, banklar o'zlarining kreditlash siyosatlarini ishlab chiqishda kredit riski va foiz riski oqibatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqish zarurligini yuzaga keltiradi. Sababi, ushbu omil banklarning daromad bazasining optimal darajasiga erishishda to'sqinlik qiluvchi omillar tarkibiga kiradi.




**2.5-rasm. AT «Aloqabank»da kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi, foizda<sup>114</sup>**

<sup>114</sup>Rasm muallif tomonidan AT «Aloqabank»ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2.5-rasm ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, AT «Aloqabank»da tahlil davrida (2019-2023 y.y) kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining (*losses on irrecoverable loans*) darajasi ko'rsatkichi, umume'tirof etilgan me'yoriy (1,0%) darajasidan past bo'lgan. Shuningdek, mazkur ko'rsatkich 2023 yilda 2022 yilga nisbatan keskin pasaygan. Bu esa, AT «Aloqabank»ning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash jihatidan ijobiy yaxshi hisoblanadi.

Quyida AT «Aloqabank»ning haqiqatdagi sof foizli marja ko'rsatkichining darajasiga baho beramiz.



**2.8-rasm. AT «Aloqabank»da sof foizli marjaning darajasi, foizda<sup>115</sup>**

2.8-rasm ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, AT «Aloqabank»da sof foizli marjaning darajasi tahlil davrida (2019-2022 y.y) nobarqaror bo'lib pasayish tendensiyasi kuzatilgan. 2021-2023 yillarda mazkur ko'rsatkichning me'yoriy darajasi ( $M_{s.f}=4,5\%$ ) ta'minlanmagan. Yuqoridagi holatlar AT «Aloqabank»ning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash jihatidan salbiy holat hisoblanadi.

Mazkur jadval ma'lumotlari orqali AT «Aloqabank» aktivlari va kapitalining rentabelligiga baho beramiz.

<sup>115</sup> Rasm muallif tomonidan AT «Aloqabank»ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

**AT «Aloqabank»da brutto aktivlar va kapitalning rentabelligi<sup>116</sup>, foizda**

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Aktivlarning rentabelligi	2,7	2,1	0,8	1,4	3,8
Kapitalning rentabelligi	14,3	10,8	6,4	12,7	22,9

2.9-jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, AT «Aloqabank»da tahlil davrida (2019-2023 y.y) brutto aktivlarining rentabellik darajasi nobarqaror bo'lgan. Mazkur ko'rsatkich 2023 yilda 2019 yilga nisbatan sezilarli darajada (1,1 f.p) o'sgan.

2.9-jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, AT «Aloqabank»da tahlil davrida (2019-2023 y.y) kapitalining rentabelligi darajasi ko'rsatkichi nobarqaror bo'lgan. Mazkur ko'rsatkich 2023 yilda 2019 yilga nisbatan sezilarli darajada (8,6 f.p) o'sgan.

Yuqoridagi holatlar Aloqabank moliyaviy xavfsizligi ta'minlashga erishish jihatidan ijobiy holat hisoblanadi.

**2.3-§. Tijorat banklarining daromad bazasiga ta'sir etayotgan omillar.**

«Ilmiy tadqiqotning yuqori qismida amalga oshirilgan ilmiy-nazariy qarashlarning tahlili ko'rsatdiki, banklar daromad bazasining optimal darajasiga erishishga ta'sir etuvchi omillarga quyidagi - tashqi va ichki omillar kiradi»<sup>117</sup>.

Tashqi omillar sifatida quyidagilarni e'tirof etishimiz mumkin Bular quyidagilar, mamlakat miliy pul birligining tovarlarni sotib olish qobiliyatini va boshqa valyutalarga nisbatan qiymatining tushishi, iqtisodiyotda likvidlilik

<sup>116</sup> Jadval AT «Aloqabank»ning 2019-2023 moliyaviy yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan moliyaviy hisobotlarining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

<sup>117</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

muammosini va Markaziy bankning asosiy stavkasini yuqori ekanligini sababchi sifatida ko'rsatishimiz mumkin.

Jadval ma'lumotlarining tahlili orqali inflyatsiya darajasiga va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning asosiy stavkasiga baho beramiz.

**2.10-jadval**

**O'zbekiston Respublikasida inflyatsiyaning yillik darajasi va Markaziy bank asosiy stavkasining yillik darajasi<sup>118</sup>**

foizda

Ko'rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Inflyatsiyaning yillik darajasi	15,1	11,1	10,0	12,3	8,8
Markaziy asosiy stavkalarining darajalari	16,0	14,0	14,0	15,0	14,0

2.10-jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rsa bo'ladiki, mamlakatimizda inflyatsiyaning yillik darajasi tahlil davrida (2019-2021 y.y) pasayish tendensiyasi kuzatilgan, ammo, 2022 yilda 2021 yilga nisbatan baland darajada, ya'ni 2,3 foizli punktga oshgan. Bu holatga, Markaziy bankning rasmiy bayonotida quyidagi sabablar bilan izohlangan: «2022 yilda mamlakatimizda shakllangan inflyatsiya darajasiga tashqi oshiruvchi shoklar – jahonda tovar va xomashyo narxlarining keskin tebranishi, logistika va etkazib berishdagi uzilishlar (yalpi taklifni qisqarishi evaziga), ichki omillardan, oylik daromadlarning oshishi, bozorlardagi raqobat sharoitlari va ta'minotdagi uzilishlar hamda pul o'tkazmalari hajmining o'sishi (iste'mol talabi tomonidan) oshiruvchi ta'sir ko'rsatdi»<sup>119</sup>. Shuningdek 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 6,3 foizli punktga pasaygan.

2.10-jadval ma'lumotlaridan ko'rsa bo'ladiki, Markaziy bank asosiy stavkasining yillik darajasi tahlil davrida (2019-2021 y.y) pasayish holatlari yuzaga kelgan. Bunga sabab, mazkur davrda inflyatsiyaning yillik darajasini pastlaganligi bilan izohlanadi. Biroq, markaziy bankning asosiy stavkasi 2022 yilda 2021 yilga nisbatan 1,0 foizga oshirilib, 2023 yilda esa 1,0 foizga pasaygan.

<sup>118</sup> Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>119</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022 yildagi faoliyati bo'yicha hisobot (B. 35)//www.cbu.uz (O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki).

Yuqoridagi ma'lumotlar tahlilidan ko'rinadiki, Markaziy asosiy stavkasining yillik darajasi 2022 yilda 2021 yilga nisbatan 1,0 foizli punktga oshirilgan. Bu esa, ushbu davrda inflyatsiyaning yillik foiz stavkasini 2,3 foizli punktga oshganligi bilan izohlanadi. Biroq, 2023 yilda qayta moliyalash stavkasi 2022 yilga nisbatan 1,0 foizli punktga pasaytirishi inflyatsiyaning yillik foiz stavkasini 3,5 foizli punktga pasayganligi bilan izohlanadi.

Shu o'rinda qayd etish joizki, «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 noyabrdagi PF-5877 – sonli «Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida»gi farmoniga muvofiq, mamlakatimiz tarixida ilk bor inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish boshlandi<sup>120</sup>. Mazkur Farmon talabidan kelib chiqqan holda, 2023 yilda inflyatsiyaning yillik darajasini 5,0 foizdan oshmasligini ta'minlash talabi qo'yilgan»<sup>121</sup>.

Markaziy bank asosiy stavkasining tebranishi banklarning milliy valyutadagi kredit stavkalarining tebranishiga sababchi bo'ladi va uning tebranishiga sabab bo'luvchi omillar quyidagilardan iborat:

\*mamlakat pul birligini tovar va xizmatlarni xarid qobilyati darajasining o'zgarishi;

\*YaIMning (*gross domestic product*) o'sish sur'atini sekinlashishi (*mazkur oraliqda bank kreditlari tan-narxini tushirish zaruriyatini yuzaga keladi*);

\*banklarining balanslashmagan likvidlilik (*liquidity*) darajasini o'zgarishi.

«2.11-jadval izohlaydiki, mamlakatimiz tijorat banklari kreditlarining o'rtacha foiz stavkasi 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 1 foizli punktga pasaygan bo'lsada, 2022 yilga nisbatan 1,3 foizli punktga o'sgan»<sup>122</sup>.

---

<sup>120</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 noyabrdagi PF-5877 – sonli «Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.11.2019 y., 06/19/5877/4036-son.

<sup>121</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi//www.lex.uz.


<sup>122</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

**O‘zbekiston Respublikasida Markaziy bankning asosiy stavkasi va tijorat banklarining milliy valyutadagi kreditlarining o‘rtachaga tortilgan yillik foiz stavkasi<sup>123</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Markaziy bank asosiy stavkasining yillik darajasi	16,0	14,0	14,0	15,0	14,0
Tijorat banklarining milliy valyutadagi kreditlarining o‘rtachaga tortilgan yillik foiz stavkasi	24,2	22,3	20,8	21,9	23,2

Markaziy bankning asosiy stavkasi 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 2 foizli punktga pasaygan.

P.Masson, M.Savastano, C.Sharmalarning e‘tirof etishicha, «tijorat banklarining milliy valyutadagi kreditlarining foiz stavkalariga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining o‘zgarishi hamda inflyatsiya darajasining o‘zgarishi ilmiy jihatdan isbotlangan»<sup>124</sup>.



**2.7-rasm. O‘zbekiston Respublikasi korxonalari o‘rtasidagi debitor qarzdorlikning miqdori, trln. so‘m<sup>125</sup> (har bir moliyaviy yilning 1 mart holatiga)**

<sup>123</sup> Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>124</sup> Masson P., Savastano M., Sharma C. The Scope for inflation Targeting in Developing Countries. – Washington: IMF Working Paper, 1997/130.; Pivovarova M.A. Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya: «Inflyatsiya i ekonomicheskii rost: teoriya i praktika» // Dengi i kredit. – Moskva, 2006. - №7. – S. 60.; Khan M. Senhadji. Thershild Effects in the Relatioinshop between Inflation and Growth // IMF Staff Papers. 2001. Vol. 48. - P.1-21.

<sup>124</sup> Brouwer G. de, Evcisson N.R. Modeling Inflation in Australia. Journal of Business and Economic Statistics. 1998. Vol. 16. – R. 24 - 29.; Catao L., Terrones M. Fiscal Deficits and Inflation // Working Paper. 65. IMF. – R. 63 - 67.


<sup>124</sup> Hess G., Morris C. The Long-Ruh Costs of Moderate Inflation // Federal Reserve Bank of Kansas City Economic Review. 1996. Second Quarter. – P. 71-88.

<sup>125</sup> Rasm muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.

2.7-rasm ma'lumotlaridan yaqqol ko'rsa bo'ladiki, birinchidan, 2018-2022 yillarda mamlakatimiz korxonalar va tashkilotlari o'rtasidagi haqdorlik miqdori katta bo'lgan; ikkinchidan, haqdorlik miqdori 2022 yilning 1 mart holatiga qaraganda 2018 yilning 1 mart holatiga nisbatan yuqori sur'atda o'sgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotdagi to'lovsizlik muammolari korxonalarining likvidlilik riskiga duchor bo'lishi va uning oqibatlarini keltirib chiqaradi. «Bu holat esa, natijada, korxonalar va tashkilotlar tomonidan banklarining jozibador bank mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatini cheklaydi.

Mamlakatimiz tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligiga salbiy ta'sir etayotgan keyingi omil – bu devalvatsiya darajasining yuqori ekanligidir»<sup>126</sup>.



**2.8-rasm. Milliy valyuta – so‘mning 1 AQSh dollariga nisbatan nominal almashuv kursi, so‘m<sup>127</sup> (har bir moliyaviy yilning 31 dekabr holatiga)**

2.8-rasm ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, tahlil davrida (2010-2023 y.y) milliy valyuta – so'mning AQSh dollariga nisbatan xarid qobiliyatining pasayishi juda yuqori bo'lgan. Bu esa, tijorat banklarining daromad bazasini ta'minlashda valyuta riski xatarini yuzaga keltiradi. Shuningdek, banklar tomonidan xorijiy valyutada joylashtirilgan ssudali aktivlarning qaytmaslik ehtimoli oshdi. Shuni qayd etish joizki, banklarning milliy valyutadagi aktivlarining bozor bahosi qadrsizlandi.

Mamlakatimiz bank tizimidagi banklarning daromad bazasining optimal darajasiga erishishiga ta'sir etuvchi tashqi omillarni tahlil qilamiz.

<sup>126</sup> Xanaliev B. B. Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Ekonomika\\_i\\_predprinimatelstvo](#). – 2023. – № 9 (158).- S. 861-865.;

<sup>127</sup> Rasm muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Mamlakatimiz banklarining daromad bazasining barqarorligini ta'minlashda to'sqinlik qilayotgan omillardan biri bu – sof foizli marjaning (*interest margin*) me'yoriy darajasi ( $M_{s,f}=4,5\%$ ) ta'minlanmaganligidir.

Dissertatsiyaning mazkur bobidagi tahlillar natijalariga ko'ra Asakabankda 2019-2021 yillarda, Aloqabankda esa, 2019-2022 yillarda sof foizli marjani (*interest margin*) haqiqatdagi darajasi pasayish sur'atlari kuzatilgan. Fikrimizcha, mazkur banklarda sof foizli marja darajasining pasayishi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

1. Foizli daromadlar bilan foizli xarajatlar o'rtasidagi farq summasining o'zgarishi bilan aktivlarning boshlang'ich qiymatdagi jami summasining o'zgarishi o'rtasidagi monandlikni ta'minlanmaganligi.

AT «Aloqabank»da foizli daromadlar bilan foizli xarajatlar o'rtasidagi farq summasining o'sishi 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 24,0 foizni tashkil etgani holda, aktivlarning boshlang'ich qiymatdagi jami summasi 0,24 foizga kamaygan.

2. Tijorat banklari foizli xarajatlarning foizli daromadlariga nisbatan darajasining oshganligi.

## 2.12-jadval

### AT «Asakabank» va AT «Aloqabank»da foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan darajasi, foizda<sup>128</sup>

Banklar nomi	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
AT «Asakabank»	66,6	71,4	79,1	64,3	81,4
AT «Aloqabank»	67,4	69,1	69,9	66,2	72,0

Yuqoridagi 2.12-jadval shuni izohlaydiki, AT «Asakabank»da tahlil davrida (2019-2021 y.y) foizli xarajatlar (*interest expense*) ning foizli daromadlarga (*interest income*) nisbatan darajasi yuqorilaganligini namoyon etgan holda, 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 17,1 foizli punktga oshgan.


2.12-jadval shuni izohlaydiki, AT «Aloqabank»da tahlil davrida (2019-2021 y.y) foizli xarajatlar (*interest expense*) ning foizli daromadlarga (*interest income*)

<sup>128</sup> Jadval muallif tomonidan AT «Asakabank» va AT «Aloqabank»ning moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



nisbati yuqorilaganligini namoyon etgan holda, 2023 yilda 2012 yilga nisbatan 5,8 foizli punktga oshgan.

Mamlakatda kredit riski va foiz riski oqibatlari natijasida banklar aktivlari tarkibida NPL salmog‘i yuqoriligi banklarning daromad bazasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.



**2.9-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining umumiy hajmida muammoli kreditlarning salmog‘i, foizda<sup>129</sup>**

«Ushbu 2.9-rasm shuni izohlaydiki, mamlakatimiz banklarining ssudali aktivlari tarkibida tasniflanish toifasiga ko‘ra muammoli kreditlarni izohlovchi kreditlar ulushi 2021-2023 yillarda nisbatan yuqori bo‘lgan.


Mamlakat Markaziy banki e‘lon qilgan statistik ma‘lumotlar ko‘rsatadiki»<sup>130</sup>, «2022 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, muammoli kreditlarning segmentlar bo‘yicha taqsimotida ularning 72 foizi (12 trln. so‘m) tadbirkorlik sub’ektlari, 28 foizi (5 trln. so‘m) jismoniy shaxslar hissasiga to‘g‘ri keladi. Tijorat banklari tomonidan aholiga ajratilgan kreditlarning 4,7 trln. so‘mi yoki 6,8 foizi muammoli kreditlarga aylangan. Aholining muammoli kredit qarzidorlarining 2,4 trln. so‘mi yoki 51 foizi tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar, 1,4 trln. so‘mi yoki 30 foizi

<sup>129</sup> Rasm muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma‘lumotlari ([www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)) asosida tuzilgan.

<sup>130</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

ipoteka kreditlari, 409 mlrd. so‘mi yoki 9 foizi iste‘mol kreditlari, 346 mlrd. so‘mi yoki 7 foizi mikroqarzlilar hamda 135 mlrd. so‘mi yoki 3 foizi avtokreditlar hissasiga to‘g‘ri keladi»<sup>131</sup>.

«Respublikamizda fond bozori (*stock market*) rivoji qoniqarli darajada emasligi tijorat banklarining daromad bazasiga salbiy ta‘sir etayotgan omillardan biri hisoblanadi»<sup>132</sup> (2.10-rasmga qarang).



## 2.10-rasm. O‘zbekiston Respublikasining fond birjasi va Respublika valyuta birjasida (RVB) yillik aylanma hajmi, trln. so‘m<sup>133</sup>

Mazkur 2.10-rasm ko‘rsatadiki, O‘zbekiston fond bozoridagi aylanma miqdori valyuta bozoridagi aylanmadan 150-200 barobar kichik. Masalan, 2022 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, «Toshkent» fond birjasidagi operatsiyalar hajmi 4,8 trln. so‘mni tashkil etdi. Bu esa, Respublika valyuta birjasida shu davrda amalga oshirilgan operatsiyalar hajmidan 147 martaga kamdir. Bu esa, qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlanmaganligini yaqqol ko‘rsatadi. Shu sababli, «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga etkazish

<sup>131</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021 yildagi faoliyati bo‘yicha hisobot (B.56-57)//www.cbu.uz.

<sup>132</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

<sup>133</sup> Rasm muallif tomonidan «Toshkent» fond birjasi va Respublika valyuta birjasining yillik hisobotlari ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning zaruriy shartlari sifatida e'tirof etilgan»<sup>134</sup>.

Qayd etish o'rinliki, mamlakatimiz tijorat bank tizimida qimmatli qog'ozlar bilan amaliyotlarda ham investor, ham emitent, ham vositachi sifatida qatnashishga ruxsat berilgan.

## **Ikkinchi bob bo'yicha xulosa**

Dissertatsiyaning ikkinchi bobini yozish jarayonida bir qator xulosalarni shakllantirdik.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlashning me'yoriy-huquqiy asoslari bo'lib, «quyidagilar hisoblanadi:

\*O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonuni;

\*O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuni;

\*O'zbekiston Respublikasining 2014 yilda qabul qilingan «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonuni;

\*O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 19 apreldagi O'RQ-831-sonli «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartishlar kiritish haqida»gi qonuni;

\*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi»;

\*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-sonli «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni;

---

<sup>134</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi//www.lex.uz.

\*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-sonli «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori;

\*O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2023 yil 23 avgustdagi 24/7-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to‘g‘risida»gi nizom;

\*O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida»gi yo‘riqnomasi;

\*O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazining qarori bilan tasdiqlangan «Banklarning qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya vositachisi, investitsiya aktivlarini boshqaruvchi va investitsiya konsultanti sifatida kasbiy faoliyatni amalga oshirishiga oid talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi nizomi;

\*O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015 yil 22 iyuldagi 19/14-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida»gi nizom;

\*O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015 yil 13 iyundagi 14/3-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida» nizom»<sup>135</sup>.

Tadqiqot ob‘ekti bo‘lgan mamlakatimiz tijorat banklarining daromad bazasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning tahlili ko‘rsatdiki:

\* «AT «Asakabank»da jami daromadlar (*revenue*) tarkibida kreditlardan olingan foizli daromadlarning (*interest income*) miqdori 2021-2023 yillarda o‘shishi kuzatilgan bo‘lib 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 2 004 mlrd.so‘m (216 f.p) oshgan;

---

<sup>135</sup>O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

\*AT «Asakabank»da daromadlarning (*revenue*) miqdori tahlil davrida (2021-2023 y.y) o'sishi kuzatilgan;

\*AT «Asakabank»ning umumiy daromadi tarkibidan kreditlardan olingan foizli daromadlarning ulushi tahlil davrida»<sup>136</sup> (2023-2019 y.y) nobaqaror bo'lgan holda 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 0,8 foizli punktga pasaygan. Bu esa, ushbu davrda foizsiz daromadlarning o'sishi hisobiga yuz bergan;

\*Asakabank ssuda portfelida sifat darajasi yomon bo'lgan kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira ajratmalarining darajasi tahlil davrida (2019-2023 y.y) nobarqaror bo'lgan va umume'tirof etilgan chegaraviy darajasidan (1,0 %) baland bo'lgan;

\* AT «Asakabank» kredit portfelining tarmoqlar va sohalar bo'yicha diversifikatsiya darajasi 2019-2023 yillarda juda past bo'lgan;

\* AT «Asakabank» kredit portfelida tasniflangan kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasi tahlil davrida (2019-2023 y.y) nobarqaror bo'lgan va umume'tirof etilgan chegaraviy darajasidan (1,0 %) baland bo'lgan;

\* AT «Asakabank»da sof foizli marjaning darajasi tahlil davrida (2019-2021y.y) nobarqaror bo'lgan. Shuningdek, uning me'yoriy darajasi ( $M_{s.f}=4,5\%$ ) ta'minlanmagan. Undan tashqari 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 0,6 foiz punktga pasaygan;

\* AT «Aloqabank»ning regulyativ kapitalini miqdori tahlil davrida (2019-2023 y.y) ko'payishi kuzatilgan;

\* AT «Aloqabank» passivlar hajmida regulyativ kapitalining salmog'i tahlil davrida (2019-2023 y.y) nobarqaror bo'lgan. Biroq, regulyativ kapitalining passivlar hajmidagi salmog'i 2023 yilda 2022 yilga nisbatan sezilarli darajada (5,3 f.p) o'sgan;

\* AT «Aloqabank»da kreditlardan olingan foizli daromadlarning miqdori 2020-2023 yillarda ko'payish tendensiyasi kuzatilgan;

---

<sup>136</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

\* AT «Aloqabank»da daromadlarning miqdori 2020-2023 yillarda ko‘payish tendensiyasi kuzatilgan;

\*AT «Aloqabank»da tahlil davrida (2019-2023 y.y) kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining darajasi ko‘rsatkichi, umume’tirof etilgan me’yoriy (1,0%) darajasidan past bo‘lgan;

\*AT «Aloqabank»da tahlil davrida (2019-2023 y.y) brutto aktivlarining rentabellik darajasi nobarqaror bo‘lgan. «Mazkur ko‘rsatkich 2023 yilda 2019 yilga nisbatan sezilarli darajada (1,1 f.p) o‘sgan;

\* AT «Aloqabank»da tahlil davrida (2019-2023 y.y) kapitalining rentabelligi darajasi ko‘rsatkichi nobarqaror bo‘lgan. Mazkur ko‘rsatkich 2023 yilda 2019 yilga nisbatan sezilarli darajada (8,6 f.p) o‘sgan»<sup>137</sup>:

---


<sup>137</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

### III BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING DAROMAD BAZASINI MUSTAHKAMLASH YO‘LLARI

#### 3.1-§. Tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolar

«Ilmiy tadqiqotning mazkur paragrafida respublikamiz tijorat banklari aktivlarining (*assets*) daromadliligi barqarorligini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni aniqlaymiz va ularni amaliy va faktologik ma’lumotlarning tahlillari asosida isbotlaymiz»<sup>138</sup>.

Bu boradagi asosiy muammolardan biri, fikrimizcha, mamlakat banklarida sof foydaning (*net profit*) riskli aktivlarga (*risk-weighted assets*) nisbatan darajasining past ekanligidir (3.1-rasm).




3.1-rasm. Aksiyadorlik-tijorat AT «Asakabank»da sof foydaning aktivlarning riskka tortilgan summasiga nisbatan darajasi, foizda<sup>139</sup>

«3.1-rasm shuni izohlaydiki, Asakabankda tahlil davrida (2019-2023 y.y) nobarqaror bo‘lgan va sof foydaning optimal darajasiga (*min 2,0%*) erishilmagan

<sup>138</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

<sup>139</sup> Rasm muallif tomonidan AT «Asakabank»ning 2017-2022 moliyaviy yillarning yakunlari bo‘yicha e’lon qilingan yillik hisobotlarining ma’lumotlari asosida tuzilgan.

bo‘lib, mazkur holat sof foydaning (*net profit*) riskli»<sup>140</sup> aktivlarga (*risk-weighted assets*) nisbatan darajasini past ekanligini ko‘rsatadi.



**3.2-rasm. O‘zbekiston tijorat banklarida transaksion depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog‘i, foizda<sup>141</sup>**

«3.2-rasm shuni izohlaydiki, O‘zbekiston Respublikasi bank tizimidagi tijorat banklari depozitlarining tarkibida belgilangan ma’lum bir vaqtda talab qilib olinishi belgilangan ya’ni talab qilib olinguncha depozitlarning ulushi tahlil davrida (2019-2023 y.y)»<sup>142</sup> nisbatan yuqori bo‘lgan. Talab qilib olinadigan depozitlar nobarqaror passiv hisoblanganligi uchun ularning yuqori ulushi banklarning likvidlilik riski oqibatlarining xavfi ortadi.

Yevropa davlatlari bank amaliyotida transaksion depozitlar (talab qilib olinguncha depozitlar), birinchidan, resurs manbai hisoblanmaydi; ikkinchidan, nobarqaror passiv hisoblanadi; uchinchidan, faqat transaksion depozitlarning barqaror qoldig‘idan resurs sifatida foydalanishga ruxsat etiladi.


Respublikamizning bank amaliyotida esa, transaksion depozitlardan banklar moliyaviy resurs sifatida foydalanadi.

<sup>140</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

<sup>141</sup> Rasm muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari (Depozit va depozit sertifikatlari mablag‘i qoldig‘i) asosida tuzilgan.


<sup>142</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;





**3.3-rasm. TIF Milliy bankida transaksion depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog‘i, foizda<sup>143</sup>**

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, tahlil davrida Milliy bankda depozit bazaning etarililigini ta’minlashga muvaffaq bo‘linmagan.




**3.4-rasm. AT «Aloqabank»da transaksion depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog‘i, foizda<sup>144</sup>**

<sup>143</sup> Rasm muallif tomonidan TIF Milliy bankining mo‘ljaviy hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzilgan.


<sup>144</sup> Rasm muallif tomonidan AT «Aloqabank»ning yillik hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Mazkur 3.4-rasm ko‘rsatadiki, AT «Aloqabank»da tahlil davrida transaksion depozitlarning (on-demand deposits) brutto depozitlar hajmidagi ulushi baland bo‘lgan.



**3.5-rasm. AT «Aloqabank»da aktivlarining umumiy hajmida kreditlar va qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning salmog‘i, foizda<sup>145</sup>**

3.5-rasmdan yaqqol ko‘rish mumkinki, 2019-2023 yillarda Aloqabank aktivlarining tarkibida qimmatli qog‘oz shaklidagi aktivlar kichik ulushga ega bo‘lgan.



**3.6-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida kreditlar va qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning salmog‘i, foizda<sup>146</sup>**

<sup>145</sup> Rasm muallif tomonidan AT «Aloqabank»ning yillik hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>146</sup> Rasm muallif tomonidan [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) sayti (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki) ma’lumotlari asosida tuzilgan.

3.6-rasmdan aniq ko‘rinadiki, 2019-2023 yillarda O‘zbekiston tijorat banklari aktivlarining (*assets*) tarkibida fondli aktivlar (*securities*) juda kichik ulushga ega bo‘lgan.

Respublika banklarining daromad bazasini mustahkamlash borasidagi navbatdagi dolzarb muammo – bu aktivlarning rentabellik darajasi past va nobarqarorligidir.

Biz tomonimizdan amalga oshirilgan amaliy ma‘lumotlar tahlili ko‘rsatdiki, tadqiqot ob‘ekti bo‘lgan tijorat banklarida 2019-2023 yillarda brutto aktivlarning rentabellik darajasi past va nobarqaror bo‘lgan.

Shuningdek, brutto aktivlarning rentabelligini tahlil davrida keskin pasayish sur‘atlari kuzatilgan.

Ssudalarning daromadlilik va risk darajalari o‘rtasidagi monandlikni ta‘minlanmaganligi tijorat banklarining daromad bazasi barqarorligiga erishish yo‘lidagi navbatdagi muammodir.

Tadqiqotning 2-bobidagi tadqiqotlardan ma‘lum bo‘ldiki:

\* Asakabankda 1 so‘mlik kreditga to‘g‘ri keladigan daromad darajasi 2019-2021 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan;

\* Asakabankda kredit portfelining diversifikatsiya (*diversification*) darajasini past bo‘lganligi berilgan kredit riski diversifikatsiyasi (*credit risk diversification*) darajasini yuqori bo‘lishiga olib kelgan va ushbu holat ssudalarning daromadlilikiga nisbatan salbiy oqibatlarni «yuzaga keltirgan (*tijorat banklarining kredit portfelida sanoat kreditlarining salmog‘i 2019-2023 yillarda 62 - 71 foizgacha yuqori bo‘lgan*);

\* Asakabank ssuda portfelida sifat darajasi yomon bo‘lgan kreditlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxira ajratmalarining darajasi tahlil davrida (2019-2023 y.y) nobarqaror bo‘lgan va umume‘tirof etilgan chegaraviy darajasidan (1,0 %) baland bo‘lgan;

\* Mamlakatda kredit risk va foiz riski oqibatlarini natijasida banklar aktivlari tarkibida NPL salmog'i yuqoriligi banklarning daromad bazasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

\* Mamlakatimiz banklarining daromad bazasining barqarorligini ta'minlashda to'sqinlik qilayotgan omillardan biri bu – sof foizli marjaning (*interest margin*) me'yoriy darajasi ( $M_{s.f}=4,5\%$ ) ta'minlanmaganligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning 2-bobidagi tadqiqotimiz ko'rsatdiki:

\* AT «Asakabank»da sof foizli marjaning (*interest margin*) darajasi tahlil davrida (2019-2021y.y) noqaror bo'lgan. Shuningdek, uning me'yoriy darajasi ( $M_{s.f}=4,5\%$ ) ta'minlanmagan. Bu esa, sof foizli daromadlar (*interest income*) tebranishi bilan brutto aktivlarning tebranishi o'rtasida monandlik yo'qligini taqozo etadi;

\* AT «Asakabank»da tahlil davrida (2019-2021 y.y) foizli xarajatlar (*interest expense*) ning foizli daromadlarga (*interest income*) nisbatan darajasi yuqorilganligini namoyon etgan holda, 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 17,1 foizli punktga oshgan;

\* AT «Aloqabank»da sof foizli marjaning (*interest margin*) darajasi tahlil davrida (2019-2022 y.y)<sup>147</sup> noqaror bo'lib pasayish tendensiyasi kuzatilgan. 2021-2023 yillarda mazkur ko'rsatkichning me'yoriy darajasi ( $M_{s.f}=4,5\%$ ) ta'minlanmagan.

\*O'zbekiston tijorat banklarida fondli aktiv amaliyotlari taraqqiy etmaganligi sof foyda (*net profit*) miqdorini foizli daromadlar (*interest income*) hisobidan ko'paytirishga to'sqinlik qilyapti.

\*Xorijiy banklarning daromad bazani shakllantirish va mustahkamlash borasidagi malakasini o'rganish ko'rsatdiki, transmilliy banklar daromadlarining asosiy qismini (*min 60%*) ssudalardan (*loans*) va fondli aktivlardan (*securities*) olingan foizli daromadlar tashkil etadi.

---

<sup>147</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

O'zbekiston banklarining fondli aktivlar (*securities*) «bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarini rivojlanmaganligi, fikrimizcha, quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

\* «inflyatsiya va devalvatsiya ta'sirida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarining real qiymatini pasayayotganligi»<sup>148</sup>;

\* «tijorat banklarida balanslashmagan likvidlilik muammosining chuqurlashib ketganligi»<sup>149</sup>;

\* «tijorat banklarida barqaror moliyalashtirishning mavjud summasi bilan zarur summasi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlanmaganligi ularning likvidliliigi va to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va buning natijasida tijorat banklarining kreditlar va qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalari hajmini oshirish imkoniyati chegaralanib qoladi»<sup>150</sup>.

Mamlakat tijorat banklarining fondli aktivlar (*securities*) vositasidagi amaliyotini takomillashmaganligi, birinchidan mazkur banklarning to'lovga qobilligiga, ikkinchidan, joriy likvidliliigiga salbiy ta'sir ko'rsatadi (yuqori likvidli fondli aktivlar likvidlilikni miqdoriy o'lchashda inobatga olinadi).

Shunisi ahamiyatliki, yuqori likvidli fondli aktivlar brutto aktivlar tarkibida kichik ulushga ega bo'lsa, u holda, daromad keltirmaydigan likvidli aktivlarning brutto aktivlar tarkibidagi ulushi yuqori bo'ladi.

Jahonda taraqqiy etgan banklar tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalari ko'rsatdiki, Markaziy bank Repo bitimlari orqali banklarning fondli aktivlari (*securities*) miqdorini kengayishiga imkon yaratishi mumkin. Buning uchun esa, Hukumat qimmatli qog'ozlarining emissiya hajmi katta bo'lishi kerak. O'z navbatida, Hukumat qimmatli qog'ozlarining emissiya hajmi davlat byudjeti defitsitining darajasiga bog'liq. Chunki, milliy valyutadagi Hukumat qimmatli

---

<sup>148</sup> Majidov J.K. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlar portfellarining sifatini oshirish yo'llari. I.f.b. f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 52b.

<sup>149</sup> Gadoev S.J. Tijorat banklarida likvidlilik riskini boshqarishni takomillashtirish. I.f.b.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 47 b.


<sup>150</sup> Berdiyarov B.T O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliliigi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari. I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 73 b.

qog‘ozlarini emissiya qilish yo‘li bilan davlat byudjeti defitsitini qoplash noinflyatsion yo‘l hisoblanadi.

Shu o‘rinda qayd etish joizki, Hukumatning qimmatli qog‘ozlarining emissiya hajmini oshirish bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillar bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

- \*Hukumat qimmatli qog‘ozlarining investitsion jozibadorligi;
- \*davlat byudjeti kamomadining miqdori;
- \*davlat byudjet siyosatining ustuvorligi.

Yuqorida guvoh bo‘ldikki, mamlakat banklarining fondli aktivlar bilan amalga oshiriladigan aktiv operatsiyalari rivojlanmagan. Buning ustiga, ularning fondli aktivlar vositasidagi emission operatsiyalari ham rivojlanmagan.



### 3.7-rasm. TIF Milliy banki va AT «Asakabank»da qimmatli qog‘ozlarni sotishdan olingan pul mablag‘larining passivlar hajmidagi salmog‘i, foizda<sup>151</sup>

«Ushbu 3.7-rasmdan aniq ko‘rinadiki, 2017-2022 yillarda Milliy bank va Asakabank passivlari hisobida qimmatli qog‘oz (*securities*) shaklidagi majburiyatlar juda kichik ulushni egallagan. Bu esa, banklarning fondli majburiyatlar bilan amalga oshiriladigan»<sup>152</sup> operatsiyalarini rivojlanmaganligini ko‘rsatadi.

<sup>151</sup> Rasm muallif tomonidan TIF Milliy banki va AT «Asakabank»ning moliyaviy hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>152</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

Shu o'rinda ijobiy holat sifatida qayd etsa bo'ladiki, respublikamiz banklari 2021 yildan boshlab, xorijiy portfelli investitsiyalarni jalb etish amaliyotini yo'lga qo'yishdi. «Jumladan, «2021 yilda Ipoteka bank» AJ tomonidan 785 mlrd. so'm qiymatidagi qimmatli qog'ozlarni 16,0 foiz stavkasi bilan 3 yillik muddatga xalqaro moliya bozorida joylashtirildi»<sup>153</sup>.

Rasmiy statistika bo'yicha<sup>154</sup>, «2020 yilning 19 noyabr kuni Moliya vazirligi tomonidan umumiy hajmi 750 mln. dollar miqdoridagi suveren xalqaro obligatsiyalar ikki transhda – 10 yillik muddat bilan 555 mln. dollarda va 3 yillik muddat bilan ilk bora milliy valyutamiz - o'zbek so'mida 2 trln. so'm miqdorida London qimmatbaho qog'ozlari bozorida (London Stock Exchange) muvaffaqiyatli joylashtirildi. mazkur AQSh dollaridagi 10 yillik suveren xalqaro obligatsiyalarining dastlabki 4,25%dan 3,70%ga tushgani 2019 yilda emissiya qilingan obligatsiyalarimizning ikkilamchi bozordagi kotirovkalariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, O'zbekiston Respublikasining 5 yillik (hozirda 3 yillik) va 10 yillik (hozirda 8 yillik) suveren xalqaro obligatsiyalarining daromadlilik sezilarli darajada tushishiga sabab bo'ldi»<sup>155</sup>.

O'zbekiston Respublikasining rezident-banklarining qimmatli qog'ozlarini (*securities*) xalqaro fond birjalarida joylashtirish borasida jiddiy risklar bor. Jumladan, Xalqaro fond birjalarining listingiga mamlakatimiz banklaring hech biri kirmagan.

Shu o'rinda e'tirof etish joizki, banklar tomonidan xorijiy portfelli investitsiyalarni jalb qilish ko'lamini kengaytirishning zaruriy shartlaridan biri bo'lib, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosatni yuritishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar belgilangan: «makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va

---

<sup>153</sup> O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi. 2021 yil uchun//www.mf.uz.

<sup>154</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

<sup>155</sup> www.mf.uz

yillik inflyatsiya darajasini 2023 yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish; Davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish va 2023 yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash; iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026 yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish; mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish; respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga etkazish; 2026 yilga borib tadbirkorlik sub'ektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish»<sup>156</sup>.

O'zbekiston Respublikasining 2023 yilda qabul qilingan «Davlat qarzi to'g'risida»gi qonuniga muvofiq, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari davlat qarzi bo'yicha cheklangan miqdorlarni va davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi kelishuv doirasida xususiy sherikka beriladigan kafolatlar bo'yicha yillik limitlarni belgilaydi; davlat qarzini boshqarish strategiyasining amalga oshirilishi to'g'risidagi hisobotlarni ko'rib chiqadi; davlat qarzining holati va o'zgarishi to'g'risidagi, shuningdek davlat tomonidan jalb qilingan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishi haqidagi, shu jumladan davlat tomonidan mablag' jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarning bajarilish jarayoni hamda natijadorligi to'g'risidagi hisobotlarni ko'rib chiqadi; O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat qarzi bo'yicha cheklangan miqdorlar doirasida O'zbekiston Respublikasi nomidan mablag' jalb qilishga va davlat kafolatini berishga doir tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi; O'zbekiston Respublikasi nomidan davlat qarziga oid shartnomalarni va ularga doir qo'shimcha kelishuvlarni tuzadi yoki ularni O'zbekiston Respublikasi nomidan tuzish uchun boshqa organga vakolat beradi; davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish

---

<sup>156</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida//www.lex.uz.



tartibini tasdiqlaydi; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish uchun ustuvor yo‘nalishlarni belgilaydi; davlat qarzini boshqarish strategiyasini tasdiqlaydi va uning amalga oshirilishini nazorat qiladi; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga davlat qarzi bo‘yicha cheklangan miqdorlarni va davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi kelishuv doirasida xususiy sherikka beriladigan kafolatlar bo‘yicha yillik limitlarni belgilash yuzasidan takliflar kiritadi; davlat qarzi bo‘yicha cheklangan miqdorlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi nomidan mablag‘ jalb qilishga va davlat kafolatini berishga doir tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi; O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan tuzilgan shartnoma asosida O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining fiskal agenti sifatida davlat g‘aznachilik obligatsiyalarini joylashtirishda, ularning joylashtirilishini ro‘yxatdan o‘tkazishda, davlat g‘aznachilik obligatsiyalarining qiymatini, ular bo‘yicha foizlarni va boshqa to‘lovlarni to‘lashda, shuningdek o‘zga operatsiyalarni amalga oshirishda ishtirok etadi, davlat qarzi bo‘yicha bank operatsiyalarini tashkil etadi, davlat qarzi bo‘yicha bank operatsiyalarini tashkil etish uchun tijorat banklariga agentlik vakolatlarini beradi; O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi davlat qarzini boshqarish sohasidagi vakolatli organ bo‘lib, davlat qarzini boshqarish strategiyasi loyihasini ishlab chiqadi va uni tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga davlat qarzi bo‘yicha cheklangan miqdorlarni va davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi kelishuv doirasida xususiy sherikka beriladigan kafolatlar bo‘yicha yillik limitlarni belgilash yuzasidan takliflar kiritadi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan qabul qilingan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi nomidan mablag‘ jalb qiladi, davlat kafolatini berishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xulosa taqdim etadi, davlat kafolatini (davlat kafolatini tasdiqlovchi hujjatni) rasmiylashtiradi; Davlat tomonidan mablag‘lar jalb qilishning davlat qarzi barqarorligiga ta‘sirini baholaydi, davlat tomonidan mablag‘

jalb qilish, shuningdek davlat qarzini restrukturizatsiya qilish bo'yicha barcha muzokaralarda ishtirok etadi, davlat tomonidan jalb qilinadigan mablag'ning miqdorini, muddatini, valyuta turini, foiz stavkasining turini (*qat'iy belgilangan yoki o'zgaruvchan*), qarz vositasini va boshqa shartlarini O'zbekiston Respublikasi nomidan belgilaydi, davlat qarzi bo'yicha cheklangan miqdorlardan, davlat qarzini boshqarish strategiyasidan, davlat qarzining barqarorligidan va davlat qarzini boshqarish chog'ida yuzaga keladigan xatarlardan (bundan buyon matnda davlat qarzi bilan bog'liq xatarlar deb yuritiladi) kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi nomidan mablag' jalb qilishni yoki davlat kafolatini berishni to'xtatib turish choralarini ko'radi; davlat tomonidan mablag' jalb qilish ichki va xorijdan mablag'larni jalb qilishdan iborat bo'lib, davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish O'zbekiston Respublikasi rezidentlaridan mablag'larni jalb etish bo'lib, bu mablag'lar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi yoki qarz oluvchi-rezidentlar kreditlarini (qarzlarini) to'lashga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga keladi; davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish chet el manbalaridan (chet davlatlardan, xalqaro tashkilotlardan, xalqaro moliya institutlaridan va iqtisodiy institutlardan, chet el hukumatlarining moliya tashkilotlaridan hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa norezidentlaridan) mablag'larni jalb etishdan iborat bo'lib, bu mablag'lar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi yoki qarz oluvchi-rezidentlar kreditlarini (qarzlarini) to'lashga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga keladi; davlat tomonidan mablag' jalb qilish; O'zbekiston Respublikasi nomidan davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish va joylashtirish; O'zbekiston Respublikasi nomidan kreditlar va kredit liniyalari vositasida mablag' jalb qilish; davlat kafolati ostida mablag' jalb qilish tarzida amalga oshirilishi mumkin; davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish natijasida yuzaga kelgan O'zbekiston Respublikasining majburiyatlari yig'indisi davlat tashqi qarzidir; davlat tashqi qarzi quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin; O'zbekiston Respublikasi nomidan xalqaro obligatsiyalarni (*bundan buyon matnda suveren xalqaro obligatsiyalar deb yuritiladi*) va davlat g'aznachilik obligatsiyalarini O'zbekiston Respublikasi norezidentlari o'rtasida birlamchi tarzda joylashtirish natijasida yuzaga keladigan

majburiyatlar; O‘zbekiston Respublikasi norezidentlaridan mablag‘ni kreditlar va kredit liniyalari vositasida O‘zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilish natijasida yuzaga keladigan majburiyatlar; O‘zbekiston Respublikasi norezidentlaridan mablag‘ni qarz oluvchi-rezidentlar tomonidan davlat kafolati ostida jalb qilish natijasida yuzaga keladigan majburiyatlar; davlat qarzining miqdori yalpi ichki mahsulotning yillik prognoz ko‘rsatkichiga nisbatan oltmish foizdan oshmasligi kerak»<sup>157</sup>.

O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida nisbatan yuqori inflyatsiya darajasi Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini pasaytirishiga to‘sqinlik qilmoqda. Binobarin, bu tijorat banklarining milliy valyutadagi kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini pasaytirish imkoniyatlarini cheklaydi.

### **3.2-§. Tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash yo‘llari**

Fikrimizcha, Banklarining daromad bazasi barqarorligiga erishish imkoniyatlarini cheklab qo‘yayotgan dolzarb muammolarning echimiga erishishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Sof foydaning me‘yoriy darajasini ta‘minlash maqsadida passivlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish orqali foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan barqaror darajasini ta‘minlash, sof foydaning o‘shish sur‘ati bilan brutto aktivlarning riskka tortilgan summasining o‘shish sur‘ati o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash zarur.

Dissertasiyaning 3.1-paragrafida amalga oshirilgan tahlillar ko‘rsatdiki, tadqiqot ob‘ekti bo‘lgan tijorat banklarida 2019-2023 yillarda sof foydaning (*net profit*) me‘yoriy darajasi (*min 2,0%*) ta‘minlanmagan. Bu esa, birinchidan, mazkur davrda foizli xarajatlarning (*interest expense*) foizli daromadlarga (*interest income*) nisbatan darajasining ko‘payganligi bilan; ikkinchidan, sof foydaning miqdorini aktivlarning riskka tortilgan summasiga nisbatan juda kichikligi bilan; uchinchidan,

---

<sup>157</sup> O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Davlat qarzi to‘g‘risida//Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/836/0232-son

sof foydaning (*net profit*) o'sish sur'ati bilan aktivlarning riskka tortilgan summasining o'sish sur'ati o'rtasida monandlik ta'minlanmaganligi bilan izohlanadi.

**3.1-jadval**

**AT «Asakabank» va AT «Aloqabank»da sof foydaning miqdori, mlrd. so'm<sup>158</sup>.**

Bank nomi	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.
AT «Asakabank»	166	340	100	73	150
AT «Aloqabank»	200	170	107	228	607

«Mazkur 3.1-jadval ko'rsatadiki, AT «Asakabank»da tahlil davrida (2019-2023 y.y) sof foydaning miqdori nobarqaror bo'lgan holda, 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 16 mlrd.so'mga ya'ni 10 foizga kamaygan.

3.1-jadval ko'rsatadiki, AT «Aloqabank»da sof foydaning miqdori tahlil davrida (2019-2022 yy.) nobarqaror bo'lgan. 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 407 mlrd.so'mga ya'ni 300 foizga oshganini ko'rishimiz mumkin.

2. Tijorat banklari kreditlarining daromadlilikini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning me'yoriy darajasiga erishish ( $R_{r.c}=1,0\%$ ;»<sup>159</sup>  $S_{s.f}=1,25\%$ ), kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning jami daromadlar hajmidagi salmog'ining me'yoriy darajasini (*min 60%*) ta'minlash yo'li bilan kreditlarning barqaror daromadlilik darajasiga erishish lozim.

Dissertasiyadagi amaliy ma'lumotlar tahlili «ko'rsatdiki, mamlakatimiz tijorat banklari kreditlarining daromadliliigi va risk oqibatlarini o'rtasidagi monandlikka erishilmaganligi ularning daromad bazasi barqarorligiga nisbatan salbiy xavflarni tug'ulishini yuzaga keltirmoqda»<sup>160</sup>. Xususan, tadqiqot ob'ekti

<sup>158</sup> Jadval muallif tomonidan AT «Asakabank» va AT «Aloqabank»ning moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>159</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

<sup>160</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

bo'lgan tijorat banklarida tahlil davrida (2019-2023 y.y) kreditlarining daromadlilik darajasi pasayish sur'atlarini namoyon etgan. Tahlil davrida (2019-2023 y.y) ular kredit portfelining diversifikatsiya (*diversification*) darajasini past ekanligi ma'lum bo'ldi, kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira (*reserve*) ajratmalari ko'rsatkichi umume'tirof etilgan chegaraviy darajasidan ( $Rr.c=1,0\%$ ) yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi va tijorat banklari ssudali aktivlari tarkibida NPLning salmog'i yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, tahlil davrida mamlakatimiz bank tizimida yalpi aktivlar ulushida ssudali aktivlarning (*loans*) ulushi yuqoriligi ma'lum bo'ldi.

Bizning fikrimizcha, daromad bazasining optimal darajalariga bankning kredit portfeli bilan bog'liq rentabellik va riskni tavsiflovchi ko'rsatkichlarning standart darajalariga erishish orqali erishish mumkin. Daromadlar bazasining barqarorligini ta'minlash uchun birinchi navbatda kredit rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, xususan, hozirgi vaqtda yuqori tavakkal deb tan olingan xavf toifalarini aniqlash kerak. Ushbu xavf darajalariga asoslangan stsenariylarni ishlab chiqish va stress testlarini o'tkazish ham ushbu jarayonda muhim qadamlardir.

Fikrimizcha, tijorat banklari kreditlarining daromadlilik va risklilikini tavsiflovchi ko'rsatkichlar guruhi quyidagi ko'rsatkichlardan tashkil topishi kerak:

A. Kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira (*reserve*) ajratmalari darajasi ko'rsatkichi.

Ushbu ko'rsatkichni Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining ekspertlari tomonidan tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan variantini olish va uning me'yoriy darajasini ( $Rr.c=1,0\%$ ) qabul qilish kerak.

B. Kreditlarning (*loans*) o'sish sur'ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning (*interest income*) o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik ko'rsatkichi.

Mazkur ko'rsatkich kreditlarning daromadlilikini bevosita ko'rsatgan holda, ushbu daromadlilikka kredit riskining ta'sirini bilvosita ko'rsatadi.

Kreditlarning o'sish sur'atini kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lmashini ta'minlash ushbu ko'rsatkichning me'yoriy mezonini hisoblanadi.

V. Muddati o'tgan kreditlarning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy darajasi ko'rsatkichi.

Ushbu ko'rsatkichni Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining ekspertlari tomonidan tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan variantini olish va uning me'yoriy darajasini (5,0 %) qabul qilish kerak.

G. Sof foizli spred ko'rsatkichi ( $S_{s.f}$ ).

Mazkur ko'rsatkich kreditlardan (*loans*) olingan foizli daromadlar (*interest income*) bilan muddatli depozitlarga to'langan foizli xarajatlar (*interest expense*) o'rtasidagi bog'liqlikni aniq ko'rsatadi va uning me'yoriy darajasi ( $S_{s.f}=1,25\%$ ) bo'lib, 1,25% hisoblanadi.

Tijorat banklari kreditlarining (*loans*) daromadlilikini va risklilikini tavsiflovchi ko'rsatkichlar majmuini shakllantirilgandan so'ng, har bir ko'rsatkichning me'yoriy darajasiga erishish strategiyasini ishlab chiqishi kerak. Masalan, kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira (*reserve*) ajratmalari darajasining me'yoriy darajasiga ( $R_{r.c}=1,0\%$ ) erishish quyidagi ikki omilga bog'liq:

\*tasniflangan kreditlar tarkibining tebranishi;

\*ehtimoliy yo'qotishlar bo'yicha zaxira ajratmalari summasining o'sish sur'ati bilan brutto aktivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi nisbatning tebranishi.

Kreditlarning (*loans*) o'sish sur'ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning (*interest income*) o'sish sur'ati o'rtasidagi monandlik ko'rsatkichining me'yoriy mezoniga erishish quyidagi omillarga bog'liq:

\*netto ssudalar salmog'ining o'zgarishi;

\*ssudalar bo'yicha hisoblab yozilgan foizlarning miqdori bilan haqiqatda undirilgan foizlar miqdori o'rtasidagi nisbatning tebranishi;

\* muddati o'tgan kreditlar bo'yicha hisoblangan va balansdan chiqarilgan muddati o'tgan foizlar miqdorining o'zgarishi.

Muddati o'tgan kreditlarning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy darajasini hisoblashda muddatida qaytmagan barcha kreditlar, shu jumladan, sud jarayonidagi kreditlar hisobga olinishi va uning darajasi 5,0 foizga etishi bilan uning 2,0-2,5 foizi bankning balansidan chiqarilishi kerak. 2,0-2,5 foiz deyishimizning sababi shundaki, muddati o'tgan kreditlarning jami kredit portfeliga nisbatan 3,0 foizdan oshmaydigan darajasi kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning normal darajasi hisoblanadi.

Sof foizli spred ko'rsatkichining me'yoriy darajasini ( $S_{s.f}=1,25\%$ ) ta'minlash quyidagi omillarga bog'liq:

- \*kreditlarning foiz stavkalarini o'zgarishi;
- \*depozitlarning foiz stavkalarini o'zgarishi;
- \*brutto kreditlarning daromadlilikini o'zgarishi;
- \*depozitlarga to'langan foizlarning miqdorini o'zgarishi;
- \*foiz to'lanadigan depozitlar miqdorining o'zgarishi.

\*muddati o'tgan kreditlar va muddati o'tgan foizlarning bankning balansidan chiqarilgan miqdorining o'zgarishi.

3. Tijorat banklari yalpi daromadi tarkibida investitsiya operatsiyalaridan olinadigan foizli daromadlarning barqaror ulushini ta'minlash yo'li bilan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olinadigan daromadlarning yillik o'sish sur'atining maqbul chegaraviy darajasiga ( $MD=73\%-75\%$ ) erishish kerak.

Tijorat banklarining kredit (*loans*) va investitsiya (*investment*) operatsiyalaridan olinadigan foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'ining yuqori va barqaror darajasiga erishish uchun, birinchidan, kreditlarga (*loans*) va qimmatli qog'ozlarga (*securities*) qilingan investitsiyalarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ining barqarorligiga erishish kerak; ikkinchidan, kredit (*loans*) va investitsiya (*investment*) portfellarining diversifikatsiya mezonlariga qat'iy amal qilish lozim; uchinchidan, kreditlardan olingan foizli daromadlarning (*interest income*) o'sish sur'ati bilan yalpi daromadning o'sish sur'ati o'rtasidagi monandlikni ta'minlash zarur; to'rtinchidan, qimmatli qog'ozlarga (*securities*)

qilingan investitsiyalarning o'sish sur'ati bilan yalpi daromadning o'sish sur'ati o'rtasidagi monandlikni ta'minlash lozim.

Fikrimizcha, mamlakatimiz tijorat banklari ssuda portfelining (*loan portfolio*) diversifikatsiya darajasini oshirish uchun quyidagi choralar ko'rilishi kerak:

– kredit portfelini shakllantirishda mavjud soha va tarmoq xususiyatidan kelib chiqqan holda, bitta soha/tarmoqqa joylashtiriladigan ssudali aktivlar miqdori bankning kredit portfelidagi (*loan portfolio*) ulushini 15 foizdan oshib ketmasligini «Kredit siyosati»da portfelning asosiy diversifikatsiya mezoni sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq;

– iqtisodiyot tarmoqlarida prognozlar hisobiga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tebranishlarni hisobga olgan holda kredit portfelini diversifikatsiya darajasi bo'yicha belgilangan 15 foizli mezonga nisbatan 5 foizgacha tebranishni inobatga olishi lozim;

– har bir tarmoq vazirligi bilan ushbu tarmoq korxonalariga berilgan kreditlarning ta'minoti, kreditlarning foiz stavkalarini bir qismini qoplab berish, davlat tomonidan subsidiyalanadigan kreditlarning hajmi bo'yicha aniq kelishuv bitimini tuzish lozim;

– har bir tarmoq sub'ektlariga joylashtirilgan ssudali aktivlarning umumiy summasiga nisbatan ulardan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining yuqori me'yoriy chegarasini belgilab qo'yish lozim.

Xalqaro bank amaliyotida qimmatli qog'ozlar portfelining diversifikatsiya darajasini ta'minlash tijorat banklari faoliyatidagi fond riskini boshqarishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aynan, Bazil qo'mitasini banklarining stavkali qimmatli qog'ozlar (*securities*) bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalari bo'yicha talablari dunyoning ko'plab mamlakatlarida, shu jumladan, mamlakatimiz bank tizimining nazorati bo'yicha prudensial talablar sifatida qabul qilingan va banklarning qimmatli qog'ozlar portfelini (*securities portfolio*) diversifikatsiya qilishda muhim o'rin egallaydi.

4. Belgilangan stavkaga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha sof foizli marjaning me'yoriy darajasini ta'minlash



( $M_{s.f}=4,5\%$ ), lahzali likvidlilik koeffitsenti bo'yicha me'yoriy darajasiga ( $K_{l.l}=10,0\%$ ) erishish orqali banklarning yalpi daromadi tarkibida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olingan daromadlarning yuqori va barqaror darajasini ta'minlash lozim.

Dissertatsiyaning 3.1-paragrafida amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki, tahlil davrida (2019-2023 y.y) fondli aktivlarga (*securities*) qilingan investitsiyalar respublikamiz tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida juda kichik ulushga ega. Bu esa, tijorat banklarining daromad bazasini optimal darajasiga erishish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Fikrimizcha, tijorat banklarining yuqori likvidli fondli aktivlarga (*highly liquid securities*) qilinadigan investitsiyalari hajmini oshirish uchun, birinchidan, qat'iy belgilangan qimmatli qog'ozlardan olinadigan foizli daromadlarning darajasi bilan ushbu investitsiyalarni moliyalashtirish uchun jalb qilinadigan resurslar bo'yicha foizli xarajatlar o'rtasidagi optimal foizli marjani ta'minlash kerak; ikkinchidan, lahzali likvidlilik koeffitsienti bo'yicha me'yoriy talab bajarilgan sharoitda, so'mdagi «Nostro» vakillik hisobraqamidagi ortiqcha pul mablag'larini Hukumatning qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish lozim; uchinchidan, tijorat banklarining yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga (*highly liquid securities*) qilingan investitsiyalardan olgan daromadlarini foyda solig'iga tortiladigan daromadlar bazasidan chegirish kerak.

Tijorat banklarida sof pul oqimining barqarorligini ta'minlash uchun, birinchidan, tranzaksion depozitlarning faqat kamaymaydigan qoldig'idan kredit operatsiyalari va investitsion operatsiyalarni moliyalashtirish manbai sifatida foydalanish zarur; ikkinchidan, kreditlardan olinadigan foizli daromadlar bilan moliyalashtirish manbai sifatida jalb qilingan mablag'larga (*depozit, kredit, qarz va boshqalar*) to'lanadigan foizlar o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblikni ta'minlash lozim.

Shuni alohida e'tiborga olish lozimki, xorijiy banklardan va xalqaro moliya institutlaridan jalb qilingan moliyaviy manbalarning ko'pgina qismi suzuvchi stavkada jalb qilinganligi sababli ular bo'yicha foizli xarajatlarni aniq belgilab

olishning imkoniyati mavjud emas. Shu sababli, mazkur manbalarning foiz to'lovlari miqdorini rejalashtirish uchun etakchi valyutalardagi kreditlarning foiz stavkalarini tebranishi bo'yicha ekspertlar tomonidan qilingan prognozlardan (*forecast*) foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Dissertasion tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan tahlillarning xulosasiga binoan, respublikamiz bank tizimida foizli daromadlar bilan foizli xarajatlar o'rtasidagi barqaror hamda optimal monandlik ta'minlanmagan.

Shuningdek, mamlakatimiz tijorat banklarida fondli aktivlarga qilingan investitsiyalardan olingan dividendlarning foizsiz daromadlar hajmidagi salmog'i kichik bo'lgani holda, valyuta operatsiyalaridan (*revaluation*) ko'rilgan zararlarning foizsiz xarajatlarning hajmidagi salmog'i yuqoridir.

E'tirof etish joizki, tijorat banklarining stavkali qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olinadigan dividend va foiz ko'rinishidagi daromadlari miqdorini oshirish uchun, stavkali qimmatli qog'ozlarga qilinadigan investitsiyalarning risk darajasini to'g'ri baholash va menejmentini rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Qimmatli qog'ozlar (*securities*) bilan bog'liq bo'lgan investitsion (*investment*) amaliyotlarning risk oqibatlari xavfi yuqori ekanligi, qimmatli qog'ozlarning investitsion ommaboblilik mavqei past ekanligi, banklarda moliyaviy manbalarga muhtojlik muammosining mavjudligi, shuningdek, banklarining «Nostro» vakillik hisobraqamlarida moliyaviy manbalarning difitsitining ta'siri banklarning qimmatli qog'ozlar (*securities*) bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarini ommabopligini oshirish imkoniyatini cheklamoqda.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar (*securities*) bo'yicha to'liq va ishonchli statistik ma'lumotlar bazasi mavjud emas. Bu esa, taraqqiy etgan mamlakatlar bank amaliyotida qimmatli qog'ozlar portfelini menejmentida keng qo'llanilayotgan zamonaviy usullardan foydalanish imkonini cheklaydi.

Shuningdek, respublika tijorat banklarida hozirga qadar qimmatli qog'ozlar portfelini (*securities portfolio*) joriy kuzatish muammosi echimini topmagan.

Fikrimizcha, mamlakatimiz bank tizimida qimmatli qog'ozlarning bozor baholarini (*market price*) tebranish tendensiyalarini aniqlash, kuzatish va monitoring qilish imkonini beradigan indikatorlar tizimi shakllantirilmagan.

Taraqqiy etgan mamlakatlar bank amaliyotida, «investitsiya portfelini boshqarish jarayonida qimmatli qog'ozlarning birja baholari dinamikasini prognoz qilishda texnik va fundamental tahlil indikatorlaridan keng foydalanilmoqda»<sup>161</sup>.

Birja (*stock market*) savdolarining algoritmik jarayonlarini joriy qilinishi ham fondli aktivlarning bozor baholarini prognoz qilishni sifat jihatdan yangi darajaga olib chiqa olmadi. Buning sababi shundaki, qimmatli qog'ozlarning bozor baholariga (*market price*) ko'p sonli omillar ta'sir qiladi va har omilning ta'sir darajasi turli davriy oraliqlarda turlicha bo'ladi.

«Birja ekspertlari tahlilchilarining ko'pchiligi moliya bozorida yirik kapital egalari xatti-harakatlarini monitoring qilish asosida qimmatli qog'ozlarning bozor baholarini o'zgarishini prognoz qilish sifatini oshirish mumkin, deb hisoblaydi»<sup>162</sup>.

5. Hissali ishtirok etish shaklidagi investitsiyalardan olinadigan daromadlarning me'yoriy darajasiga erishish ( $Do.a=15\%$ ) va har bir xorijiy valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyasining yuqori me'yoriy darajasini ta'minlash yo'li bilan ( $max\ 10,0\%$ ) foizsiz daromadlar va foizsiz xarajatlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

«Tijorat banklarining foizsiz daromadlari tarkibida oddiy aksiyalarga (*common stock*) qilingan dividendlar va valyuta operatsiyalaridan olingan daromadlar muhim o'rin tutadi»<sup>163</sup>.

Tijorat banklarining dividend shaklida oladigan daromadlari miqdorini ko'paytirish uchun oddiy aksiyalarning ko'p omilli tahlilini takomillashtirish kerak.

---

<sup>161</sup>Валрас Л. Элементы чистой политической экономии / Л. Валрас — М.: Изограф, 2000. — 448 с.

<sup>162</sup>Верин Х. Р. Микроэкономика. Промежуточный уровень: современный подход / Х. Р. Верин; пер. с англ. под ред. Н. Л. Федоровой. — М.: ЮНИТИ, 1997. - 767 с.

<sup>163</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

Fundamental va texnik tahlilni emitentlarning moliyaviy ahvolini tahlil va monitoring qilishda keng qo'llash, aksiyalarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan risklar oqibatlari xavfini kamaytirish imkonini beradi.

Banklarning etarli bilim va malakaga ega bo'lgan xodimlari fundamental va texnik tahlilni qila olishadi.

G'arb mamlakatlari bank amaliyotida, «aksiyalar portfelini boshqarishning svopingga asoslangan quyidagi uch shaklidan keng foydalanilmoqda:

\*sof daromadni tanlab olish shakli;

\*almashtirib qo'yish shakli;

\*svop sektori shakli<sup>164</sup>».

Qayd etish joizki, tijorat banklari dividendlar to'lashning qoldiq prinsipidan foydalanishni afzal ko'rishadi. Afzalligi, dividend miqdorini sof foydaga nisbatan qat'iy belgilash usulida dividendlar (*dividends*) summasini keskin oshib ketish ehtimoli yuqoridir.

«Fikrimizcha, tijorat banklari valyuta operatsiyalari (*currency operations*) daromadliligining barqarorligini ta'minlash maqsadida, birinchidan, tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi «Nostro» vakillik hisobvaraqlarida vaqtinchalik bo'sh turgan valyuta mablag'larini yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarni sotib olish lozim; ikkinchidan, valyuta zaxiralarining diversifikatsiya»<sup>165</sup> (*diversification*) darajasini ta'minlagan holda, har bir amaliyot kunning so'nggida xorijiy valyutalardagi qisqa va uzun pozitsiyalar o'rtasidagi monandlikni ta'minlash kerak; uchinchidan, xorijiy valyutalarda amalga oshiriladigan amaliyotlarga limit belgilashda asosiy e'tiborni xorijiy valyutaning nominal almashuv kursining barqarorligiga va bank kontragentning likvidliligiga qaratish lozim.

Yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarning daromadlilik darajasi nisbatan past bo'lsada, bankning likvidlilik bo'yicha belgilangan me'yoriy talablarni bajarishida hamda likvidlilik va valyuta riski oqibatlarini xavfini cheklash imkonini beradi.

---

<sup>164</sup> Hirschey, M. & Nofsinger, J. Investments: analysis and behavior. McGraw-Hill Education, 2008. – 237 r.

<sup>165</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

Tijorat banklari daromad bazasining barqarorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning me'yoriy darajasini ta'minlashda, fikrimizcha, asosiy e'tibor quyidagilarga qaratilishi lozim:

\*sof foizli daromadning o'sish sur'ati bilan bank brutto aktivlarining o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikning mavjudligi yoki mavjud emasligi;

\*sof foydaning o'sish sur'ati bilan bank aktivlarining riskka tortilgan summasini o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikning mavjudligi yoki mavjud emasligi;

\*talab qilib olinguncha hisobvaraqlaridagi depozitlarning o'sish sur'ati bilan brutto depozitlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikning mavjudligi yoki mavjud emasligi;

\* talab qilib olinguncha hisobvaraqlaridagi depozitlarning barqaror qoldig'ini tebranish sur'ati.

### **Uchinchi bob bo'yicha xulosa**

Respublikamiz tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

\* mamlakatimiz banklarida sof foydaning riskka tortilgan aktivlar summasiga nisbatan darajasining (*min 2%*) past ekanligidir;

\* O'zbekiston Respublikasi bank tizimidagi tijorat banklari depozitlarining tarkibida talab qilib olinguncha hisobvarag'idagi depozitlarning ulushi tahlil davrida (2019-2023 y.y) nisbatan yuqori bo'lgan. Talab qilib olinadigan hisobvarag'idagi depozitlar barqaror moliyaviy manba hisoblanmaganligi uchun ularning yuqori ulushi likvidlilik riski oqibatlari xavfi ortishiga sababchi bo'ladi;

\* aktivlarning rentabellik darajasini (*ROA*) past va beqarorligi;

\* Ssudalarning daromadlilik va risk oqibatlarining darajalari o'rtasidagi monandlikni ta'minlanmagan;

\* O'zbekiston tijorat banklari brutto kreditlari hajmida muammoli kreditlarning ulushi tahlil davrida (2021-2023 y.y) baland bo'lgan;

\*banklarda sof foizli marjaning me'yoriy darajasiga erishilmaganligi ular aktivlarining daromadlilikini talab darajasida emasligini ko'rsatadi;

\*O'zbekiston tijorat banklarining fondli aktiv operatsiyalarini rivojlanmaganligi sof foyda miqdorini foizli daromadlar hisobidan ko'paytirishga to'sqinlik qilyapti;

Tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarni hal qilishga qaratilgan quyidagi ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1 Tijorat banklarida sof foydaning me'yoriy darajasini ta'minlash maqsadida passivlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish orqali foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan barqaror darajasini ta'minlash, sof foydaning o'sish sur'ati bilan brutto aktivlarning riskka tortilgan summasining o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozim.

2. Tijorat banklari kreditlarining daromadlilikini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning me'yoriy darajasiga erishish ( $R_{r.c}=1,0\%$ ;  $S_{s.f}=1,25\%$ ), kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning jami daromadlar hajmidagi salmog'ining me'yoriy darajasini (*min 60%*) ta'minlash yo'li bilan kreditlarning barqaror daromadlilik darajasiga erishish lozim.

3. Tijorat banklari yalpi daromadi tarkibida investitsiya operatsiyalaridan olinadigan foizli daromadlarning barqaror ulushini ta'minlash yo'li bilan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olinadigan daromadlarning yillik o'sish sur'atining maqbul darajasi ( $MD=73\%-75\%$ ) chegarasiga erishish lozim.

4. Belgilangan stavkaga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha sof foizli marjaning me'yoriy darajasini ta'minlash ( $M_{s.f}=4,5\%$ ), lahzali likvidlilik koeffitsienti bo'yicha me'yoriy darajasiga ( $K_{l.l}=10,0\%$ ) erishish orqali banklarning yalpi daromadi tarkibida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olingan daromadlarning yuqori va barqaror darajasini ta'minlash lozim.

5. Hissali ishtirok etish shaklidagi investitsiyalardan olinadigan daromadlarning me'yoriy darajasiga erishish ( $Do.a=15\%$ ) va har bir xorijiy

valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyasining yuqori me'yoriy darajasini ta'minlash yo'li bilan (*max 10,0%*) foizsiz daromadlar va foizsiz xarajatlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozim.

## XULOSA

Dissertatsion tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tijorat banklarining daromad bazasini shakllantirish va mustahkamlash bo'yicha quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

1. Iqtisodchi olimlarning tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash xususidagi quyidagi ilmiy-nazariy qarashlari hozirgi zamon bank amaliyoti uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi:

\* kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning jami daromadlar hajmidagi salmog'ining me'yoriy darajasini (*min 60%*) ta'minlash yo'li bilan kreditlarning barqaror daromadlilik darajasiga erishish kerak;

\* belgilangan stavkaga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha sof foizli marjaning me'yoriy darajasini ta'minlash ( $M_{s.f}=4,5\%$ );

\* mamlakatimiz tijorat banklari aktivlari tarkibida daromad keltirmaydigan yoki daromadlilik darajasi past bo'lgan (*kassali aktivlar, asosiy vositalar jumladan - bino inshootlar, avto mashinalar, undan tashqari bank faoliyatiga taalluqli bo'lmagan asosiy vositalar, qaram xo'jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalar*) aktivlar hajmining yuqoriligini oldini olish kerak;

\* bank mahsulotlarini ishlab chiqish va raqamlashtirish ommabopligini oshirish menejmenti hisobiga ya'ni aktivlarni qulay joylashtirishda majburiyatlar muddatlarini optimal darajasiga erishishni o'zida mujassam etgan ko'rsatkichlardan biri bu, sof foizli marja ko'rsatkichi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichni me'yoriy darajasiga erishishda banklar o'zining bosh maqsadlaridan biri sifatida yondashib, biznes-reja ko'rsatkichlarida qayd etgan holda barcha risklarni hisobga olib chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va quyidagilarni o'zida mujassam ettirish:

\*yangi bank mahsulotlarini ishlab chiqish;

\*bank mahsulotlarining tan-narxini pasaytirish yo'llarida muntazam izlanishlar olib borish;

\*aktivlarni joylashtirishni va qaytimini hozirgidanda bir qadam olinni ko'zlab raqamlashtirish;



\*mobil ilovalar orqali bank xizmatlarini ko'rsatish safatini yaxshilashni IT riski oqibatlarini hisobga olgan holda muntazam ravishda takomillashtirib borish lozim;

\*banklarning daromad bazasini barqarorligini optimal darajasiga erishishda quyidagi zaruriy shartlarni ta'minlashi zarur, bankning mijozlar oldidagi reputatsiyasini oshirish, bank imidjiga ta'sir qilayotgan va ta'sir qilinishi kutilayotgan omillarni oldindan prognoz qilish va zaruriy choralar ko'rish, bank aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda uzilishlar kuzatilmasligini oldini olish va bozor narxlari ustidan monitoring olib borish, aktivlarni joylashtirishda jalb qilingan resurslarning foiz stavkalari hamda ularning qaytarish muddatlarini hisobga olgan holda qulay joylashtirish, bankning balanslashmagan likvidlilik riski oqibatlarini stress testlash hisobiga prognoz qilgan holda hamkor banklar oldida o'z pozitsiyasini yomonlashishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi;

\*banklar kreditlarining (*loans*) daromadlilik bevosita ta'sir qiluvchi risklarni (*likvidlilik riski, foiz riski, kredit riski va IT riski*) oqilona boshqarish sifatiga bog'liq;

\*daromadlar, o'z kapitali hisobidan olinadigan foydadan iborat bo'ladi degan xulosalar har doim ham to'g'ri emas. Chunki, uzoq muddatli samarani mo'ljallagan bank mulkdorlari innovatsiyalarni bank faoliyatiga joriy qilish orqali joriy foydaning ma'lum bir qismi kamayishi mumkin;

\* banklar majburiyatlarining joylashtirgan aktivlariga nisbatan bozor bahosining oshishi foizli xarajatlar hajmining oshishiga sabab bo'ladi va sof foyda miqdorini kamaytiradi, bu esa, pirovard natijada, kapital rentabelligining me'yoriy darajasiga ( $ROE = \min 15\%$ ) erishishga to'sqinlik qiladi;

\* «bank mahsulotlarini (*produktlari*) marketingini samarali boshqarish hisobiga olingan daromadlarning miqdori hamda sifati banklarining sof foydasini barqarorligini belgilashda tayanch omil hisoblanadi; ikkinchidan, banklarining daromadlari sifatini (*quality*) o'zida namoyon etuvchi asosiy ko'rsatkich bo'lib»<sup>166</sup>,

---

<sup>166</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

hisoblab yozilgan daromadlarni qilingan xarajatlarga nisbatini ko'zda tutadi; uchinchidan, daromad olish imkoniyati mavjud bo'lgan aktivlarning o'sish sur'ati bilan daromad olish imkoniyati mavjud bo'lgan aktivlardan olingan daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi monandlikning ta'minlanmaganligi sof foydaning barqarorligini ta'minlashga to'sqinlik qiladi;

\*tijorat banklari kapitalining rentabellik darajasini kapitalning etarliligini kamaytirish evaziga oshirishning iloji yo'q. Bu esa, banklararo raqobatning kuchli ekanligi bilan izohlanadi. Shu boisdan, kapitalga to'g'ri keladigan foyda me'yorini oshirishning ishonchli imkoniyati bo'lib, aktivlarning qaytimi darajasiga erishish.

2. Tijorat banklarining daromad bazasini baholash uslubiyotlarining qiyosiy tahlili ko'rsatdiki:

\*bank sohasida yuksak natijalarga erishgan, dunyoda etakchilik qilayotgan mamlakatlarning bank amaliyotida, shu jumladan, mamlakatimizning bank tizimi sohasida ham, ularning daromad bazasi sifatining barqarorligini baholashda, asosan, uchta metodikadan foydalanilmoqda: AQSh nazorat organlari tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan «CAMELS» reyting tizimi; Xalqaro valyuta fondi ekspertlari tomonidan tadqiq etilgan tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan metodika; Jahon banki guruhiga kiruvchi Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banking tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan baholash metodikasi;

\* «CAMELS» reyting tizimida, «ijobiy (1 va 2) reyting baholariga ega bo'lgan banklarida daromadlar kutilgan va ehtimoliy kutilayotgan xarajatlarni qoplash uchun etadi; Lekin, reyting baholari yuqoridagiga nisbatan past bo'lgan (3 va 4) banklarda daromadlar kutilgan va ehtimoliy kutilayotgan xarajatlarni qoplash imkoniyatiga ega bo'lmaydi; Buning ustiga, ushbu banklarda regulyativ kapital miqdorining kamayib borishi kuzatiladi»<sup>167</sup>;

\* «CAMELS» reyting tizimida, «reyting bahosi 1 va 2 bo'lgan tijorat banklarida likvidlilik darajasi yuqori bo'lib, moliya bozorlaridan resurslar ola oladi; reyting bahosi 3 ga teng bo'lgan banklarda yuqori likvidli aktivlar summasi

---

<sup>167</sup> Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

majburiyatlarni qoplashga etmaydi va balanslashmagan likvidlilik muammosi mavjud»<sup>168</sup>;

\*XVFning banklar daromadini baholash metodikasida, «tijorat banklarining daromad bazasi barqarorligini baholashda qoʻllaniladigan muhim koʻrsatkichlar mavjud: kapitalning daromadlilik; sof daromadning kapitalga nisbatan darajasi; ochiq valyuta pozitsiyasining kapitalga nisbatan darajasi; sof foizli daromadning aktivlarning oʻrtacha miqdoriga nisbatan darajasi; muammoli kreditlarning brutto kreditlarga nisbatan darajasi; sof foizli daromatlarning yalpi daromadga nisbatan darajasi; foizsiz xarajatlarning yalpi daromadga nisbati»<sup>169</sup>;

\*Jahon banki sinfiga kiruvchi Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankinging uslubiyotida, «tijorat banklarining daromad bazasi barqarorligini baholashda qoʻllaniladigan muhim koʻrsatkichlar mavjud:

\*sof foydaning brutto aktivlarga nisbatan darajasi;

\*sof foydaning regulyativ kapitalga nisbatan darajasi;

\*foizsiz xarajatlarning yalpi daromadga nisbatan darajasi;

\*sof foydaning aktivlarning riskka tortilgan summasiga nisbatan darajasi;

\*kreditlardan olingan foizli daromadlarning brutto kreditlarga nisbatan darajasi;

\*berilgan kreditlardan koʻriladigan zararlarni qoplashga moʻljallangan zaxira ajratmalarining tijorat banklari aktivlarining oʻrtacha miqdoriga nisbatan darajasi;

\*muammoli kreditlarning portfeldagi chegaraviy darajasi»<sup>170</sup>.

\* «Bazel qoʻmitasining yangi Bazel-III deb nomlanuvchi standartida tijorat banklariga nisbatan nazorat boʻyicha yangi prudensial meʼyorlarni likvidlilikni qoplash meʼyori, barqaror moliyalashtirish meʼyori, kontrsiklik buferi boʻyicha meʼyoriy talab, kapitalning himoyaviy konservatsiya buferi»<sup>171</sup>ni kiritilganligi

---

<sup>168</sup> Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

<sup>169</sup> Хасянова, С. Ю. О системе отсечки финансовой устойчивости банковского сектора//Финансы и кредит. – 2012. – № 12. – С. 24–25.

<sup>170</sup> Institute for Economic Development. The World Bank, 1818 N Sreet, N.W., Washington, D.C., 2020.

<sup>171</sup> Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems-Basel-III, 2010. <http://www.bis.org/publications>.

tijorat banklarida foyda miqdorini kamayishiga olib keldi, biroq, tijorat banklari kapitalining etarililigiga nisbatan talablarning oshirilganligi ularning to'lovga qobillik darajasini oshishiga olib keldi.

3. Jahonda bank sohasida etakchilik qilayotgan, «bank faoliyati reytingida yuksak o'rinlarni egallab turgan banklarining daromad bazasini mustahkamlash bo'yicha tajribasining tahlili ko'rsatdiki:

\* «Bank of America» bankining sof foizli daromadlarining (*interest income*) miqdori 2019-2021 yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan»<sup>172</sup>;

\* «Bank of America» bankida brutto kreditlarning (*brutto loans*) miqdori tahlil davrida (2020-2023 y.y) o'sish sur'atiga erishgan holda, mazkur ssudalarning o'sish jarayoni 2023 yilda 2019 yilga nisbatan sezilarli miqdorda oshgan. Bu esa, ssuda aktivlarining miqdorini o'sishi daromadli aktivlarni ta'minlash jihatidan yaxshi holat hisoblanadi. Sababi, ssudali aktivlar bank aktivlarida yuqori ulushga egaligidir;

\* «Deutsche Bank» sof foydasining miqdori tahlil davrida (2020-2022 y.y) yuksalganligini (*increasing*) ko'rishimiz mumkin, 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 767 mln.evroga ya'ni 13.5 foizga kamaygan;

\* «Deutsche Bank ssudalarining daromadlilik darajasi tahlil davrida (2019-2023 y.y) nobarqaror bo'lgan. 2023 yilda 2019 yilga nisbatan yuqori sur'atda (2,29 f.p.) o'sgan;

\* Paribas bank aktivlarining rentabellik darajasi (*ROA*) 2019-2023 yillarda barqaror bo'lgan holda kapitalining rentabellik darajasi (*ROE*) 2020-2023 yillarda oshish sur'atlarini namoyon etgan;

\* Paribasbankda sof foizli marjaning darajasi 2019-2023 yillarda nobarqaror bo'lgan, buning ustiga 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 0,3 foizli punktga pasaygan;

---

<sup>172</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

\* Paribas bankda foizli daromadlar (*interest income*) miqdori 2019-2021 yillarda pasayish sur'atlarini namoyon etgani holda, 2021-2023 yillarda o'sish sur'atlarini namoyon etgan;

\* Paribas bankda kreditlarning (*loans*) daromadlilik darajasi 2019-2021 yillarda kamayish sur'atlarini namoyon etgani holda, 2021-2023 yillarda o'sish sur'atlarini namoyon etgan»<sup>173</sup>;

\* Paribas bankda fondli aktivlarning daromadlilik darajasining barqarorligi 2021, 2022 va 2023 yillarda kuzatilgan;

4. Mamlakat tijorat banklarining daromad bazasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning tahlili ko'rsatdiki:

\* «AT «Asakabank»da jami daromadlar (*revenue*) tarkibida kreditlardan olingan foizli daromadlarning (*interest income*) miqdori 2021-2023 yillarda o'sishi kuzatilgan bo'lib 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 2 004 mlrd.so'm (216 f.p) oshgan;

\*AT «Asakabank»da daromadlarning (*revenue*) miqdori tahlil davrida (2021-2023 y.y) o'sishi kuzatilgan;

\*AT «Asakabank»ning umumiy daromadi tarkibidan kreditlardan olingan foizli daromadlarning ulushi tahlil davrida»<sup>174</sup> (2023-2019 y.y) nobarqaror bo'lgan holda 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 0,8 foizli punktga pasaygan. Bu esa, ushbu davrda foizsiz daromadlarning o'sishi hisobiga yuz bergan;

\*Asakabank ssuda portfelida sifat darajasi yomon bo'lgan kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira ajratmalarining darajasi tahlil davrida (2019-2023 y.y) nobarqaror bo'lgan va umume'tirof etilgan chegaraviy darajasidan (1,0 %) baland bo'lgan;

\* AT «Asakabank» kredit portfelining tarmoqlar va sohalar bo'yicha diversifikatsiya darajasi 2019-2023 yillarda juda past bo'lgan;

---

<sup>173</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

<sup>174</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

\* AT «Asakabank» kredit portfelida tasniflangan kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasi tahlil davrida (2019-2023 y.y) nobarqaror bo'lgan va umume'tirof etilgan chegaraviy darajasidan (1,0 %) baland bo'lgan;

\* AT «Asakabank»da sof foizli marjaning darajasi tahlil davrida (2019-2021y.y) nobarqaror bo'lgan. Shuningdek, uning me'yoriy darajasi ( $M_{s.f}=4,5\%$ ) ta'minlanmagan. Undan tashqari 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 0,6 foiz punktga pasaygan;

\* AT «Aloqabank»ning regulyativ kapitalini miqdori tahlil davrida (2019-2023 y.y) ko'payishi kuzatilgan;

\* AT «Aloqabank» passivlar hajmida regulyativ kapitalining salmog'i tahlil davrida (2019-2023 y.y) nobarqaror bo'lgan. Biroq, regulyativ kapitalining passivlar hajmidagi salmog'i 2023 yilda 2022 yilga nisbatan sezilarli darajada (5,3 f.p) o'sgan;

\* AT «Aloqabank»da kreditlardan olingan foizli daromadlarning miqdori 2020-2023 yillarda ko'payish tendensiyasi kuzatilgan;

\* AT «Aloqabank»da daromadlarning miqdori 2020-2023 yillarda ko'payish tendensiyasi kuzatilgan;

\* «AT «Aloqabank»da tahlil davrida (2019-2023 y.y) kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasi ko'rsatkichi, umume'tirof etilgan me'yoriy (1,0%) darajasidan past bo'lgan;

\*AT «Aloqabank»da tahlil davrida (2019-2023 y.y) brutto aktivlarining rentabellik darajasi nobarqaror bo'lgan. «Mazkur ko'rsatkich 2023 yilda 2019 yilga nisbatan sezilarli darajada (1,1 f.p) o'sgan;

\* AT «Aloqabank»da tahlil davrida (2019-2023 y.y)»<sup>175</sup> kapitalining rentabelligi darajasi ko'rsatkichi nobarqaror bo'lgan. Mazkur ko'rsatkich 2023 yilda 2019 yilga nisbatan sezilarli darajada (8,6 f.p) o'sgan»<sup>176</sup>:

---

<sup>175</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

<sup>176</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

5. «Tijorat banklarining daromad bazasiga ta'sir etayotgan asosiy omillar quyidagilardir:

- \* respublikamizda inflyatsiya va devalvatsiya darajalari yuqori ekanligi;
- \* iqtisodiyotning pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi etarlicha emasligi;

- \* Markaziy bankning asosiy stavkasini baland ekanligi;

- \* sof foizli marjaning darajasini (*Ms.f*) pastligi;

- \* muammoli kreditlar (*NPL*) miqdorining katta ekanligi;

- \* qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanmaganligi»<sup>177</sup>;

6. «Respublikamiz tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- \* mamlakatimiz banklarida sof foydaning»<sup>178</sup> riskka tortilgan aktivlar summasiga nisbatan darajasining (*min 2%*) past ekanligidir;

- \* O'zbekiston Respublikasi bank tizimidagi tijorat banklari depozitlarining tarkibida talab qilib olinguncha hisobvarag'idagi depozitlarning ulushi tahlil davrida (2019-2023 y.y) nisbatan yuqori bo'lgan. Talab qilib olinadigan hisobvarag'idagi depozitlar barqaror moliyaviy manba hisoblanmaganligi uchun ularning yuqori ulushi likvidlilik riski oqibatlari xavfi ortishiga sababchi bo'ladi;

- \* aktivlarning rentabellik darajasini (*ROA*) past va beqarorligi;

- \* Ssudalarning daromadlilik va risk oqibatlarining darajalari o'rtasidagi monandlik ta'minlanmagan;

- \* «O'zbekiston tijorat banklari brutto kreditlari hajmida muammoli kreditlarning ulushi tahlil davrida (2021-2023 y.y)»<sup>179</sup> baland bo'lgan;

---

<sup>177</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

<sup>178</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

<sup>179</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;

\*«banklarda sof foizli marjaning me'yoriy darajasiga erishilmaganligi ular aktivlarining daromadlilikini talab darajasida emasligini ko'rsatadi;

\*O'zbekiston tijorat banklarining fondli aktiv operatsiyalarini rivojlanmaganligi sof foyda miqdorini foizli daromadlar hisobidan ko'paytirishga to'sqinlik qilyapti;

Tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarni hal qilishga qaratilgan quyidagi ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqdik»<sup>180</sup>:

1 Tijorat banklarida sof foydaning me'yoriy darajasini ta'minlash maqsadida passivlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish orqali foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan barqaror darajasini ta'minlash, sof foydaning o'sish sur'ati bilan brutto aktivlarning riskka tortilgan summasining o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozim.

2. Tijorat banklari kreditlarining daromadlilikini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning me'yoriy darajasiga erishish ( $R_{r.c}=1,0\%$ ;  $S_{s.f}=1,25\%$ ), kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning jami daromadlar hajmidagi salmog'ining me'yoriy darajasini (*min 60%*) ta'minlash yo'li bilan kreditlarning barqaror daromadlilik darajasiga erishish lozim.

3. Tijorat banklari yalpi daromadi tarkibida investitsiya operatsiyalaridan olinadigan foizli daromadlarning barqaror ulushini ta'minlash yo'li bilan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olinadigan daromadlarning yillik o'sish sur'atining maqbul darajasi ( $MD=73\%-75\%$ ) chegarasiga erishish lozim.

4. Belgilangan stavkaga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha sof foizli marjaning me'yoriy darajasini ta'minlash ( $M_{s.f}=4,5\%$ ), lahzali likvidlilik koeffitsienti bo'yicha me'yoriy darajasiga ( $K_{l.l}=10,0\%$ ) erishish orqali banklarning yalpi daromadi tarkibida qimmatli

---

<sup>180</sup> Ханалиев Б. Б Проблемы, связанные с укреплением доходной базы коммерческих банков в Узбекистане //статья в журнале - научная статья. Термезский государственный университет (Термез). [Экономика и предпринимательство](#). – 2023. – № 9 (158).- С. 861-865.;



qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olingan daromadlarning yuqori va barqaror darajasini ta'minlash lozim.

5. Hissali ishtirok etish shaklidagi investitsiyalardan olinadigan daromadlarning me'yoriy darajasiga erishish ( $D_{o.a}=15\%$ ) va har bir xorijiy valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyasining yuqori me'yoriy darajasini ta'minlash yo'li bilan ( $max\ 10,0\%$ ) foizsiz daromadlar va foizsiz xarajatlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.11.2019 y., 03/19/582/4014-son.

2. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Banklar va bank faoliyati to'g'risida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.11.2019 y., 03/19/580/3994-son; 07.01.2020y., 03/20/600/0023-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son.

3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida//www.lex.uz.

O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartishlar kiritish haqida//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2023 y., 03/23/831/0219-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi//www.lex.uz.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi farmoni//QHMMB:06/205992/0581-son. 13.05.2020 y.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 noyabrdagi PF-5877 – sonli «Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.11.2019 y., 06/19/5877/4036-son.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-sonli «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. – №36.– 945-modda.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-sonli «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori// QHMMB:07/17/3270/0004-son.25.09.2017 y.

9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2023 yil 23 avgustdagi 24/7-sonli qarori. «Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to‘g‘risida»gi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida//QMMB: 10/23/3460/0742-son 03.10.2023-y.

10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori. Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 28-son, 374-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2018 y., 10/18/2696-2/1120-son.

11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi va Davlat raqobat qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazining 2015 yil 22 avgustdagi 299-V-2, 2015-12-sonli qarori. «Banklarning qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya vositachisi, investitsiya aktivlarini boshqaruvchi va investitsiya konsultanti sifatida kasbiy faoliyatni amalga oshirishiga oid talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi nizom// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 y., 14-15-son, 105-modda; 2014 y., 9-son, 95-modda; 2015 y., 38-son, 503-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.03.2019 y., 10/19/1782-3/2845-son.

12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015 yil 22 iyuldagi 19/14-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 13 avgustda 2709-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) «Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2015. - №32. – 141-152-b.

13. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori. Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 6 iyulda 2693-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan)// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 27-son, 360-modda; 2017 y., 27-son, 632-modda, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.10.2017 y., 10/17/2693-2/0167-son; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.04.2018 y., 10/18/2693-3/1099-son, 28.12.2018 y., 10/18/2693-4/2387-son, 07.03.2019 y., 10/19/2693-5/2722-son.

14. Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>; Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II, 2006. <http://www.bis.org.publications>.

15. Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems–Basel, 2010. <http://www.bis.org.publications>.

16. Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems–Basel, 2010. <http://www.bis.org.publications>.

## **II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar**

17. Аверьянова Ю.Г. Теоретические аспекты финансовой безопасности коммерческого банка//Экономические науки. – Москва, 2011. – №4. – С. 220-225.

18. Вороков А.Л. Методы и инструменты обеспечения финансовой безопасности коммерческих банков//Научный журнал КубГАУ. – Кубан, 2013. - №90. – С. 1-15.

19. Волошина О.Б. Доходность банка как один из основных показателей его экономического положения//Известия высших учебных заведений. - Поволжский регион, 2014. - 1. – С. 168-172.

20. Валенсева Н.И. Сенообразование на рынке банковских услуг//Банковское дело. – Москва, 2013. – №11. – С. 39.

21. Гапоненко В.Ф., Маргиев З.В. Экономическая и финансовая безопасность как важнейшая функция государства в современных условиях // Вестник Московского университета МВД России. – 2013. – № 12. – С. 165-169.
- Гайлук В.И., Вороков А.Л., Гайдук Н.В. Финансовая безопасность банков: критерии и индикаторы//Научный журнал КубГАУ. – Кубан, 2015. - №114. – С. 1-22.
22. Дудин Е. В. Динамика прибыли российских банков в условиях экономического спада//Научное обозрение. – Москва, 2016. - № 10. - С. 139-141.
23. Кумок С.И. Анализ деятельности коммерческих банков. – М. : Вече, 1996. – С. 153.
24. Ibodullaev Sh.T. Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini ta'minlash yo'llari. I.f.b.f.d.diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 56 b.
25. Кунитсина, Н. Н. Бизнес-планирование в коммерческом банке// – М. : Финансы и статистика, 2007. – 304 с.
26. Лещукова И. В. Прибыль коммерческого банка и ее источники//Инновационная наука. – Москва, 2017. - № 5. - С. 114 – 116.
27. Макнотон Д. Банковские учреждения в развивающихся стран. Пер. с англ. – Вашингтон: ИЕР, 1994. – С.71.
28. Платонова Ю.Ю. Финансовая безопасность банковской деятельности, как один из важнейших аспектов обеспечения стабильности коммерческих банков//Экономика и бизнес. – Москва, 2019. - №7. – С. 130-133.
29. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.Алпина Паблишер, 2017. – С.651-661.
30. Togaev S.S. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'llari. I.f.b.f.d.diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 55 b.
31. Хасянова, С. Ю. О системе отсенки финансовой устойчивости банковского сектора//Финансы и кредит. – 2012. – № 12. – С. 24–25.

32. Altman E. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy//The Journal of Finance. – 1968. – Vol. 23(4). – R. 589–609.

33. Ermolova M., Penikas H. PD-LGD Correlation Study: Evidence from the Russian Corporate Bond Market//Model Assisted Statistics and Applications. – 2017. – Vol. 12(4). – R. 335–358.;

### **III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar**

34. Афанасева О. Г. Анализ деятельности коммерческого банка: конспект лекций [Электронный ресурс]. – Чебоксары, 2013. – 70 с.

35. Abdullaev A.Ya. Tijorat banklarining likvidlilik darajasini oshirish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 21.

36. Ахмадеев М. Г., Шакиров Д. Т. Экономическая безопасность в банковском секторе//Актуальные проблемы экономики и права. 2011. № 2. С. 39–45.

37. Berdiyarov B.T. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliligi va to‘lov qobiliyatini ta‘minlash masalalari. I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 73b.

38. Gadoev S.J. Tijorat banklarida likvidlilik riskini boshqarishni takomillashtirish. I.f.b.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 47 b.

39. Isakov J.Ya. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda kredit samaradorligini oshirish. I.f.d. ilm. dar. ol.uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2016. – B. 28.

40. Ibodullaeva M.T. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini rivojlantirish yo‘llari. I.f.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 52 b.

41. Yo‘ldoshev O.A. O‘zbekiston Markaziy bankining tijorat banklari faoliyatini tartibga solish amaliyotini takomillashtirish. I.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2011. – 18 b.

42. Курилов К. Ю., Курилова А. А. Формирование эффективной структуры организации как средство преодоления негативного влияния

цикличности экономических процессов//Аудит и финансовый анализ. 2013. № 4. С. 248–253.

43. Лаврушин О.И. Развитие банковского сектора и его инфраструктуры в экономике России. – М.: КНОРУС, 2017. – С. 74.

44. Могилат А. Н. Отсечка финансовой устойчивости российских промышленных компаний, или О чем говорят банкротства // Вопросы экономики. – 2019. – № 3. – С. 101–118.

45. Majidov J.K. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlar portfellarining sifatini oshirish yo‘llari. I.f.b. f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – В. 22.

46. Пивоварова М.А. Международная научно-практическая конференция: «Инфляция и экономический рост: теория и практика» // Денги и кредит. – Москва, 2006. - №7. – С. 57-61.

47. Снатенков А.А. Финансовый анализ коммерческого банка: практикум. – Оренбург, 2015. – 133 с.

48. Снатенков А.А. Банковская система региона. Монография. – Оренбург: Издательский центр ОГАУ, 2011. – 85 с.

49. Усокин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.ЛЕНАНД, 2019. – 328 с.

50. Holmamatov F.K. Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish. I.f.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2019. - В. 25.

51. Шкут А.М. Проблемы осуществления кредитных операций российскими коммерческими банками // АПРИОРИ. Серия: Гуманитарные науки. – 2014. –№ 5. – С. 16-23.

52. Brouwer G. de, Evisson N.R. Modeling Inflation in Australia. Journal of Business and Economic Statistics. 1998. Vol. 16. – R. 24 - 29.;

53. Masson P., Savastano M., Sharma C. The Scope for inflation Targeting in Developing Countries. – Washington: IMF Working Paper, 1997/130.

54. Khan M. Senhadji. Thershild Effects in the Relatioinshop between Inflation and Growth // IMF Staff Papers. 2001. Vol. 48. - P.1-21.

55. Catao L., Terrones M. Fiscal Deficits and Inflation // Working Paper. 65. IMF. – R. 63 - 67.
56. Hess G., Morris C. The Long-Run Costs of Moderate Inflation // Federal Reserve Bank of Kansas City Economic Review. 1996. Second Quarter. – P. 71-88.
57. Юдина И.Н. Банковская система в развивающихся экономиках: опыт становления, развития и кризисов. Монография. – М.: ИНФРА-М, 2013. – С. 230-231.
58. Pul-kredit siyosati//www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki).
59. Pul-kredit siyosatining 2022 yil va 2023-2024 yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari//www.cbu.uz
60. Valyuta kurslari//www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki).
61. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021 yildagi faoliyati to‘g‘risida hisobot//www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki).
62. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022 yildagi faoliyati to‘g‘risida hisobot//www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki).
63. Pul-kredit siyosatining 2022 yil va 2023-2024 yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari// www.cbu.uz
64. O‘zbekiston Respublikasi davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi. 2021 yil uchun//www.mf.uz.
65. Tijorat banklari jamlanma balansi//www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki).
66. Translation of: Financial Soundness indicators: Compilation Guide. International Monetary Fund, 2007. ISBN 1-58906-401-0. www.imf.org.
67. Institute for Economic Development. The World Bank, 1818 N Sreet, N.W., Washington, D.C., 2020.
68. The World Bank. Indicator//http://data.worldbank.org/indicator.
69. Bank of America. Concolidated Balance Sheet. Annual Report. 2019, 2020, 2021, 2022, 2023. http://www.bankofamerica.com



70. Bank of America. Concolidated Statement of income. Annual Report. 2019, 2020, 2021, 2022, 2023. <http://www.bankofamerica.com>
71. «Deutsche Bank». Concolidated Balance Sheet. Annual Report. 2019, 2020, 2021, 2022, 2023. <https://www.db.com>.
72. «Deutsche Bank». Consolidated Statement of Profit or Loss. Annual Report. 2019, 2020, 2021, 2022, 2023. <https://www.db.com>
73. «BNP Paribas» bank. Concolidated Balance Sheet. Annual Report. 2019, 2020, 2021, 2022, 2023. <https://www.group.bnpparibas.com>.
74. «BNP Paribas» bank. Consolidated Statement of Profit or Loss. Annual Report. 2019, 2020, 2021, 2022, 2023. <https://www.group.bnpparibas.com>.
75. AT «Asakabank». Balans hisoboti. 2019, 2020, 2021, 2022, 2023, [//www.asakabank.uz](http://www.asakabank.uz)
76. AT «Asakabank». Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot. 2019, 2020, 2021, 2022, 2023 [//www.asakabank.uz](http://www.asakabank.uz)
77. AT «Aloqabank». Tijorat bankining balans hisoboti. 2019, 2020, 2021, 2022, 2023 [//www.aloqabank.uz](http://www.aloqabank.uz)
78. AT «Aloqabank». Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot. 2019, 2020, 2021, 2022, 2023 [//www.aloqabank.uz](http://www.aloqabank.uz)
79. [www.bankofamerica.com](http://www.bankofamerica.com) – Benk of Amerika (AQSh).
80. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)– O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.
81. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) – O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki.
82. [www.uzrvb.uz](http://www.uzrvb.uz) – O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasi.
83. [www.uzse.uz](http://www.uzse.uz) – «Toshkent» fond birjasi
84. [www.asakabank.uz](http://www.asakabank.uz) – AT «Asakabank»
85. [www.aloqabank.uz](http://www.aloqabank.uz)– AT «Aloqabank»